BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH: YANGI IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR”

mavzusidagi xalqaro
ilmiy-amaliy konferensiya
Toshkent, 2025-yil 23-24-oktyabr

“Buxgalteriya hisobi va auditda sun'iy intellektdan foydalanish: yangi imkoniyatlar va muammolar”: *Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami.* / Mualliflar jamoasi. –Toshkent. TDIU, 2025.- 286 b.

Zamonaviy raqamli transformatsiya sharoitida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari iqtisodiyotning turli sohalariga, xususan, buxgalteriya hisobi tizimiga ham jadal kirib kelmoqda. Buxgalteriya hisobi inson omilining xatolarga moyilligini kamaytirish, ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash va ishonchlilikni oshirish kabi muhim jihatlar bilan SI texnologiyalaridan foydalangan holda yangicha sifat bosqichiga ko‘tarilmoqda.

Ushbu to‘plamda iqtisodiyotning real sektori, tashqi va ichki investitsiyalar oqimi, shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida moliya-hiso tizimini avtomatlashtirishning ilg‘or xalqaro tajribasini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiy tendensiyalardan kelib chiqqan holda, buxgalteriya hisobi va audit faoliyatini to‘liq raqamlashtirish, intellektual tahliliy tizimlarni joriy etish hamda ushbu sohada axborot xavfsizligini ishonchli ta’minlash bo‘yicha respublikamizda olib borilayotgan tizimli islohotlar hamda tarkibiy o‘zgarishlar aniq raqamlar, tahliliy ma’lumotlar va qiyosiy dalillar asosida atroflicha o‘rganilgan.

Sohaning bugungi kundagi mavjud muammolari va ularning sun'iy intellekt algoritmlari yordamidagi ilmiy-amaliy yechimlari mamlakatimizdagi yetakchi professor-o‘qituvchilar, soha mutaxassislari, tadqiqotchi olimlar hamda iqtidorli yosh magistrant va bakalavriatlar tomonidan chuqur o‘rganilib, amaliyotga joriy etish mumkin bo‘lgan taklif hamda tavsiyalar shaklida bayon etilgan.

To‘plam oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot institutlarining olimlari, professor-o‘qituvchilari, talabalari, shuningdek, ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning rahbarlari hamda mutaxassislari uchun mo‘ljallangan.

Maqola mazmuni hamda unda keltirilgan faktlar va raqamlarning to‘g‘riligi uchun mualliflar javobgardir.

2025 йил 23-24 октябрь кунлари Тошкент давлат иқтисодиёт университетида халқаро ва миллий экспертларнинг глобал ва миллий тараққиёт тенденцияларига оид илмий ғоялар ҳамда илмий-амалий тажриба алмашинуви платформасини яратишга қаратилган "Глобал ва миллий иқтисодиёт трендлари: Ўзбекистон – 2030 стратегияси" IV халқаро форуми бўйича ўтказиладиган тадбиридаги университет Ректорининг

КИРИШ СЎЗИ

Ассалому алайкум, ҳурматли меҳмонлар, халқаро ва миллий экспертлар, устозлар, ҳамкасблар ва азиз талабалар.

Бугун Тошкент давлат иқтисодиёт университетида "Глобал ва миллий иқтисодиёт трендлари: Ўзбекистон – 2030 стратегияси" мавзусидаги тўртинчи халқаро форум ўз ишини давом эттирмоқда. Ушбу анжуман иқтисодий ислоҳотларнинг илмий асосларини мустаҳкамлаш, рақамли технологиялар ва сунъий интеллектни жорий этиш орқали мамлакатимиз иқтисодиётини янги босқичга олиб чиқишга қаратилган.

"Ўзбекистон – 2030 стратегияси"да белгилаб берилган устувор вазифалар қаторида барқарор иқтисодий ўсиш, инсон капиталини ривожлантириш ва рақамли иқтисодиётга ўтишни жадаллаштириш муҳим ўрин эгаллайди. Форум доирасидаги муҳокамалар айнан шу йўналишлардаги амалий ечимларни излашга йўналтирилган.

Иккинчи куннинг илмий конференциялари банк-молия тизими ва хусусий секторни ривожлантириш, бухгалтерия ҳисоби ва аудитда сунъий интеллект технологияларини қўллаш масалаларига бағишланган. Бу йўналишлар мамлакатимиз иқтисодиётида шаффофлик, самарадорлик ва халқаро ҳисобот стандартларига мувофиқликни таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.

Бугунги кун тадқиқотлари шундан далолат берадики, рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши нафақат молия секторида, балки барча соҳаларда янги имкониятлар эшигини очмоқда. Шу сабабли бугунги

анжуманда сунъий интеллектнинг амалиётдаги афзалликлари, бухгалтерия ҳисоби ва аудиторлик фаолиятидаги самарадорлиги муҳокама қилинаётгани жуда долзарбдир.

Таъкидлашимиз керакки, бугунги тадбирда Россия Федерацияси, Индонезия, Хитой, Қирғизистон, Тожикистон, Малайзия, Руминия, Полша каби давлатларидан қатнашаётган мутахассислар томонидан билдириладиган фикр ва мулоҳазалар, таклиф ва тавсиялар иқтисодиётнинг барча секторларини турли жиҳатдан ривожлантиришга, банк-молия тизими ҳамда хусусий секторда мавжуд муаммоларни камайтириш, бухгалтерия ҳисоби ва аудит жараёнларини сунъий интеллект асосида автоматлаштириш, халқаро тажрибани қўллаш орқали хизматлар сифатини ошириш, рақамлаштириш ва ахборот хавфсизлигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.

Конференцияни ташкиллаштирган ва буни ўтказишда жонбозлик кўрсатган барча қатнашчиларга, хорижий ҳамкорларимизга, айниқса, университет жамоасига илм-фанга қўшаётган ҳиссалари учун миннатдорчилик билдираман.

Ўйлайманки, мазкур форум ва унинг доирасида ўтказилаётган конференциялар натижалари бўйича олинган билим ва тўплаган тажрибаларимиз келгусида ўзининг самарасини беради.

Сўзим якунида барча иштирокчиларга улкан муваффақиятлар тилаган ҳолда тадбирни очиқ деб эълон қиламан.

Эътиборларингиз учун раҳмат!

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТРЕБОВАНИЙ ОБЯЗАТЕЛЬНОГО КОНТРОЛЯ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Абдуганиев Иброхим Абдугаффор угли
Ташкентский государственный экономический университет
магистрант 2-го этапа по направлению «Экономическая безопасность»
e-mail:ibrohimabduganiyev2003@gmail.com

В условиях цифровизации экономики система обязательного контроля приобретает качественно новое значение, поскольку традиционные подходы к контрольной деятельности уже не в полной мере соответствуют динамике современных экономических процессов. Ускорение финансовых операций, распространение электронного документооборота, развитие цифровых платформ и рост объема данных требуют пересмотра как организационных, так и нормативных основ обязательного контроля. Особую актуальность приобретает вопрос совершенствования его требований на основе цифровых технологий, способных обеспечить более высокий уровень прозрачности, оперативности и результативности контрольных процедур.

Целью настоящих тезисов является обоснование необходимости модернизации требований обязательного контроля в условиях цифровой трансформации экономики. Основная идея исследования заключается в том, что дальнейшее развитие системы обязательного контроля должно быть связано не только с техническим внедрением цифровых решений, но и с институциональным обновлением его содержания, принципов и механизмов реализации. Иными словами, цифровые технологии должны рассматриваться не как вспомогательный инструмент, а как системообразующий фактор трансформации контрольной среды.

Совершенствование требований обязательного контроля предполагает переход от преимущественно формального и периодического контроля к непрерывному, риск-ориентированному и аналитически обоснованному мониторингу. В этой связи особую значимость приобретают электронные системы идентификации, автоматизированная обработка информации ,

интеллектуальный анализ данных, цифровые реестры, технологии удаленного взаимодействия и интегрированные информационные платформы. Их внедрение позволяет существенно повысить точность контрольных мероприятий, минимизировать влияние человеческого фактора, сократить временные и административные издержки, а также обеспечить своевременное выявление отклонений и нарушений.

Вместе с тем модернизация требований обязательного контроля не может ограничиваться цифровизацией отдельных процедур. Необходим комплексный подход, включающий нормативное закрепление электронных форм контроля, развитие единых стандартов цифрового обмена данными, повышение уровня информационной безопасности, защиту персональных и служебных данных, а также формирование компетенций у специалистов, осуществляющих контрольные функции. Кроме того, принципиально важным становится обеспечение правовой определенности в вопросах использования автоматизированных решений при принятии контрольных и надзорных решений.

Предлагаемый путь решения состоит в формировании цифрово-ориентированной модели обязательного контроля, основанной на межведомственной интеграции информационных ресурсов, применении риск-ориентированных алгоритмов, стандартизации контрольных процедур и обеспечении прослеживаемости операций в электронной среде. Такая модель позволяет придать обязательному контролю не только надзорный, но и превентивный характер, что особенно важно в условиях усложнения хозяйственных связей и роста цифровых рисков.

В результате внедрения цифровых технологий в систему обязательного контроля ожидается повышение ее прозрачности, адаптивности и эффективности. Краткое обсуждение показывает, что цифровая модернизация способствует укреплению дисциплины исполнения обязательных требований,

снижению вероятности злоупотреблений, повышению качества управленческих решений и формированию более устойчивой системы экономической безопасности. Вместе с тем успешность данных преобразований во многом зависит от согласованности правового регулирования, технологической готовности институтов и уровня цифровой зрелости субъектов экономики.

Таким образом, совершенствование требований обязательного контроля на основе цифровых технологий выступает объективной необходимостью современного этапа развития экономики. Его эффективность определяется способностью государства и хозяйствующих субъектов обеспечить переход к новой модели контроля, основанной на цифровой прозрачности, аналитической точности и институциональной гибкости. Именно такой подход позволяет адаптировать систему обязательного контроля к условиям цифровой экономики и повысить ее стратегическую значимость в обеспечении устойчивого социально-экономического развития.

Литература

1. Гафуров Р. Р. Цифровая экономика и ее теоретические основы.

2. Gulyamov S. S. Digitalization of the education system in Uzbekistan // Theoretical & Applied Science. 2020. Vol. 90. P. 453-455.

ЦИФРОВИЗАЦИЯ ЭКОНОМИКИ КАК ФАКТОР МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ОБЯЗАТЕЛЬНОГО КОНТРОЛЯ

Абдуганиев Иброхим Абдугаффор угли
Ташкентский государственный экономический университет
магистрант 2-го этапа по направлению «Экономическая безопасность»
e-mail:ibrohimabduganiyev2003@gmail.com

В современных условиях цифровая трансформация экономики выступает одним из ключевых факторов изменения содержания, форм и механизмов государственного и институционального регулирования.

Особенно заметно данное влияние проявляется в сфере обязательного контроля, где традиционные методы надзора и проверки постепенно утрачивают способность в полной мере обеспечивать своевременное выявление нарушений, прозрачность процедур и результативность контрольной деятельности. Это обусловлено ростом объема цифровых данных, расширением электронного документооборота, развитием платформенных решений, а также усложнением хозяйственных связей в цифровой среде.

Целью настоящих тезисов является обоснование роли цифровизации экономики как системного фактора модернизации обязательного контроля. Научная значимость рассматриваемой проблемы определяется тем, что модернизация контрольной системы в условиях цифровой экономики должна затрагивать не только технические инструменты, но и институциональные, организационные и правовые основы контрольной деятельности. В этой связи цифровизация должна рассматриваться не как внешний технологический фон, а как внутренний драйвер трансформации требований обязательного контроля.

Влияние цифровизации экономики на систему обязательного контроля проявляется прежде всего в изменении характера объектов контроля, способов сбора и обработки информации, а также форм взаимодействия между контролирующими органами и хозяйствующими субъектами. Использование цифровых технологий позволяет перейти от преимущественно фрагментарного и последующего контроля к непрерывному мониторингу, основанному на анализе данных в режиме, максимально приближенном к реальному времени. Электронные реестры, автоматизированные базы данных, цифровые платформы, технологии удаленной идентификации и интеллектуальной аналитики формируют качественно новую контрольную среду, в которой существенно снижается влияние человеческого фактора и повышается точность принимаемых решений.

Вместе с тем модернизация системы обязательного контроля в условиях цифровизации экономики требует пересмотра действующих требований к его организации и осуществлению. Прежде всего, возникает необходимость нормативного закрепления электронных форм контроля, стандартизации процедур цифрового обмена данными, обеспечения сопоставимости информационных ресурсов, а также повышения уровня информационной безопасности. Не менее важным направлением является развитие компетенций специалистов, осуществляющих контрольные функции, поскольку эффективность цифрового контроля определяется не только наличием

технологических решений, но и готовностью институциональной среды к их полноценному применению.

Предлагаемый подход к модернизации системы обязательного контроля предполагает формирование риск-ориентированной цифровой модели, основанной на автоматизации контрольных процедур, межведомственной интеграции данных, аналитической обработке информации и превентивном выявлении отклонений. Такая модель способствует не только повышению эффективности надзора, но и созданию более прозрачной, устойчивой и адаптивной системы регулирования, соответствующей требованиям современной экономики.

Таким образом, цифровизация экономики выступает объективным и закономерным фактором модернизации системы обязательного контроля. Ее влияние выражается в трансформации целей, инструментов и принципов контрольной деятельности, а также в необходимости совершенствования нормативных и организационных механизмов ее реализации. В долгосрочной перспективе именно цифрово ориентированная модель обязательного контроля способна обеспечить баланс между эффективностью надзора, снижением административной нагрузки и укреплением экономической безопасности.

Литература

1. Гафуров Р. Р. Цифровая экономика и ее теоретические основы.

2. Gulyamov S. S. Digitalization of the education system in Uzbekistan // Theoretical & Applied Science. 2020. Vol. 90. P. 453-455.

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA QO‘SHILGAN KAPITAL HISOBINI IFRS TALABLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Alijonov Ergashboy Ilhomjon o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Buxgalteriya hisobi yo‘nalishi 1-kurs magistranti.

Annotatsiya: *Mazkur tezisda aksiyadorlik jamiyatlarida qo‘shilgan kapitalning iqtisodiy mohiyati, uning buxgalteriya hisobida aks ettirilishi va moliyaviy hisobotlarda ifodalanishi o‘rganilgan bo‘lib, shakllanish manbalari, tarkibi hamda milliy hisob tizimidagi o‘rni tahlil qilingan, mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish yo‘llari asoslab berilgan, xalqaro standartlar talablari asosida tan olish va baholash masalalari yoritilib, milliy va xalqaro*

amaliyot o‘rtasidagi farqlar tahlil qilinib, ularni uyg‘unlashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *qo‘shilgan kapital, aksiyadorlik jamiyati, ustav kapitali, share premium, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS), xalqaro standartlar, takomillashtirish, kapitalni boshqarish.*

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligi ko‘p jihatdan ularning kapital tuzilmasi qay darajada to‘g‘ri shakllantirilgani va samarali boshqarilayotganiga bog‘liq hisoblanadi. Ushbu jarayonda qo‘shilgan kapital alohida ahamiyat kasb etib, u aksiyalarni nominal qiymatidan yuqori narxda joylashtirish natijasida yuzaga keladigan moliyaviy manba sifatida shakllanadi. Shuning uchun ham qo‘shilgan kapitalni buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirish hamda moliyaviy hisobotlarda ochiq va aniq ko‘rsatish korxonaning real moliyaviy holatini baholashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Amaliyotda esa, ayniqsa O‘zbekiston sharoitida, qo‘shilgan kapitalni hisobga olish va yoritishda ayrim kamchiliklar uchrab turadi: uning moliyaviy hisobotlarda yetarli darajada ochib berilmasligi, tarkibiy qismlarining aniq tasniflanmaganligi hamda ayrim hollarda noto‘g‘ri aks ettirilishi shular jumlasidandir. Bunday holatlar investorlar va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar uchun ishonchli axborot olish imkoniyatini cheklab, korxonaning investitsion jozibadorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etishda xalqaro tajriba muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi, xususan xalqaro moliyaviy hisobot standartlarida kapital elementlarini tan olish, baholash va hisobotlarda aks ettirish bo‘yicha aniq yondashuvlar belgilangan bo‘lib, ular moliyaviy axborotning shaffofligi va taqqoslanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tahlil

Aksiyadorlik jamiyatlarida kapital tarkibini shakllantirish va uning buxgalteriya hisobida aks ettirilishi milliy buxgalteriya hisobi tizimi hamda IFRS

o‘rtasida muayyan farqlar mavjudligi bilan tavsiflanadi. Ushbu farqlar, ayniqsa, qo‘shilgan kapitalning tan olinishi, tasniflanishi va moliyaviy hisobotlarda ko‘rsatilishida yaqqol namoyon bo‘ladi.

1-jadval

Milliy standartlar va IFRS o‘rtasidagi farq

Ko‘rsatkich	**Milliy buxgalteriya hisobi (BHMS)**	**IFRS**
Kapital tarkibi	Ustav kapitali va qo‘shimcha kapital umumiyroq ko‘rsatiladi	Kapital aniq elementlarga bo‘linadi (share capital, share premium va boshqalar)
Qo‘shilgan kapital	Ko‘pincha umumiy “qo‘shimcha kapital” sifatida yuritiladi	“Share premium” alohida modda sifatida ko‘rsatiladi
Hisobotda ochiqlik	Nisbatan umumlashtirilgan ma’lumotlar	Batafsil disclosure talab etiladi (IAS 1)
Aksiyalar emissiyasi	Emissiya farqi ba’zan to‘liq ochilmaydi	Aksiya nominal qiymatidan ortiq qismi alohida kapital sifatida tan olinadi
Investorlar uchun axborot	Cheklangan	To‘liq va shaffof axborot

Milliy amaliyotda kapital elementlari nisbatan umumlashtirilgan tarzda yuritilsa, xalqaro standartlarda esa har bir kapital turi alohida va aniq modda sifatida aks ettiriladi (1-jadval). Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarida kapital elementlari aniq tasniflangan bo‘lib, qo‘shilgan kapital (share premium) alohida moliyaviy ko‘rsatkich sifatida yuritiladi. Bu esa korxona moliyaviy holatini yanada aniq va shaffof baholash imkonini beradi. Milliy buxgalteriya hisobi amaliyotida esa ayrim hollarda ushbu ko‘rsatkichlar umumlashtirilgan holda aks ettirilishi axborotning aniqligi va taqqoslanish darajasini kamaytirishi mumkin.

Xulosa

Tahlillar natijasidan kelib chiqib, aksiyadorlik jamiyatlarida qo‘shilgan kapital hisobini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishi sifatida uni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) talablari bilan bosqichma-bosqich

uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda kapital elementlarini aniq va to‘g‘ri tasniflash, qo‘shilgan kapitalni alohida hisob obyekti sifatida yuritish hamda uning shakllanish manbalari va o‘zgarishlarini moliyaviy hisobotlarda to‘liq va ochiq yoritish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv korxonaning moliyaviy holatini yanada shaffof va ishonchli aks ettirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, moliyaviy hisobotlarda kapital bo‘yicha ochiqlik (disclosure) darajasini oshirish, ya’ni investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun qo‘shimcha izohlar hamda tahliliy ma’lumotlarni kengaytirish zarur. Milliy buxgalteriya hisobi amaliyoti bilan xalqaro standartlar o‘rtasidagi tafovutlarni qisqartirish maqsadida hisob siyosatini qayta ko‘rib chiqish, buxgalteriya jarayonlarini raqamlashtirish hamda xalqaro tajribani bosqichma-bosqich joriy etish tavsiya etiladi. Ushbu chora-tadbirlar aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va ularning xalqaro moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrir 13.04.2016 y.)
2. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari.
3. International Financial Reporting Standards (IFRS) Foundation. IFRS Standards (to‘liq to‘plam). London: IFRS Foundation, 2023.
4. IAS 1 – Presentation of Financial Statements. IFRS Foundation, latest edition.
5. IFRS 9 – Financial Instruments. IFRS Foundation, latest edition.

AVTOMOBIL YO‘LLARI TIZIMIDAGI BUDJET TASHKILOTLARIDA SMETA TUZISH VA TASDIQLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH

Abduraxmanov R.A.
TDIU buxgalteriya hisobi kafedrasi
katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Ushbu tezisda O‘zbekiston Respublikasida byudjet mablag‘larini to‘g‘ri yo’naltirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida, bu jarayonga kelib chiqayotgan muammolar va ularni hal etish uchun taklif hamda tavsiyalar berilgan. 2025-yil uchun respublikamizda byudjet tizimini yaxshilashga qaratilgan qarorlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: davlat byudjet, byudjet mablag‘lari, byudjetdan tashqari mablag‘larni samarali yo‘naltirish, davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari, prognoz, turli sohalar, optimallashtirish, davlat maqsadli jamg‘armalari.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni strategik va innovatsion rivojlantirish jarayonlarini amalga oshirish borasida qabul qilinayotgan davlat dasturlarida davlat budjeti shaffofligini va barcha darajadagi budjetlar mutanosibligini ta‟minlash, budjet mablag‘larini samarali rejalashtirish hamda maqsadli sarflash kabi o‘ta muhim vazifalar belgilanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi budjet tashkilotlarida smetasini tashkil etishning muhim tarkibiy qismi hisoblangan budjet nazoratining nazariy va huquqiy asoslariga, uning zarurligi va mohiyati, turlari va usullariga tayangan holda ushbu mavzuni yoritishga harakat qildik. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng bozor talabalariga javob bera oladigan milliy budjet tizimini shakllantira oldi hamda ushbu sohada hozirgi kunga kelib xalqaro me`yor talablari darajasida strategik islohotlar amalga oshirib kelinmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2023 yilning 11 sentyabrdagu PF-158-sonli farmonida “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida ta`kidlab o‘tilganidek: “Davlat budjetini tasdiqlash va uning ijrosini nazorat qilish

doirasida parlament tomonidan masʻul tashkilotlarga aniq strategik vazifalarni qoʻyish va natijaga qarab ularga soʻrov yuborish amaliyotini joriy qilish”[1] bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Budjet tashkilotlarining samarali faoliyati koʻp jihatdan uning moliyaviy mablagʻlar bilan etarli darajada taʻminlanishiga bogʻliq. Shu sababdan budjet tashkilotlarida budjet mablagʻlaridan oqilona va samarali foydalanish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Budjet tashkilotlari budjet mablagʻlarining asosiy isteʻmolchisi hisoblanadi. Shu sababdan, davlat budjeti xarajatlarining asosiy ulushi budjet tashkilotlari hissasiga toʻgʻri keladi va bu xarajatlar smetasi asosida qonunchilikda belgilangan tartibda budjetdan moliyalashtiriladi. Ushbu holatlar normativ hujjatlarda ham oʻz aksini topgan boʻlib, “Budjet tashkiloti va budjet mablagʻlari oluvchilarning Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan xarajatlari budjetdan ajratiladigan mablagʻlar doirasida va ularning xarajatlar smetalarida koʻrsatilgan maqsadlarda amalga oshiriladi”[2] - deb belgilab qoʻyilgan.

Xarajatlarni hisoblab chiqishda quyidagilarga amal qilish kerak:

Oʻzbekiston Respublikasi qonunlari, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining boshqa qarorlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Iqtisodiyot va moliya vazirligining idoraviy normativ hujjatlariga; budjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirishning normativ uslubiga;

tovar va xizmatlarini davlat tomonidan tartibga solinadigan baholari va tariflariga,

shuningdek, nodavlat korxonalari va tashkilotlarining ayrim tovarlari va xizmatlari baholariga;

Oʻzbekiston Respublikasi va Qoraqalpogʻiston Respublikasi vazirliklari, idoralarining rahbarlari, tegishli hokimiyatlarning boshqarmalari va boʻlimlari

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yilning 11 sentyabrdagu PF-158-sonli “Oʻzbekiston-2030 strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni, 2023-yil 11-sentyabr, PF-158-son

[2] “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablagʻlari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va roʻyxatdan oʻtkazish tartibi toʻgʻrisidagi” Nizom (2014 yil 15 dekabrda 2634-son) 35

rahbarlarining o‘ziga qarashli tashkilotlarning kelgusi yil uchun smetalarini tuzish masalalari bo‘yicha ko‘rsatmalari va takliflariga, agarda ular qonun hujjatlariga zid bo‘lmasa. Jumladan:

smetaga ish haqi uchun mablag‘lar budjet to‘grisidagi maoshlari va ish haqi stavkalari va ularga qo‘shimcha to‘lovlardan, amaldagi namunaviy shtatlar va normativlarga rioya qilishdan kelib chiqib kiritiladi; xo‘jalik usuli bilan bajariladigan ishlar uchun ish haqi smetalarga budjet yili xarajatlar

smetasida ko‘zda tutilgan ish hajmlaridan kelib chiqib kiritiladi;

xodimlarning ish haqidan davlat ijtimoiy sug‘urtasiga o‘tkaziladigan xarajatlar, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan barcha ish haqidan olinadigan, qaysiki qonun hujjatlariga muvofiq davlat ijtimoiy sug‘urta badallari to‘lanadigan, sug‘urta to‘lovlari tariflariga asosan smetaga kiritiladi; kommunal xizmatlar uchun xo‘jalik xarajatlari, kommunal xizmatlar uchun amaldagi baho

va tariflar asosida hisoblanadi; xodimlarning ayrim guruhlariga uy joylarni va kommunal xizmatlarni bepul berish uchun

ketadigan xarajatlar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi; dori-darmonlarga ketadigan xarajatlar qonun hujjatlari bilan belgilangan pul xarajatlari

me`yoriga qarab hisoblanadi.

Xarajatlar smetasiga ko‘ra xarajatlarni amalga oshirishni takomillashtirish maqsadida:

xarajatlar smetasi shaklini, budjet loyihasini tayyorlash bilan bog‘liq budjet buyurtmasi shakliga mosligini ta‟minlash lozim. Shunda berilgan buyurtma va tasdiqlangan xarajatlar smetasi orasidagi bog‘liqlik darajasi oshadi va budjet tashkilotlari faoliyatiga engillik kiritiladi; ikkinchidan, yil davomida xarajatlar smetasiga kiritilayotgan har qanday o‘zgarishlar qat‟iy ravishda faqat budjet tashkilotining rasmiy murojaati va/yoki rasmiy tasdiqlangan roziligiga asosan amalga oshirilishini ta‟minlash lozim. Bu nafaqat budjet ijrosi shaffofligini, balki g‘azna organlari faoliyatini ham qulaylashtirishga xizmat qiladi.

HISOB SIYOSATINI USLUBIY, TASHKILIY VA TEXNIK JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich

fabduvaxidov206@gmail.com

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Buxgalteriya hisobining eng muhim va asosiy vazifasi — ishonchli, to‘liq ma’lumotni shakllantirish bo‘lib, uning asosida tashkilotning iqtisodiy faoliyati, uning daromadlari va xarajatlari, aktivlari, majburiyatlari va boshqalar to‘g‘risida asosiy funksiyalarni bajarish lozim bo‘ladi. Shubhasiz, buxgalteriya hisobi maksimal samaradorlikni ta’minlaydigan yagona belgilangan qoidalarga muvofiq, tashkilot to‘g‘risida ishonchli va foydali ma’lumotlarni o‘z vaqtida hisobga olishi va uni amalga oshirishi lozim. Aynan ushbu qoidalarni tanlash va belgilash tashkilotning hisob siyosati belgilab beradi, bu esa, keyinchalik tashkilotning moliyaviy natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Hisob siyosati muammolariga bag‘ishlangan ishlarning salmoqli miqdoriga qaramasdan, u bilan bog‘liq ko‘plab masalalar hanuzgacha o‘z yechimini topmagan. Bunday masalalarga, bizning fikrimizcha, hisob siyosatining mazmuni va tuzilishini talqin qilish kiradi.

Hisob siyosatini shakllantirish bilan bog‘liq masalalar ko‘pchillik iqtisodchi olimlar va soha xodimlarining e’tiborini tortgan. Ayniqsa hisob siyosatini uslubiy jihatida aks ettiriladigan bahsli masalalar ularning ilmiy tadqiqot ishlari natijalarida, shuningdek, soha xodimlari tomonidan uslubiy-me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishlarida turlicha yondoshuvlar, taklif va tavsiyaviy ko‘rinishda o‘z ifodasini topgan. Shu boisdan, ushbu manbalarni o‘rganish orqali o‘zimizning fikrlarimizni bayon qilamiz.

R.D.Dusmuratov va B.M.Djurayev tomonidan chop etilgan monografiyasida hisob siyosatini uslubiy, texnik va tashkiliy jihatlarga ajratish bo‘yicha fikrlari berilgan [1].

I.M. Dmitriyevaning fikriga koʻra, hisob siyosatining tuzilishida ikki qismga tashkiliy-texnik va uslubiy ajratib koʻrsatiladi [16].

Yu.A. Babayev, I.P. Komissarova, V.A. Borodin hisob siyosatini tashkiliy va uslubiy jihatga farqlaydi [17].

A.I. Gomolning yondashuviga koʻra, hisob siyosatini ikki jihati: uslubiy va tashkiliy-texnik jihatga ajratib koʻrsatadi [18].

Yu.I. Proskurovskaya hisob siyosatini uch tomonini ya'ni, uslubiy, texnik va tashkiliy ajratib koʻrsatish mumkin deb hisoblaydi [19].

V.M. Bogachenko va L.A. Rusalevalarning fikriga koʻra, hisob siyosati uchtaga uslubiy, texnik va tashkiliy yoʻnalishga ajratib koʻrsatadi [20].

Buxgalteriya hisobiga oid ilmiy adabiyotlarida hisob siyosati jihatlarining tuzilishi va mazmuni koʻrib chiqamiz.

I.M.Dmitriyeva tomonidan bildirilgan yondoshuvda, tashkiliy-texnik jihatlar bitta qismga birlashtirilgan va tashkilotda buxgalteriya hisobi tizimi toʻgʻrisidagi ma'lumotlar ochib beriladi. Uslubiy jihatida - buxgalteriya hisobini yuritish usullari ochib berilmagan.

Yu.A.Babayev, I.P.Komissarova, V.A.Borodinlar faqat tashkiliy jihatda - iqtisodiy subyektning buxgalteriya hisobini tashkil etish uchun zarur boʻlgan hisob siyosati qoidalari ochib berilgan. Uslubiy jihatda- buxgalteriya hisobini me'yoriy tartibga solish tizimi tomonidan tavsiya etilgan usul va uslublar ochib berilgan.

A.I.Gomola tashkiliy-texnik jihatida - buxgalteriya xizmatining hisob jarayonini tashkil etish usullari va uslublari ochib berilgan. Uslubiy jihatida - tashkilot faoliyatining moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibiga, uning mulkiy va moliyaviy holatini baholashga ta'sir koʻrsatadigan jihatlar ochib berilgan.

Yu.I.Proskurovskaya tashkiliy jihatda - buxgalteriya tuzilishi va uning asosiy jihatlari, uning tashkilot boshqaruv tizimidagi oʻrni ochib berilgan. Texnik jihatida- uslubiy jihatni amalga oshirishning ishchi vositalari ochib berilgan. Uslubiy jihatda -amaldagi me'yoriy bazadan kelib chiqqan holda hisob obyektlari ochib beriladi.

Bogachenko V.M., Rusaleva L.A. tashkiliy jihatda - buxgalteriya xizmatini tashkil etish tartibi va uning korxonaning boshqa bo‘linmalari bilan o‘zaro aloqasi ochib beriladi. Texnik jihatida- hisob jarayonining asosiy jihatlari aks ettiriladi. Uslubiy jihatda- aktivlar, majburiyatlar, amortizatsiya hisoblash va hokazolarni baholash usullari va yo‘llari ochib beriladi.

Olimlarning keltirilgan nuqtayi nazarlari tashkilotning hisob siyosatining mazmuni va tuzilishiga yondashuvlarning yagona emasligini ko‘rsatadi. Ba’zi olimlar uslubiy, tashkiliy va texnik jihatning (qism, yo‘nalish, masala) mazmunini ochib bermaydilar, boshqalari buxgalteriya hisobining aniq yo‘llari va usullarini sanab o‘tadilar.

Hisob siyosati tarkibida turli olimlar tomonidan taklif etilgan buxgalteriya hisobini yuritish usullari va uslublarining o‘zida ham farqlar ko‘zga tashlanadi.

Shunday qilib, hisob siyosatini shakllantirishda uning jihatlarini tarkiblash xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobi va hisobotini to‘g‘ri tashkil qilish, shuningdek, subyekt faoliyatini boshqarish va ishlab chiqarishni samaradorligini oshirish, faoliyat turlari bo‘yicha moliyaviy natijalarini shakllantirishga ta’sir etuvchi omillarni oldindan belgilash imkoniyatini beradi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dusmuratov R.D., Djurayev B.M. Qishloq xo‘jalik korxonalarida hisob siyosati: uslubiy va tashkiliy-texnik jihatlari. Monografiya.– T.: 2016. – 144 b.

2. Buxgalterskiy uchet / pod red. I.M.Dmitriyevoy. M.: Eksmo, 2010. 656 s.

3. Babayev Yu.A., Komissarova I.P., Borodin V.A. Buxgalterskiy uchet / pod red. prof. Yu.A. Babayeva, prof. I.P. Komissarovoy. M.: YUNITI-DANA, 2005. 527 s.

4. Gomola A.I. Teoriya buxgalterskogo ucheta. M.: Akademiya, 2010. 208 s.

5. Proskurovskaya Yu.I. Buxgalterskoye delo. M.: Omega-L, 2006. 219 s.

6. Bogachenko V.M., Rusaleva L.A. Teoriya buxgalterskogo ucheta. Rostov-na-Donu: Feniks, 2010. 346 s.

HISOB SIYOSATINING NAZARIY ASOSLARINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich

fabduvaxidov206@gmail.com

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Buxgalteriya hisobining eng muhim va asosiy vazifasi — ishonchli, to‘liq ma’lumotni shakllantirish bo‘lib, uning asosida tashkilotning iqtisodiy faoliyati, uning daromadlari va xarajatlari, aktivlari, majburiyatlari va boshqalar to‘g‘risida asosiy funksiyalarni bajarish lozim bo‘ladi. Shubhasiz, buxgalteriya hisobi maksimal samaradorlikni ta’minlaydigan yagona belgilangan qoidalarga muvofiq, tashkilot to‘g‘risida ishonchli va foydali ma’lumotlarni o‘z vaqtida hisobga olishi va uni amalga oshirishi lozim. Aynan ushbu qoidalarni tanlash va belgilash tashkilotning hisob siyosati belgilab beradi, bu esa, keyinchalik tashkilotning moliyaviy natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Tashkilotlarda hisob siyosatini shakllantirish va uning tarkibiy jihatlari bilan bog‘liq masalalari bilan ko‘pchillik iqtisodchi olimlar hamda amaliyotchi xodimlarining diqqat markazida bo‘lishgan.

Ularning ilmiy tadqiqot ishlarida, monografiyalarida, maqolalarida va tezislarida, shuningdek, amaliyotchilar tomonidan uslubiy-me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishlarida turlicha yondoshuvlar, taklif hamda tavsiyalar berilgan. Shu boisdan, ushbu manbalarga e’tiborimizni qaratamiz.

J.E.Kurbanbayev tomonidan olib borilgan tadqiqot ishida “.... hisob siyosati deganda tashkilotning bosh buxgalteri yoki uning o‘rinbosari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun qo‘llaydigan

usullari, tamoyil va asoslari bilan birgalikdagi jamlamasi tushuniladi” degan ta’rif berilgan [1].

О.С.Горбунова va boshqalar yondoshuvlari “Tashkilotning hisob siyosati — bu muayyan tashkilotda buxgalteriya va soliq hisobi qanday yuritilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan hujjat” [2].

В.П.Астахов fikricha “Hisob siyosati xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining hisob jarayonini tashkil etish va amalga oshirishning asosiy jihatlarini tartibga soluvchi asosiy hujjat hisoblanadi” [3].

В.В.Башкатов, А.И.Логвина maqolasida “Tashkilotning hisob siyosati — tashkilot tomonidan qabul qilingan buxgalteriya hisobini yuritish usullari majmui — dastlabki kuzatuv, qiymat o‘lchovi, joriy guruhlash va xo‘jalik faoliyati faktlarini yakuniy umumlashtirish” [4].

Biroq yuqorida keltirib o‘tilgan tadqiqotlarda hisob siyosatining mazmuni yoritilgan bo‘lsada, uning tarkibiy jihatlari bilan bog‘liq masalalarga keng e’tibor qaratilmagan.

Tashkilotning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish uchun uning hisob siyosatini shakllantirishlari lozim. Hisob siyosatini shakllantirish O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti 1-sonli “Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati” bilan tartibga solinadi. Ushbu standartga muvofiq, “hisob siyosati deganda tashkilotning rahbari buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish uchun qo‘llaydigan usullari, ularning prinsip va asoslari bilan birgalikdagi jamlamasi tushuniladi” [5] deb ta’rifi berilgan.

8-son “Hisob siyosati, hisob baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar” BHXSda esa, hisob siyosati – bu tashkilot tomonidan moliyaviy hisobotni tayyorlashda va taqdim etishda qo‘llanadigan muayyan tamoyillar, asoslar, umumqabul qilingan shartlar, qoidalar va amaliy yondashuvlardir” [6] deb e’tirof etiladi.

1/2008-son BHNda hisob siyosatiga ta’rif berilgan, ya’ni " tashkilotning hisob siyosati deganda buxgalteriya hisobini yuritish u tomonidan qabul qilingan — xo‘jalik faoliyati faktlarini dastlabki kuzatish, qiymat jihatidan o‘lchash, joriy

guruhlash va yakuniy umumlashtirish usullari majmui tushuniladi" [7] deb ta’rif berilgan.

Hisob siyosatining ta’riflarini tahlil qiladigan bo‘lsa, har uchala ta’rif ham hisob siyosati haqida to‘liq tushuncha bermaydi. Chunki bu ta’riflarda asosiy urg‘u tashkilot va tashkilot rahbariga qaratilgan. Tashkilotda hisob siyosati bosh buxgalter va uning xodimlari tomonidan ishlab chiqiladi. Tashkilot rahbari uni tasdiqlaydi va ijrosini nazorat qiladi.

Shu boisdan, hisob siyosatiga berilgan ta’rif quyidagicha tahrirlanishi maqsadga muvofiq deb hisoblayman. "***Hisob siyosati*** — buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi huquqiy — me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadigan va ro‘yxatga olingan hujjatlar asosida tashkilotni buxgalteriya xodimlari tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqilgan hamda tanlab olingan tamoyillar, asoslar, shartlar, qoidalar va usullar to‘plami” deb ta’rif berish o‘rinli bo‘ladi. Ushbu ta’rif har qanday tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy shakllar uchun hisob siyosatining vositalari, maqsadlari va vazifalarini yanada kengroq tavsiflaydi.

Hisob siyosati shakllantirilganda qo‘yilgan talablarga va asosiy tamoyillar [8] ga mos kelishi lozim. Asosiy tamoyillar mulkiy alohidalik, faoliyatining uzluksizligini, hisob siyosatini qo‘llashda izchillikni va iqtisodiy faoliyat faktlarining vaqtinchalik aniqligini nazarda tutadi. Ushbu asosiy tamoyillarga barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘liq rioya qilishlari talab etiladi.

Shunday qilib, ishlab chiqilayotgan hisob siyosatining asosiy maqsadi buxgalteriya hisobi va hisobotida hisob obyektlari va aniq bir tashkilotning faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni imkon qadar to‘liq va ishonchli tarzda ochib berishdir.

Tashkilotni hisob siyosati iqtisodiy subyektni moliya-xo‘jalik faoliyati strategiyasi va taktikasining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. U tashkilotni hisob va soliq majburiyatlarining eng dolzarb jihatlari bilan bir qatorda, boshqaruv faoliyatiga, ma’muriyatning optimal qarorlariga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy me’yoriy hujjat bo‘lib qoladi. Biroq, hisob siyosatini shakllantirish murakkab jarayon bo‘lib,

malakali mutaxassislar, zamonaviy texniklar, shuningdek, moliyaviy imkoniyatlarning mavjudligini talab qiladi.

Iqtisodiyotda innovatsion rivojlanish va raqamlashtirishni jadallashtirish buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish shakllari, usullari, texnikasida jiddiy o‘zgarishlarni tezlashtirishga olib keladi. Bu o‘zgarishlar hisob siyosatini yanada takomillashtirish talab etib, moliya-xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshiradi va milliy hisobchilik tizimini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirishni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kurbanbayev J.E. “Hisob siyosatini shakllantirish metodologiyasini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish” mavzusidagi i.f.d. (Doctor of Sciyence) darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. -Toshkent. – 2026. 17-bet

2. Горбунова О.С. Учетная политика организации как инструмент бухгалтерского учета. / О.С.Горбунова, Е.М.Кот, Ю.В.Малькова, И.Ф.Пильникова, С. В. Петрякова [и др.] // Образование и право. – 2023. – № 11. – С. 249-255. – ДОИ 10.24412/2076-1503-2023-11-243-249-255.

3. Астахов В. П. Бухгалтерский (финансовый) учет: в 2 ч. Ч.1: Учебник для академического бакалавриата. Люберцы: Юрайт, 2021. 536 с.

4. Башкатов В.В., Логвина А.И. Организационные аспекты учетной политики как инструмент управления хозяйствующим субъектом. Деловой вестник предпринимателя. -2021. № 3(1), с. 12-14.

5. 1-sonli “Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati” BHMS. (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 6-avgustda 3544-son bilan ro‘yxatga olingan) https://lex.uz/uz/docs/7050497?ONDATE=01.01.2025%2000

6. 8-son “Hisob siyosati, hisob baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar” BHXS. https://lex.uz/mact/6312360

7. Polojenii po buxgalterskomu uchetu “Uchetnaya politika organizatsii” PBU 1/2008 (prikaz Minfina RF ot 06.10.2008 goda № 106n). https://minfin.gov.ru/ru/document?id_4=2260

8. Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun Konseptual asos. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 12.07.2024-yilda 3530-son bilan ro‘yxatga olingan. https://lex.uz/ru/docs/7015916?ONDATE=13.07.2024

BANKLARDA BUXGALTERIYA HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISH JARAYONLARI

Aminov Shovkat O’ktam o’g’li
“InFinBank”AJ Boshqaruv Raisi yordamchisi
+998 91 955 19 00
shovkataminov2@gmail.com
ORCID: 0009-0003-3608-2343

Annotatsiya

Mazkur maqolada bank buxgalteriya hisobi tizimini International Financial Reporting Standards (IFRS) talablariga muvofiq transformatsiya qilishning nazariy va metodologik asoslari hamda amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Milliy buxgalteriya tizimi bilan IFRS talablari o‘rtasidagi asosiy farqlar, shuningdek transformatsiya jarayonida yuzaga keladigan bosqichlar va muammolar ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar taqdim etiladi [1].

Kalit so‘zlar: bank hisobi, moliyaviy hisobot, IFRS, transformatsiya, kredit riski, adolatli qiymat, moliyaviy barqarorlik.

Abstract

This article analyzes the theoretical and methodological foundations as well as practical mechanisms for transforming banking accounting systems in accordance with International Financial Reporting Standards (IFRS). The conceptual differences between national accounting systems and IFRS requirements are identified, and the key stages and challenges of the transformation process are examined. Moreover, scientific and practical recommendations for addressing these challenges are

presented. [1]

Keywords: bank accounting, financial reporting, IFRS, transformation, credit risk, fair value, financial stability.

Аннотация

В статье анализируются теоретические и методологические основы, а также практические механизмы трансформации системы бухгалтерского учета в банках в соответствии с International Financial Reporting Standards (МСФО). Выявлены концептуальные различия между национальными системами учета и требованиями МСФО, а также рассмотрены основные этапы и проблемы процесса трансформации. Кроме того, представлены научные и практические рекомендации по их решению. [1]

Ключевые слова: банковский учет, финансовая отчетность, МСФО, трансформация, кредитный риск, справедливая стоимость, финансовая стабильност.

Kirish

Bank tizimining barqarorligi, ayniqsa globallashuv va moliyaviy bozorlar integratsiyasining kuchayishi sharoitida, moliyaviy axborotning shaffofligi va ishonchliligiga bevosita bog‘liqdir. Kapital oqimlarining liberallashuvi milliy bank tizimlaridan xalqaro moliyaviy qoidalarga rioya etishni talab etadi. Shu sababli moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq shakllantirish ustuvor vazifaga aylangan.

Moliyaviy hisobotlarni tuzishning xalqaro qoidalari International Financial Reporting Standards (IFRS) tomonidan belgilanadi. Ushbu standartlar moliyaviy ko‘rsatkichlarning aniqligi, taqqoslanishi va to‘g‘ri aks ettirilishini ta’minlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda iqtisodiy-statistik usullardan foydalanildi. Milliy buxgalteriya qoidalari bilan xalqaro standartlar o‘rtasidagi konseptual farqlar o‘rganildi hamda amaliy ehtiyojlardan kelib chiqib transformatsiya mexanizmlari tahlil qilindi.

Transformatsiya jarayonining iqtisodiy mohiyati

Banklarda buxgalteriya hisobini transformatsiya qilish — milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar talablariga moslashtirish jarayonidir. Ushbu jarayon quyidagi muhim yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- aktiv va majburiyatlarni adolatli qiymat asosida qayta baholash;
- kutilayotgan kredit yo‘qotishlarini tan olish;
- moliyaviy instrumentlarni tasniflash va diskontlash;
- kapital elementlarini qayta guruhlash.

Transformatsiya jarayoni hisob siyosatini qayta ko‘rib chiqish va hisobot tuzish tamoyillarini xalqaro standartlarga moslashtirishni talab etadi. Ayniqsa, kutilayotgan kredit yo‘qotishlari modelini qo‘llash bank aktivlarining haqiqiy iqtisodiy holatini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy muammolar va ularning yechimlari

Transformatsiya jarayoni tashkiliy va metodologik jihatdan murakkab o‘zgarishlarni talab qiladi [2]. Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy muammolar aniqlandi:

1. Hisob siyosatini moslashtirishdagi metodologik qiyinchiliklar;
2. Moliyaviy instrumentlarni baholashda professional mulohazaga yuqori darajada tayanish;
3. Axborot tizimlarining yetarlicha moslashmaganligi;
4. Malakali mutaxassislar yetishmasligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

- aniq reja asosida bosqichma-bosqich transformatsiya strategiyasini amalga oshirish;
- baholash modellarini standartlashtirish va ichki audit nazoratini kuchaytirish;

- avtomatlashtirilgan buxgalteriya va risk-menejment tizimlarini integratsiyalash;
- xodimlar uchun doimiy kasbiy rivojlanish dasturlarini joriy etish.

Kompleks yondashuv transformatsiya samaradorligini oshiradi va subyektiv omillar ta’sirini kamaytiradi.

Natijalar va ilmiy xulosalar

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro standartlarga o‘tish tizimli va izchil yondashuvni talab etadi [3]. To‘g‘ri amalga oshirilgan transformatsiya moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshiradi, kapital yetarliligini baholashni takomillashtiradi hamda investorlar ishonchini mustahkamlaydi. Shuningdek, kredit risklarini baholashning ilg‘or modellarini qo‘llash bank balansining iqtisodiy mazmunini yanada aniqroq aks ettiradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari ma’lumotlarni qayta ishlash tezligini oshirib, operatsion xatolarni kamaytiradi. Shu bois, buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish jarayoni oddiy texnik o‘zgarish emas, balki bank boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan strategik islohot sifatida baholanishi lozim.

Xulosa

Banklarda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish moliyaviy boshqaruv sifatini oshirish va banklarning global moliyaviy tizimga integratsiyasini ta’minlashda muhim omildir. Jarayonni samarali amalga oshirish uchun normativ-huquqiy bazani mustahkamlash, institutsional infratuzilmani rivojlantirish hamda inson kapitalini takomillashtirish zarur. Natijada banklarning investitsion jozibadorligi ortadi va ularning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi.

Adabiyotlar:

1. El Idrissi Rioui, S., Nimi, I., & Benddih, M. (2024). MHXS qabul qilinishining ta’siri: mavjud adabiyotlar tahlili va keyingi tadqiqotlar uchun takliflar. *Revue Internationale des Sciences de Gestion*. https://revue-isg.com/index.php/home/article/view/1514

2. Imran, H. M., Humayun, K. M., Shah, A. M., Haque, M. Z., Jannatul, F. M., & Uddin, M. R. (2021). Keng ko‘lamli MHXSni joriy etish va bank faoliyati samaradorligi: rivojlanayotgan iqtisodiyot istiqbollari. *Covenant Journal of Business and Social Sciences*. https://journals.covenantuniversity.edu.ng/index.php/cjbss/article/view/2792

3. Siregar, Y. D., Aprilia, R., Kartika, D. A., & Darma, J. (2025). MHXSning buxgalteriya hisobining mahalliy standartlari bilan yaqinlashuvi: *Jurnal Ilmu Ekonomi Manajemen dan Akuntansi*. https://journal.thamrin.ac.id/index.php/ileka/article/view/3042

BANKLAR BUXGALTERIYASIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAQDIM ETISH XUSUSIYATLARI

Aminov Shovkat O’ktam o’g’li
“InFinBank”AJ Boshqaruv Raisi yordamchisi
+998 91 955 19 00
shovkataminov2@gmail.com
ORCID: 0009-0003-3608-2343

Annotatsiya

Ushbu maqolada banklarda moliyaviy hisobotlarni International Financial Reporting Standards (IFRS) talablariga muvofiq tayyorlash va taqdim etishning xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda hisobotlarni shakllantirishda elektron platformalardan foydalanish, moliyaviy ma’lumotlarni audit va investitsion qarorlar uchun optimallashtirish, shuningdek hisobotlarning shaffofligi va taqqoslanishini ta’minlash mexanizmlari o‘rganiladi. Shuningdek, mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so‘zlar: bank hisobi, moliyaviy hisobot, IFRS, taqdimot uslubi, elektron hisobot, shaffoflik, investitsion qarorlar

Abstract

This article analyzes the **features of preparing and presenting financial**

statements in banks in accordance with the International Financial Reporting

Standards (International Financial Reporting Standards, IFRS). The study examines the use of electronic platforms for reporting, optimization of financial data for audit and investment decisions, and mechanisms to ensure transparency and comparability. Practical and scientific recommendations for addressing existing challenges are also provided.
Keywords: bank accounting, financial reporting, IFRS, presentation methods, electronic reporting, transparency, investment decisions

Аннотация

В статье анализируются **особенности подготовки и представления финансовой отчетности в банках** в соответствии с Международными стандартами финансовой отчетности (International Financial Reporting Standards, IFRS). Исследование рассматривает использование электронных платформ для составления отчетности, оптимизацию финансовых данных для аудита и инвестиционных решений, а также механизмы обеспечения прозрачности и сопоставимости отчетов. Даны научные и практические рекомендации по решению существующих проблем.
Ключевые слова: банковский учет, финансовая отчетность, IFRS, методы представления, электронная отчетность, прозрачность, инвестиционные решения

Kirish

Zamonaviy bank tizimlarining ishonchliligi moliyaviy hisobotlarning aniq va shaffof taqdim etilishiga bevosita bog‘liqdir. Moliyaviy bozorlarning globallashuvi va bank tizimlarining bir-biriga integratsiyalashuvi natijasida milliy banklar xalqaro standartlarga rioya qilishi zarur.

Zamonaviy banklar uchun moliyaviy hisobotlarni tayyorlash faqat ma’lumotlarni yig‘ishdan iborat emas; bu shuningdek raqamlarni taqdim etish va tahlil qilish usullarini ham o‘zgartirishni talab qiladi. Elektron platformalar va IT yechimlari yordamida IFRS talablariga muvofiq hisobotlarni tez va ishonchli tarzda tayyorlash mumkin [1].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, strukturaviy yondashuv, elektron hisobot platformalarini baholash va empirik kuzatuv metodlaridan foydalanilgan. Milliy hisobot shakllari va IFRS talablaridagi farqlar aniqlanib, turli taqdimot usullarining samaradorligi o‘rganildi.

Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish xususiyatlari

Xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy hisobotlarni taqdim etishda quyidagi xususiyatlar ajralib turadi [2]:

- Elektron taqdimot: IFRS talablariga muvofiq hisobotlar interaktiv raqamli formatlarda taqdim etiladi.
- Tahliliy aniqlik: Har bir moliyaviy ko‘rsatkich audit va risklarni baholash jarayonlari uchun optimal tarzda tayyorlanadi.
- Shaffoflik va solishtiriluvchanlik: Ma’lumotlar ishonchli, solishtiriladigan va investorlar hamda regulyatorlar uchun foydali bo‘ladi.
- Integratsiya va moslashuvchanlik: Elektron tizimlar moliyaviy instrumentlar, kredit portfeli va kapital ko‘rsatkichlarini real vaqt rejimida aks ettiradi.

Amaliy muammolar va tavsiyalar

Tadqiqotda quyidagi asosiy muammolar aniqlangan:

1. Elektron platformalarni IFRS talablariga moslashtirishdagi texnik qiyinchiliklar;
2. Moliyaviy ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlashda professional mulohazaga yuqori bog‘liqlik;
3. Hisobot shakllarining standartizatsiyalashmaganligi.

Ushbu muammolarni hal etish bo‘yicha tavsiyalar:

- Elektron hisobot tizimlarini birlashtirish va ma’lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash;
- Tahliliy hisobot modellarini standartlashtirish va ichki audit nazoratini kuchaytirish;
- Xodimlar uchun IFRS bo‘yicha doimiy trening va sertifikatlash dasturlarini tashkil etish.

Natijalar va xulosa

IFRS talablariga muvofiq moliyaviy hisobotlarni taqdim etish banklarda shaffoflikni oshiradi, investorlar ishonchini kuchaytiradi va moliyaviy boshqaruvning samaradorligini oshiradi.

Shuning uchun banklarda buxgalteriya hisobotlarini xalqaro standartlarga moslashtirish jarayoni faqat texnik o‘zgarish sifatida emas, balki boshqaruv amaliyotlarini takomillashtirish va investitsion qarorlarni samarali qabul qilish imkonini beruvchi strategik chora sifatida qaralishi lozim [3].

Adabiyotlar:

1. 1. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. London, 2023.
2. 2. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo‘yicha kengash: Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari, 2022.
3. 3. Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi: Kredit riski va kutilayotgan kredit yo‘qotishlari bo‘yicha yo‘riqnoma, 2019.

Financial Stability Enhancement in Enterprises Strategic Measures, Risk Management, and Future Forecasts

Adashaliyev Bakhtiyorjon Valisher o’gli ,
Tashkent State University of Economics
Department of "Accounting"
Senior lecturer, PhD.

Abstract: This article explores the theoretical and practical aspects of

enhancing the financial stability of enterprises, focusing on strategic measures, risk management practices, and future development forecasts. The study examines the key factors influencing financial stability, including internal financial policies, external economic conditions, and management efficiency. Special attention is given to identifying potential risks that may threaten enterprise sustainability and to developing effective mechanisms for their mitigation. Furthermore, the article analyzes the interrelation between financial stability, profitability, and long-term competitiveness. Based on the conducted research, conclusions and recommendations are presented to strengthen enterprise resilience and ensure sustainable financial performance in a rapidly changing economic environment.

Keywords: financial stability, solvency, liquidity ratio, creditworthiness, risk management, capital structure, profitability, sustainable growth, economic forecasting.

Annotation: This article examines the theoretical and methodological foundations for assessing the financial stability and solvency of business entities. It explores the economic essence of solvency and creditworthiness, as well as their interrelation with other key financial and economic indicators such as liquidity, profitability, and capital adequacy. The study also emphasizes the importance of effective financial management, risk assessment, and strategic decision-making in strengthening enterprise stability. Based on analytical research and theoretical evaluation, relevant conclusions and recommendations are presented to enhance the financial sustainability and long-term competitiveness of enterprises.

INTRODUCTION

In a market-oriented economy, enhancing the financial stability and solvency of business entities remains one of the key priorities for sustainable economic growth. The high solvency of enterprises not only ensures their ability to continuously fulfill financial obligations to commercial banks and partners, but also contributes to the overall stability of the national economy, supporting employment,

production, and the well-being of the population.

Financial stability serves as an indicator of a company's financial health, reflecting its capacity to withstand internal and external shocks, manage risks effectively, and maintain profitability over time. In this context, strengthening solvency and liquidity becomes an essential aspect of enterprise management, directly influencing competitiveness and long-term sustainability.

Therefore, this study focuses on analyzing the main factors that affect the solvency and financial stability of business entities, identifying potential risks, and developing forecasting indicators for future trends. To achieve these objectives, various economic analyses and comparative evaluations were conducted to determine the most effective strategic measures for improving enterprise financial performance and resilience in a dynamic market environment.

LITERATURE REVIEW

A number of scholars have examined the interrelationship between solvency, profitability, and the overall financial stability of enterprises. Many researchers argue that solvency is not only a short-term financial indicator but also a key determinant of an enterprise's long-term sustainability.

According to A.Kanaan and A.Saud, "Profitability is the main goal that companies strive to achieve in order to ensure their viability and continuity. Therefore, increasing the profitability of companies depends on their ability to optimally manage their financial resources." Their research highlights that efficient financial resource management enhances both profitability and solvency, contributing to stronger financial performance and enterprise stability.

Similarly, A.Dahiyat emphasizes that maintaining an acceptable level of liquidity and achieving a balance between internal and external sources of financing are essential for stable performance. He notes that "companies must ensure the smooth operation of their business, reinvest funds in profitable projects for continuity, and maintain a competitive position." According to his view, ensuring

consistent solvency requires enterprises not only to avoid financial losses but also to strategically invest in profitable sectors to secure long-term growth.

In addition, H.Yusoff asserts that “liquidity is one of the key elements that ensure the continuity of company operations.” He argues that companies lacking sufficient liquidity may face difficulties in meeting short-term obligations to suppliers and partners, which can negatively impact their reputation and market trust. Inefficient asset management, therefore, can lead to financial distress or even bankruptcy.

Recent studies also suggest that solvency and liquidity are closely linked with risk management practices. Enterprises that effectively manage credit, market, and operational risks are more likely to maintain stable solvency levels and sustain long-term profitability. Consequently, the literature emphasizes that enhancing solvency is not limited to improving liquidity ratios but also involves developing strategic measures that strengthen financial stability, resilience, and competitiveness in a changing economic environment.

RESEARCH METHODOLOGY

In the process of organizing and conducting this research, a combination of qualitative and quantitative methods was applied to ensure a comprehensive assessment of enterprise financial stability and solvency. The study employed expert assessment, comparative analysis, content analysis, inventory analysis, as well as systematic and factor analysis based on accounting and financial reporting data.

The expert assessment method was used to identify the most influential factors affecting the solvency and financial stability of business entities. Comparative and content analyses allowed for the evaluation of different enterprises and industries, revealing trends and patterns in financial performance over time. Inventory and factor analyses were conducted to determine the impact of liquidity, profitability, and capital structure on overall financial sustainability.

In addition, forecasting techniques were used to predict future changes in solvency indicators and to evaluate the potential risks associated with external economic fluctuations. Statistical tools and analytical models were also applied to validate the reliability of the findings and support the development of strategic recommendations aimed at improving enterprise financial stability.

ANALYSIS AND DISCUSSION OF RESULTS

As endogenous factors influencing the solvency of economic entities ($SofE_t$), indicators such as the inflation rate in the economy (CPI_t), changes in the real value of the money supply in circulation ($RM2_t$), changes in the Central Bank's key interest rate ($RINR_t$), changes in the interest rate in the money market (MMR_t), and changes in the interest rate on commercial bank loans (RLR_t) were selected.

The above indicators directly affect the solvency of economic entities. In particular, an increase in the inflation rate in the economy has a negative impact on the solvency of economic entities, while an increase in the money supply in circulation has a positive impact on the solvency of economic entities by increasing aggregate demand. Interest rates in the economy also affect the solvency of economic entities. In particular, an increase in interest rates in the economy leads to an increase in the debt burden of economic entities and a decrease in their solvency.

Statistical data for the selected indicators for the period 2020M3-2024M01 were obtained in monthly terms, in real terms, and in growth .



Figure 1. Normal distribution of selected indicators

At the initial stage of the econometric analysis, we performed a number of statistical calculations. These were descriptive statistics of the selected data, that is, indicators such as the average, maximum and minimum indicators, and standard deviation (standard deviation) of the data were analyzed. We also analyzed the normal distribution of the indicators selected in our scientific work.

The Jacques Bera coefficient was used to check the normal distribution of the data. The analysis shows that all indicators, except for the Central Bank's key interest rate, the interest rate in the money market, and the interest rate on commercial bank

loans, have a normal distribution. Because it was found that the Jacques-Bera coefficient calculated for all selected indicators is reliable and their probability is less than 0.05.

45 observations were made using the selected indicators. Below, we analyze the descriptive statistics of the nine selected indicators.

Table 1

Descriptive statistics of indicators

	CRI	LnM2	RINR	RMMR	RLR	SofE
Mean	0.795556	0.017873	0.454163	0.452226	0.497989	4.528353
Median	0.900000	0.017399	0.345979	0.339605	0.389090	5.271297
Maximum	1.700000	0.086556	1.553163	1.554608	1.597098	7.788405
Minimum	-0.300000	-0.064792	-0.446837	-0.433115	-0.398194	0.950474
Std. Dev.	0.574439	0.032978	0.573665	0.571178	0.575823	2.059102
Skewness	-0.483853	0.080747	0.486525	0.486160	0.476652	-0.740004
Kurtosis	2.213606	3.056844	2.214626	2.206908	2.207804	2.024735
Jarque-Bera	2.915383	0.054960	2.931826	2.952002	2.880681	5.890431
Robbability	0.232773	0.972894	0.230867	0.228550	0.236847	0.052591
Sum	35.80000	0.804305	20.43736	20.35017	22.40950	203.7759
Sum Sq. Dev.	14.51911	0.047854	14.48000	14.35473	14.58917	186.5556
Observations	45	45	45	45	45	45

According to the results of the observation, the average indicator of the solvency of business entities, which is considered an exogenous variable , was 4.53, and the monthly change of this indicator during the observed period was a maximum of 7.76 and a minimum of 0.95. The standard deviation of this indicator was 2.06.

If we consider the state of endogenous indicators, then the inflation rate in the economy was 0.79 percent on a monthly basis, with a maximum of 1.70 percent and a minimum of -0.30 percent during the period under review. The standard deviation of this indicator was 0.57 percent. The average monthly change in the money supply in the economy was 0.02 percent, with a maximum of 0.07 percent and a minimum of -0.06 percent during the period under review. The standard deviation of this indicator was 0.03. At the same time, the state of key interest rates in the economy was also analyzed, and it was found that the change in the selected interest rates and the standard deviation are very close to each other.

Also, the relationship between the solvency of economic entities and the money supply in circulation is positive, with a correlation of 0.13. The relationship between the solvency of economic entities and interest rates in the economy is also positive.

CONCLUSION

From the model results, we can see that the solvency of business entities is significantly affected by changes in the inflation rate and money supply in the economy. However, changes in interest rates in the economy do not affect this indicator.

Further clarifying the econometric analysis, the impact of the selected indicators on the solvency of business entities is as follows:

A one percent increase in the inflation rate in the economy reduces the solvency of business entities by -0.42 percent after two months;

A one percent increase in the money supply in circulation increases the solvency of economic entities by 1.04 percent after just two months.

There is also autocorrelation in the changes in the solvency of business entities, in which a one percent increase in the solvency of business entities a month ago increases this indicator by 1.08 percent in the following month.

References

1. **Republic of Uzbekistan.** (2019, November 5). *On Amendments and Additions to the Law of the Republic of Uzbekistan "On Banks and Banking Activities"* (Law No. O'RQ-580). Tashkent: "O'zbekiston". Retrieved from https://lex.uz/docs/4581969

2. **President of the Republic of Uzbekistan.** (2022, January 28). *Decree No. PF-60 on the Development Strategy of the New Uzbekistan for 2022–2026.*

3. **Abryutina, N. S.** (2000). *Analiz finansovo-ekonomicheskoy deyatelnosti predpriyatiya.* Moscow: Delo i Servis.

4. **Moulton, H. G.** (1918). Commercial banking and capital formation. *The Journal of Political Economy, 26*(7), 32–38. https://doi.org/10.1086/253118

5. **Udoka, C. O., & Anyingang, R.** (2012). An analytical and theoretical investigation of the determinants of deposit money banks' investment in treasury bills in Nigeria. *European Journal of Business and Management, 4*(21), 42–48. Retrieved from https://www.iiste.org/Journals/index.php/EJBM/article/view/3615

6. **Emmanuel, N. R.** (1997). *Commercial banking in an era of deregulation* (3rd ed.). Westport, CT: Greenwood Publishing Group.

7. **Azizov, U. O.** (2004). *Issues of improving the financing of small and medium-sized businesses by commercial banks* (PhD dissertation). Tashkent: Uzbek Academy of Sciences.

8. **Abrorbek, K.** (2024). Organization of tax accounting in accordance with international financial reporting standards. *International Journal of Education, Social Science & Humanities, 12*(7), 58–67.

9. **Kazak, N. A., & Lukyan, A. V.** (2015). Vyyavlenie i analiz kolichestvennykh i kachestvennykh faktorov kreditospobnosti zaemshchikov v usloviyakh vysokikh bankovskikh riskov: Metodika i tekhnologiya. *Ekonomika i Upravlenie, (1)*, 92.

10. **Klimo, N. V.** (2012). Analiz kreditospobnosti organizatsii stroitel'noy otrasli. *Uchet i Statistika, (8)*, 24–27.

11. **Makhmudov, C. K.** (Year unknown). *Aksiyadorlik jamiyatlarida mablag'lar aylanishi va tahlilini takomillashtirish.* Tashkent.

12. **Pardaev, M. Q.** (2001). *Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlilning nazariy va metodologik muammolari* (PhD dissertation). Samarkand: Samarkand State *University, p. 228.*

13. ***Altman, E. I., Iwanicz-Drozdowska, M., Laitinen, E. K., & Suvas, A.*** *(2020).* Financial distress prediction in an international context: A review and empirical analysis of Altman's Z-score models. *Journal of International Financial Management & Accounting, 31(1), 1–25. https://doi.org/10.1111/jifm.12091*

14. ***OECD****. (2023). Strengthening the financial resilience of enterprises in emerging economies. Paris: OECD Publishing. https://www.oecd.org/*

15. ***World Bank.*** *(2022). Uzbekistan Economic Update: Navigating Financial Stability Amid Global Challenges. Washington, DC: World Bank Publications.*

16. ***Kuznetsov, V., & Petrov, A****. (2021). Financial stability of enterprises under conditions* of economic uncertainty. *Finance and Credit, 27*(10), 235–246

“Yashil” buxgalteriya hisobi: iqtisodiy rivojlanishidagi masalalar

TDIU buxgalteriya hisobi kafedrasi

assistenti, PhD

Abstrakt.

Ushbu maqola yashil buxgalteriya hisobi barqaror rivojlanishga erishishning muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqiladi. Ekologik xarajatlarni miqdoriy baholash orqali tashkilotlar nafaqat o‘z moliyaviy ko‘rsatkichlarini yaxshilaydigan, balki ularning ekologik ta’sirini kamaytiradigan qarorlar qabul qilishlari mumkin. Statistik ko‘rsatkichlar va prognozlardan foydalangan holda, ushbu tadqiqot yashil buxgalteriya amaliyotining biznes faoliyati va atrof-muhit barqarorligiga ta’sirini baholaydi.

Kirish.

Dunyo jadal sanoatlashtirish, iqlimning keskin tarzda o‘zgarishi va resurslar kamayishining ekologik oqibatlari bilan kurashayotgan bir paytda, iqtisodiy taraqqiyot qanday o‘lchanishini qayta ko‘rib chiqish zarurati tobora ortib bormoqda. An’anaviy iqtisodiy hisob asosan YaIM kabi pul ko‘rsatkichlariga qaratilgan bo‘lib, ko‘pincha atrof-muhitning yomonlashuvi uchun uzoq muddatli xarajatlar e’tibordan chetda qoladi. Yashil hisob esa atrof-muhit omillarini milliy va korporativ hisob tizimlariga kiritishni maqsad qilgan. Bu orqali u ko‘proq resurslarning barqarorligi, ekotizimlarning qiymati va rivojlanishning uzoq muddatli ta’sirini hisobga olgan holda iqtisodiy ko‘rsatkichlarning har tomonlama ko‘rinishi. Ushbu maqolada “yashil” buxgalteriya hisobi tushunchasi, afzalliklari va muammolari hamda barqaror rivojlanishga erishish uchun nima uchun muhimligi o‘rganiladi.

Yashil hisob, shuningdek, ekologik hisob deb ham ataladi, bu an’anaviy iqtisodiy hisobga ekologik omillarni birlashtiradigan asosdir. Agar an’anaviy buxgalteriya hisobi moliyaviy operatsiyalar va ishlab chiqarish natijalarini kuzatib borsa, yashil buxgalteriya hisobi xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq ekologik xarajatlar va foydalarni hisobga olgan holda buni kengaytiradi.

Maqsad tabiiy resurslar, ekotizimlar va ekologik xizmatlarning haqiqiy iqtisodiy qiymatini, shu jumladan ularning vaqt o‘tishi bilan kamayishi yoki butkul yo‘q bo‘lishini aks ettirishdir.

Ushbu yondashuv tabiiy resurslarni iqtisodiy o‘sish uchun erkin va cheksiz manbalar sifatida ko‘rib chiqadigan an’anaviy buxgalteriya hisobidan farq qiladi. Yashil hisob resurslardan foydalanish, chiqindilar hosil bo‘lishi, ifloslanish va atrof-muhitga zarar yetkazish xarajatlarini milliy hisobvaraqlarga yoki xo‘jalik daftarlariga kiritish orqali ushbu nazoratni tuzatishga qaratilgan. Aslida, yashil hisob "tabiiy kapital" - Yerning tabiiy resurslar zaxiralari va ekotizim xizmatlarini hisobga olishga intiladi va iqtisodiy qarorlar ularning haqiqiy qiymatini aks ettirishini ta’minlaydi.

Yashil hisob atrof-muhit omillarining iqtisodiy ta’sirini o‘lchash uchun turli xil usullar va vositalarni o‘z ichiga oladi.

Tabiiy kapital deganda, toza suv, havo va changlanish kabi muhim ekotizim xizmatlarini ta’minlaydigan Yerning tabiiy resurslari - o‘rmonlar, suv havzalari, foydali qazilmalar va atmosfera tushuniladi. Tabiiy kapital hisobi ushbu resurslarning vaqt o‘tishi bilan kamayishi yoki degradatsiyasini kuzatib boradi, ularga pul qiymatlarini belgilaydi va ulardan foydalanish uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka qanday ta’sir qilishini hisobga oladi.

Yashil hisobning asosiy vazifalaridan biri xo‘jalik faoliyatining ekologik xarajatlarini hisoblashdir. Bunga ifloslanish, resurslarning kamayishi, yashash joylarining yo‘q qilinishi va iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xarajatlar kiradi. Boshqa tomondan, u uzoq muddatli iqtisodiy qiymatni ta’minlaydigan ekotizim xizmatlari yoki qayta tiklanadigan resurslar kabi ekologik foydalarni ham ta’kidlaydi.

Yashil hisob ko‘pincha ekotizim xizmatlarini baholashni o‘z ichiga oladi - ekotizimlar tomonidan taqdim etiladigan, inson farovonligiga hissa qo‘shadigan, ammo odatda bozorda baholanmaydigan imtiyozlar. Bularga havoni tozalash, iqlimni tartibga solish, suvni filtrlash kabi xizmatlar kiradi. Ushbu xizmatlarni qadrlash tabiiy tizimlarning iqtisodiy ahamiyatini tushunish va ularni qaror qabul qilish jarayonlariga kiritish uchun muhimdir.

Yashil buxgalteriya hisobi iqtisodiy o‘sish va atrof-muhitga ta’sir o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuzatish orqali mamlakat yoki kompaniyaning barqarorligi haqida aniqroq tasavvur beradi. Bu uzoq muddatli ekologik barqarorlikni qisqa muddatli foydadan ustun qo‘yadigan yaxshiroq qaror qabul qilish imkonini beradi.

Tabiiy resurslar va ekotizim xizmatlariga pul qiymatlarini belgilash orqali yashil buxgalteriya hisobi korxonalar va hukumatlarni rejalashtirishda atrof-muhit omillarini hisobga olishga undaydi. Bu chiqindilarni kamaytirish, suvni tejash va ifloslanishni kamaytirish kabi resurslarni yanada samarali va barqaror boshqarishga olib kelishi mumkin.

Yashil hisob-kitoblar hukumatlarga iqtisodiy rivojlanishni atrof-muhitni muhofaza qilish bilan muvozanatlashtiradigan yanada samarali siyosatni ishlab chiqishga yordam beradi. U tog‘-kon sanoati, qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarish kabi turli sohalar bilan bog‘liq ekologik xarajatlarni ta’kidlash orqali dalillarga asoslangan siyosiy qarorlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, hukumat yashil hisob ma’lumotlaridan uglerod chiqindilariga soliq solish yoki qayta tiklanadigan energiya texnologiyalari uchun subsidiyalar berish uchun foydalanishi mumkin.

“Yashil” hisob xo‘jalik faoliyatining ekologik oqibatlari to‘g‘risida aholining xabardorligini oshiradi. U korxonalar va hukumatlarni tabiiy resurslarning kamayishi va atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun javobgarlikka tortadi, bu esa korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va atrof-muhitni muhofaza qilishni kuchaytiradi.



1-rasm. Yashil hisob turlari.

“Yashil” hisobni joriy etishdagi muammolariga to‘xtaladigan bo‘lsak yashil hisob o‘zining aniq afzalliklariga qaramay, bir qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Yashil hisobdagi eng muhim to‘siqlardan biri tabiiy resurslar va ekotizim xizmatlarini baholashdagi qiyinchiliklardir. Neft yoki yog‘och kabi ba’zi resurslar bozor narxlariga ega bo‘lsa-da, ko‘plab ekotizim xizmatlari (masalan, uglerod sekvestri yoki bioxilma-xillik) bunday narxlarga ega emas.Ushbu xizmatlarning

pul qiymatini baholash murakkab bo‘lib, ko‘pincha subyektiv bo‘lishi mumkin bo‘lgan proksi-o‘lchovlar yoki shartli baholash usullaridan foydalanishni talab qiladi.

Yashil buxgalteriya hisobi umumqabul qilingan standartlar va uslubiyotlarga ega emas. Turli mamlakatlar va tashkilotlar o‘zlarining buxgalteriya tizimlariga atrof-muhit omillarini kiritish uchun turli yondashuvlarni qo‘llashlari mumkin, bu esa natijalarni taqqoslash yoki barqarorlikning global tendensiyalarini kuzatishni qiyinlashtiradi. "Yashil" buxgalteriya hisobini keng joriy etish uchun umumiy standartlar va asoslarni belgilash muhim ahamiyatga ega.

Tabiiy resurslar, ifloslanish darajasi va ekotizim xizmatlari to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumotlar ko‘pincha yo‘q yoki to‘liq emas. Hukumatlar va korxonalar atrof-muhit ko‘rsatkichlari bo‘yicha zarur ma’lumotlarni to‘plash va monitoring qilish imkoniyatiga ega bo‘lmasligi mumkin. Aniq ma’lumotlarning yo‘qligi siyosat va biznes qarorlarini qabul qilishda yashil hisobning samaradorligiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Yashil buxgalteriya hisobi iqtisodiy samaradorlikni o‘lchash va korxonalar hamda hukumatlar qaror qabul qilish usullarini tubdan o‘zgartirishni talab qiladi. Ko‘plab manfaatdor tomonlar bu o‘zgarishga murakkablik, xarajat yoki o‘rnatilgan tizimlarning buzilishi tufayli qarshilik ko‘rsatishi mumkin. Bu qarshilikni yengish uchun kuchli siyosiy iroda, jamoatchilikning qo‘llab-quvvatlashi va iqtisodiy qarorlar qabul qilishda atrof-muhit omillarini hisobga olish muhimligi to‘g‘risida ta’lim zarur.

Xulosa

Yashil buxgalteriya hisobi an’anaviy iqtisodiy tizimlarga ekologik omillarni kiritish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun istiqbolli yondashuvni taklif etadi. Tabiiy resurslar, ekotizim xizmatlari va atrof-muhit xarajatlari qiymatini o‘lchash orqali yashil hisob siyosatchilar, korxonalar va jamiyatlarga barqarorlikning haqiqiy iqtisodiy qiymatini tushunishga yordam beradi. Baholash, ma’lumotlarni to‘plash va standartlashtirish bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolayotgan bo‘lsa-da, yashil hisobning afzalliklari aniq: u resurslarni yanada barqaror boshqarishni rag‘batlantiradi, dalillarga asoslangan siyosatni qo‘llab-quvvatlaydi va yashil texnologiyalarga sarmoya kiritishga undaydi. Dunyoda ekologik muammolar kuchayib borayotgan bir paytda, “yashil” hisobni joriy etish iqtisodiy o‘sish va ekologik muhofaza o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash, kelgusi avlodlar uchun barqaror kelajakni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu o‘rinda “Faqat foyda emas, balki tabiat va jamiyat foydasini ham hisoblaydigan tizimdir” deyish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Muxlisa Eshquvvatova “Yashil buxgalteriya hisobi va ekologik masalalarga oid xalqaro talablar va yondashuvlar” Vol. 3 No. 5 (2025): «Muhandislik va Iqtisodiyot» jurnali
2. Shamsiev, D. (2019). O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning rivojlanishi va ekologik mas’uliyatni kuchaytirish. O‘zbekiston iqtisodiyoti va ekologiyasi, 8(2), 49-56.
3. O‘rozbekov, S. (2018). Yashil iqtisodiyot va ekologik mas’uliyat: O‘zbekiston sharoitida yashil buxgalteriya hisobini joriy etish. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.
4. Sustainability Accounting Standards Board (SASB). (2018). SASB standards: Standards for sustainability accounting. SASB.
5. United Nations Environment Programme (UNEP) (2020). Sustainable development goals and accounting for sustainability. UNEP.

MOLIYAVIY HISOBOTDA BARQARORLIKKA OID AXBOROTLARNI YORITIB BERISH YO’NALISHLARI

TDIU “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi
dotsenti, PhD. A.Kozimjonov

Annotatsiya. Ushbu maqolada xo’jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tuziladigan va taqdim moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari bo’yicha normativ-huquqiy tavsifi, xususan moliyaviy hisobotda barqarorlikka oid axborotlarni yoritib berish yo’nalishlari yoritilib berilgan.

Kalit so’zlar: moliyaviy hisobot, qonun, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS), buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS), MHXS S1, MHXS S2, qaror va nizomlar.

Hozirgi kunda yurtimizda xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta’minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror qabul qilingan. Ushbu qarorda 2021 yil 1 yanvardan boshlab,

MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlash, 2021 yil yakuniga qadar buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida “MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobot” fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to‘g‘risida hujjatga yoxud “Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter (CIPA)”, “Sertifikatlangan diplomli buxgalter (ACCA)”, “Sertifikatlangan jamoatchi buxgalter” va “Xalqaro moliyaviy hisobot bo‘yicha diplom (DipIFR)” sertifikatlaridan biriga ega kamida uch nafar mutaxassis miqdorida MHXSni sifatli qo‘llash uchun yetarli bo‘lgan buxgalteriya xizmati xodimlari bilan ta’minlash kabi vazifalar belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, Prezidetimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizda moliyaviy hisob tizimiga xalqaro standartlarni keng joriy qilish hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O’zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to’g’risida”gi PF-16-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida 2025 yil 15 sentyabrda “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-282 sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda moliyaviy hisobotlarni tuzishda aniqlik va shaffoflikni ta’minlash bo’yicha ko’rilgan choralar natijasida yirik korxonalarning moliyaviy hisobotlari MHXS asosida tuzishga o’tilgani, moliyaviy hisobning milliy tizimini xalqaro talablarga uyg’unlashtirishga erishilgani, kadrlar salohiyatini oshirish bo’yicha tizimli choralar ko’rilayotgani inobatga olgan holda, Iqtisodiyot va moliya vazirligining moliyaviy hisob tizimiga xalqaro talab va standartlarni joriy etishga qaratilgan islohotlarni davom ettirishning navbatdagi bosqichi sifatida jamiyat va iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo’lgan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan ularning moliyaviy hisobotlari, auditi va boshqaruviga alohida talablar belgilanadigan Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar (Public interest entities — PIE) huquqiy maqomini joriy qilish to’g’risidagi taklifiga rozilik berildi.

Shu bilan birga, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy qilish bo’yicha respublika komissiyasi tuzilib va uning asosiy vazifalari etib quyidagilar

belgilandi:

- mamlakatimizda MHXSni sifatli joriy qilish, tadbirkorlik subyektlariga mazkur jarayonda uslubiy ko’mak ko’rsatish bo’yicha davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

- milliy buxgalteriya hisobi qonunchilik hujjatlarini MHXSga moslashtirish bo’yicha manfaatdor vazirlik va idoralarning hamkorligini ta’minlash va zarur huquqiy mexanizmlarni shakllantirish;

- xalqaro ta’lim standartlari asosida MHXS bo’yicha kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish va ularni amaliyotga jalb etishning tizimli choralarini belgilash;

- moliyaviy hisobot ma’lumotlari sifatini oshirish, uning xalqaro darajada tan olinishini ta’minlash va mamlakat investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirish.

Shu bilan birga ushbu Qarorga muvofiq, faoliyat turi va (yoki) aktivlari miqdori tufayli yuqori ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirga, shuningdek, keng doiradagi manfaatdor tomonlarga ega bo’lish kabi mezonlarga javob beradigan tadbirkorlik subyektlari Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritilishi ko’zda tutilgan. Iqtisodiyot va moliya vazirligi Markaziy bank bilan birgalikda Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritish mezonlarini ishlab chiqadi. Belgilangan mezonlarga javob beradigan tadbirkorlik subyektlari har yili 1-iyulga qadar Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan, Markaziy bank nazorati ostidagi tashkilotlar esa Markaziy bank tarafidan Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar reyestriga kiritiladi. 2026-yil 1-yanvardan boshlab Reyestr Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan elektron shaklda yuritiladi va har yili 1-iyulga qadar Hukumat portali yagona platformasi hamda Ochiq ma’lumotlar portaliga joylashtiriladi. Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar Reyestrga kiritilgan yildan keyingi yilning 1-yanvaridan boshlab MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi hamda navbatdagi (ikkinchi) yil yakuniga ko’ra moliyaviy hisobotlarni tuzish va ularni auditorlik xulosalari bilan birga e’lon qilishni MHXSga muvofiq amalga oshiradi, qonunchilik hujjatlarida MHXSga o’tishning ertaroq muddatlari nazarda tutilgan yuridik shaxslar bundan mustasnoligi ko’rsatilib o’tilgan. 2026-2028-yillar davomida

buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasidagi tegishli fan bo'yicha imtihonni muvaffaqiyatli topshirgan fuqarolarning dastlabki ro'yxatdan o'tish va imtihon topshirish xarajatlari O'zbekiston Respublikasi respublika budjetidan qoplab beriladi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotning asosiy elementi bo'lgan majburiyatlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq takomillashtirish bugungi kundagi tadqiqotchilarning dolzarb mavzusi ekanligini belgilab beradi.

Xalqaro darajada standartlar ishlab chiquvchi Xalqaro Buxgalteriya Standartlari Qo'mitasi (IASC- International Accounting Standarts) tomonidan 1973-2000 yillar davomida jami 41 ta BHXS ishlab chiqilgan bo'lib, 2025 yilda ushbu standartlar soni 25 tani tashkil etadi. Buxgalteriya Standartlari Qo'mitasi 2001 yilda tugatilib, Xalqaro Buxgalteriya Standartlari Qo'mitasi (IASB- International Accounting Standards Board) tashkil etilib 2001 yilda 2025 yilgacha jami 17 ta MHXSlari ishlab chiqilgan va rasman amaliyotga qo'llashga ruxsat berilgan. Ya'ni, hozirgi kungacha BHXSlari MHXSlarga o'zgartirib kelinmoqda.

Shuningdek, hozirgi kunda moliyaviy hisobotlarda barqarorlikka oid axborotlarni ochib berish masalasi xalqaro miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yo'nalishda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari kengashi tomonidan ishlab chiqilgan MHXS S1 – "Barqarorlikka oid moliyaviy axborotlarni ochib berishning umumiy talablari" hamda MHXS S2 – "Iqlim bilan bog'liq axborotlarni ochib berish**"** standartlari muhim me'yoriy asos hisoblanadi. Mazkur standartlar korxonalarning barqaror rivojlanish bilan bog'liq xavf va imkoniyatlarini moliyaviy hisobotlarda shaffof yoritishni ta'minlashga xizmat qiladi hamda investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ishonchli axborot manbaini shakllantiradi.

MHXS S1 standartiga muvofiq, moliyaviy hisobotda barqarorlikka oid axborotlar korxonaning moliyaviy holati, faoliyat natijalari va pul oqimlariga ta'sir ko'rsatuvchi barcha muhim barqarorlik omillarini qamrab olishi lozim. Ushbu

axborotlar boshqaruv, strategiya, xavflarni boshqarish hamda ko‘rsatkichlar va maqsadlar yo‘nalishlari kesimida ochib beriladi. Xususan, korxonaning barqaror rivojlanishga oid strategiyasi, qisqa va uzoq muddatli xavflar hamda imkoniyatlar, shuningdek, ularning moliyaviy ko‘rsatkichlarga ta’siri haqidagi ma’lumotlar shaffof tarzda yoritilishi talab etiladi. Bu investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun qaror qabul qilishda axborotning ahamiyatliligini oshiradi.

MHXS S2 standarti barqarorlik axborotlarining alohida yo‘nalishi sifatida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq moliyaviy axborotlarni ochib berishga qaratilgan. Mazkur standartga muvofiq, korxonalar iqlim xavflari va imkoniyatlarining biznes modeli, strategiya hamda moliyaviy natijalarga ta’sirini yoritishi lozim. Jumladan, iqlim bilan bog‘liq fizik va o‘tish xavflari, uglerod chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan maqsadlar, shuningdek, energiya samaradorligi va resurslardan foydalanish siyosati moliyaviy hisobot bilan uzviy bog‘liq holda taqdim etiladi. MHXS S2 axborotlari investorlar uchun korxonaning iqlim barqarorligi darajasini baholash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmon (https://lex.uz/uz/docs/5841063).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2025 yil 15 sentyabrda “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-282 sonli qarori (https://lex.uz/uz/docs/-7728924)

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 24.02.2020 yildagi PQ-4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori (https://lex.uz/ru/docs/4746047).

4. Eshov M.P., Abdurakhmanova G.K., Burkhanov A.U., Abdusalomova N.B. and Ergasheva S.T. (Ed.) Development of International Entrepreneurship Based on Corporate Accounting and Reporting According to MHXS (Advanced

Series in Management, Vol. 33B), Emerald Publishing Limited, Leeds, pp. 1-4. https://doi.org/10.1108/S1877-63612024000033B001

5. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari to‘plami. // ASSA . MHXS/IAS.., 2019 y.

6. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining buyrug‘i. O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022 yil 9 dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3400.

7. Ergasheva Sh.T., Ilxamov Sh.I., Kozimjonov A., Mannapova R.A. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik. – T.: TDIU, 2022. - 360 bet.

8. Kozimjonov A. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. (O’quv qo’llanma) - T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2024. 204 bet.

9. Tashnazarov S.N va boshqalar (2018) Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. – Samarkand: SamISI, – 421 b.

MOLIYAVIY HISOBOTNING NAZARIY YONDASHUVLARI, KONSEPTUAL ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI

TDIU “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi

dotsenti, PhD. A.Kozimjonov

Annotatsiya. Ushbu maqolada xo’jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tuziladigan va taqdim moliyaviy hisobotlarning moliyaviy hisobotning nazariy yondashuvlari, konseptual asoslari va istiqbollari ochib berilgan.

Kalit so’zlar: moliyaviy hisobot, qonun, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS), buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS), MHXS S1, MHXS S2, qaror va nizomlar.

Hozirgi kunda mamlakatimizda moliyaviy hisob tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri

hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan moliyaviy hisob va hisobot tizimiga xalqaro talablarni keng joriy etish, shaffoflik va aniqlikni ta’minlash hamda investitsiyaviy muhitni yaxshilashga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish bilan uzviy bog‘liq holda olib borilmoqda.

Ushbu yo‘nalishdagi muhim huquqiy asoslardan biri sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoni hamda uni ijrosini ta’minlash maqsadida 2025-yil 15-sentyabrda qabul qilingan “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-282-son Qarorini alohida ta’kidlash lozim. Mazkur qarorda yirik xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida tuzishga o‘tilgani, milliy moliyaviy hisob tizimini xalqaro talablarga uyg‘unlashtirish borasida muhim natijalarga erishilgani hamda kadrlar salohiyatini oshirish bo‘yicha tizimli choralar ko‘rilayotgani qayd etilgan.

Shuningdek, moliyaviy hisob tizimiga xalqaro standartlarni joriy etish bo‘yicha islohotlarning navbatdagi bosqichi sifatida jamiyat va iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari uchun alohida talablarni belgilashni nazarda tutuvchi Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar (Public Interest Entitiyes — PIE) huquqiy maqomini joriy etish to‘g‘risidagi taklifga rozilik berildi. Bu esa moliyaviy hisobot, audit va korporativ boshqaruv sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy qilish bo‘yicha respublika komissiyasining tashkil etilishi ushbu jarayonning institutsional asoslarini mustahkamladi. Komissiyaning asosiy vazifalari sifatida MHXSni sifatli joriy etish jarayonini muvofiqlashtirish, milliy buxgalteriya hisobi qonunchiligini xalqaro standartlarga moslashtirish, MHXS bo‘yicha kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda moliyaviy hisobot ma’lumotlari sifatini yaxshilash orqali

mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirish belgilandi.

Moliyaviy hisobot korxona faoliyati to‘g‘risida ishonchli, taqqoslanadigan va foydali axborotlarni shakllantirish orqali foydalanuvchilarning iqtisodiy qarorlar qabul qilishiga xizmat qiluvchi muhim axborot tizimi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy hisobotning ahamiyati ortib borar ekan, uning nazariy yondashuvlari, konseptual asoslari va rivojlanish istiqbollarini chuqur o‘rganish dolzarb ilmiy masala sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Moliyaviy hisobotning nazariy yondashuvlari, avvalo, buxgalteriya hisobining mohiyati va vazifalarini izohlovchi ilmiy qarashlar majmuasiga tayanadi. Ushbu yondashuvlar doirasida axborotga yo‘naltirilgan, mulkdorlik, manfaatdor tomonlar hamda institutsional yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Axborotga yo‘naltirilgan yondashuv moliyaviy hisobotni foydalanuvchilar uchun qaror qabul qilishga xizmat qiluvchi axborot manbai sifatida talqin etsa, manfaatdor tomonlar yondashuvi hisobotni nafaqat investorlar, balki kreditorlar, davlat organlari va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda shakllantirish zarurligini asoslaydi. Institutsional yondashuv esa moliyaviy hisobotni me’yoriy-huquqiy muhit, standartlar va institutlar ta’siri ostida shakllanuvchi tizim sifatida ko‘rib chiqadi.

Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) doirasida ishlab chiqilgan Konseptual asos hujjati orqali belgilanadi. Ushbu hujjat moliyaviy hisobotning maqsadi, foydalanuvchilari, sifat tavsiflari hamda moliyaviy axborotni tan olish va baholash mezonlarini aniqlab beradi. Konseptual asosga ko‘ra, moliyaviy hisobotning asosiy maqsadi investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlarga resurslarni taqsimlash bo‘yicha oqilona qarorlar qabul qilish uchun foydalanishga yaroqli axborot taqdim etishdan iborat. Shuningdek, axborotning ishonchliligi, ahamiyatliligi, qiyoslanuvchanligi va o‘z vaqtida taqdim etilishi uning asosiy sifat tavsiflari sifatida belgilanadi.

Moliyaviy hisobotni shakllantirishda aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromad va xarajatlar kabi elementlarning aniq ta’rifi va baholanishi muhim ahamiyatga ega. Konseptual asoslar ushbu elementlarni tan olishda iqtisodiy mazmunning huquqiy

shakldan ustunligi tamoyiliga amal qilishni talab etadi. Bu esa moliyaviy hisobotning real iqtisodiy holatni aks ettirishini ta’minlaydi hamda foydalanuvchilar ishonchini oshiradi.

Zamonaviy sharoitda moliyaviy hisobotning rivojlanish istiqbollari globalizatsiya, raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Xususan, xalqaro standartlarning keng qo‘llanilishi moliyaviy hisobotning uyg‘unlashuvi va taqqoslanishini ta’minlamoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar moliyaviy axborotlarni tayyorlash va taqdim etish jarayonini avtomatlashtirishga, real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda moliyaviy hisobotda barqarorlik va iqlim bilan bog‘liq axborotlarni ochib berishga bo‘lgan talab ortib bormoqda. MHXS S1 va MHXS S2 kabi yangi standartlarning joriy etilishi moliyaviy hisobotning istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab bermoqda. Bu holat moliyaviy hisobotni faqat o‘tmish natijalarini aks ettiruvchi vosita emas, balki korxonaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini baholashga xizmat qiluvchi strategik axborot manbai sifatida shakllantirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy hisobotning nazariy yondashuvlari va konseptual asoslari uning ilmiy poydevorini tashkil etsa, zamonaviy iqtisodiy jarayonlar ta’siri ostida shakllanayotgan istiqbollari ushbu tizimning yanada takomillashuvini ta’minlaydi. Moliyaviy hisobotning mazkur evolyutsiyasi uning foydalanuvchilar uchun ahamiyatini oshirib, iqtisodiy qarorlar sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmon (https://lex.uz/uz/docs/5841063).

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2025 yil 15 sentyabrda “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-282 sonli qarori (https://lex.uz/uz/docs/-7728924)

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 24.02.2020 yildagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori (https://lex.uz/ru/docs/4746047).

13. Eshov M.P., Abdurakhmanova G.K., Burkhanov A.U., Abdusalomova N.B. and Ergasheva S.T. (Ed.) Development of International Entrepreneurship Based on Corporate Accounting and Reporting According to MHXS (Advanced Series in Management, Vol. 33B), Emerald Publishing Limited, Leeds, pp. 1-4. https://doi.org/10.1108/S1877-63612024000033B001

14. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari to'plami. // ASSA . MHXS/IAS.., 2019 y.

15. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining buyrug'i. O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022 yil 9 dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3400.

16. Ergasheva Sh.T., Ilxamov Sh.I., Kozimjonov A., Mannapova R.A. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik. – T.: TDIU, 2022. - 360 bet.

17. Kozimjonov A. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. (O'quv qo'llanma) - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2024. 204 bet.

18. Tashnazarov S.N va boshqalar (2018) Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. – Samarkand: SamISI, – 421 b.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ ПО УЧЕТНЫМ ЦЕНАМ В НЕФТЕПЕРЕРАБАТЫВАЮЩЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

МАХКАМОВА САИДА ГАЙРАТОВНА
PhD, доцент кафедры «Бухгалтерский учёт»
Ташкентский Государственный экономический университет, г. Ташкент
s.makhkamova@tsue.uz, E-mail: saidamahkamova81@gmail.com

ORCID: /0000-0002-9927-7506

Аннотация. Основной целью статьи является правильная организация учета готовой продукции в нефтеперерабатывающей отрасли. Для достижения поставленной цели определены следующие задачи: изучить специфику производственного процесса нефтеперерабатывающего производства, теоретическое исследование расположения затрат в нефтеперерабатывающей отрасли и способы распределения комплексных затрат в нефтеперерабатывающем производстве, изучить объекты учета затрат и калькуляции, также правильное распределение комплексных расходов. В данной статье мы подробно разберемся, как правильно вести учет готовой продукции и определение финансового результата (прибыли или убытка) в бухгалтерском учете на основе нормативных документов республики Узбекистан.

Ключевые слова: готовая продукция, затраты, себестоимость, комплексные затраты, побочный продукт, плановая (нормативная) себестоимость, учетные цены.

MAKHKAMOVA SAIDA GAYRATOVNA
Doctor of Philosophy in Economical sciences, Associate Professor of Accounting Department, Tashkent State University of Economics, Tashkent
s.makhkamova@tsue.uz, E-mail: saidamahkamova81@gmail.com
ORCID: /0000-0002-9927-7506

IMPROVEMENT OF ACCOUNTING OF FINISHED PRODUCTS AT ACCOUNTING PRICES IN THE OIL REFINING INDUSTRY

Braziliya. Iqtisodiy o‘sish, o‘zgarishlarga molashish, stsenariy asosidagi rejalashtirish, inflyatsiyaga moslashish	Stsenariylar taklif qilish, xaflarni baxolash, qaror qabul qilishda yordam,Moslashuvchanlik va infratuzilma	O’zgarishlari bo‘yicha stsenariylar tuziladi, kompaniyalar senariylar orqali moslashuvchanlikni shakllantiradi.
Avstraliya. Ekologik va ijtimoiy samaradorlik	Carbon Footprint Monitoring, Renewable	Chiqindilarni chiqishi va zararli gazlar hisoblanadi, qayta

	Energy Integration, Circular Economy Practices, Environmental KPIs. Yuqori (barqarorlik texnologiyalari)	tiklanadigan resurslar ulushi strategik baxolanadi, chiqindilarni qayta ishlash va tejamkorlik, resurslar sarfi, tejamkorlik, chiqindilardar qayta foydalanish

Muallif ishlanmasi.

2-jadval turli mamlakatlardagi boshqaruv hisobida qo‘llaniladigan strategik vositalar va ularning asosiy xususiyatlarini keltiriladi xamda ularni strategik yo‘nalish, strategik vosita va strategik amaliyot bo‘yicha tanishtiradi. Ko‘rinib turibdiki, boshqaruv hisobi strategik vositalaridan foydalanish turli davlatlarda farq qiladi. Masalan, AQSh kompaniyalari odatda sun’iy intellektga asoslangan istiqbolga yo‘naltirlgan taxlillar, aksiyadorlarga yo‘naltirilgan strategik KPIlar platformalariga katta investitsiyalar kiritadi, Germaniya kompaniyalari esa xarajatlar tuzilmasini tahlil qilish va reglament talablariga rioya qilishga kuchli urg‘u beradi.

Professional tashkilotlar turli davlatlarda boshqaruv hisobi tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. AQShdagi IMA, Buyuk Britaniyadagi CIMA va Germaniyadagi Controlling Akademie kabi tashkilotlar standartlar va ushbu soxada ilmiy yo‘nalishlarni belgilaydi. Shunday profetsional tashkilotlar ilmiy tadqiqotlar bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi bog‘lovchi vazifasini bajaradi hamda bugungi raqamli texnologiyalar va globallashish sharoitida kerak bo‘lgan kompetensiyalarni shakllntiruvchi ta’lim dasturlarining xayotiyligini ta’minlaydi

Tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan raqamli transformatsiya boshqa soxalar qatorida boshqaruv hisobida xam bir qator o‘zgarishlarga olib keldi. Keyingi paytlarda olib borilgan hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, hisob ishlarida sun’iy intellekt (AI), katta ma’lumotlar (big data) va mashinaviy o‘rganish (machine learning) texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha Amerika va G‘arbiy Yevropadagi texnologik kompaniyalari real vaqtli boshqaruv paneli (dashboards)[19] va aylanuvchi prognozlash (rolling forecasts)[20] kabi usullarni qo‘llamoqda. Osiyo-Tinch okeani dalatlarida ushbu usullarni o‘zlashtirish jarayonini yuz bermoqda.

Iqtisodiy rivojlangan davlatlar faoliyati shuni ko‘rsatadiki boshquv hisobi strategik yo‘nalishda tezroq rivojlanmoqda. Maslan, Yaponiyada Hoshin Kanri usulini shunga misol tariqasida keltirish mukin. Ushbu usuulda uzoq muddatli maqsadlar bilan operatsion faoliyatni birlashtirish talif qilingan. Germaniyada qo‘llanilayotgan strategik Controlling usuli real vaqtli faoliyat monitoringi va xavf tahlilini o‘z ichiga oladi. Rivojlangan davlatlarda boshqaruv hisobini o‘rnini turlicha talqin qiladilar. Angliya-Amerika hisob tizimida buxgalterlik kasbiga ko‘proq strategik vosita va biznes yordamchi sifatida qaraydi. Osiyo va Sharqiy Yevropa

[19] Langston E. Open Source Dashboards: 9 Best Tools (2026) // MetricFire. — November 26, 2025. — Режим доступа: https://www.metricfire.com

[20] Russo K. What Is a Rolling Forecast? Pros, Cons, and Best Practices // NetSuite. — December 20, 2023. — Режим доступа: https://www.netsuite.com

davlatlarida buxgalterga axborot tayyorlovchi va xarajatlarni boshqarish funktsiyasi sifatida an'anaviy usulda qaraydi. Ammo dunyoning barcha davlatlarida xalqaro integratsiya ta'sirida buxgalterlarga yangicha, qiymat yaratish nuqtai nazaridan qarash shakllanmoqda.

Mamlakatimizda boshqaruv hisobini rivojlantirishda dunyo tajribasi yutuqlaridan foydalanish mumkin. Shundan kelib chiqqan xolda, dunyo tajribasidagi strategik uyg'unlik, tahliliy aniqlik, natijaviylikka yo'naltirilganlik kabi xususiyatlarni o'zida birlashtiruvchi hisobchilik modelini shakllantirish, o'zgarishlarga tez moslashuvchan tizimni yaratishga olib keladi. Shu bilan birgalikda, oliy ta'lim muassasalari va sanoat o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish islohotlar uchun zarur bo'lgan tizimni shakllantirishga olib keladi.

Korxonalar faoliyatida xarajatlar bir hil bo'lsa xam ularni hisobga olish jarayonlari turli mamlakatlarda turlichadir. Xarajatlarni hisobga olish mamlakatda shakllangan tadbirkorlik muxitiga, qonun va qarorlarga bog'liq.

Ishlab chiqarish murakabligidan kelib chiqib AQSh va Angliyada AVS faoliyatga asoslangan xarajatlar usuli qo'llaniladi. Bu usul ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishlarga umumiy xarajatlarni aniqroq taqsimlashni ta'minlaydi. Samaradorlikni ta'minlash maqsadida ushbu davlatlarda AVS usuli samarasi oshishi uchun Muvozanatlashtirilgan Ko'rsatkichlar Kartasi (BSC) usuliga integratsiyalashgan xolatda qo'llaniladi. Muvozanatlashtirilgan Ko'rsatkichlar Kartasi (Balanced Scorecard, BSC) — bu tashkilotning strategiyasini amalga oshirish va natijalarini baholash uchun ishlatiladigan menejment usuli. Ushbu yondashuvni Robert Kaplan va Devid Norton ishlab chiqqan. Bu usul moliyaviy ko'rsatkichlar bilan birgalikda korxonani uzoq muddatli strategik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni xam hisobga oladi. Ushbu usul moliyaviy faoliyat, iste'molchilar, ichki jarayonlar va xodimlar bo'yicha ko'rsatkichlarni hisoblashga asoslanadi.

Xarajatlarni hisoblashning "lean manufacturing"[21] (tejamkor ishlab chiqarish)va "qiymat zanjiri xarajatlari" (value stream costing)[22] usullari Yaponiyada keng qo'llaniladi. Ayniqsa, avtomobilsozlik sanoatida xarajatlarni tashkil etishning "Target costing"[23] (maqsadli xarajatlash) va "Kaizen costing"[24] (uzluksiz takomillashtirish asosidagi xarajatlash) usullari keng qo'llaniladi. Avtomobilsozlikda maxsulot baxosi lider kompaniya tomonidan belgilanadi va qolgan bozor ishtirokchilari bo'lgan kompaniyalar shu baxolardan kelib chiqib o'z

[21] Ohno T. Toyota Production System: Beyond Large-Scale Production. — Portland: Productivity Press, 1988. — 143 p.
Womack J.P., Jones D.T., Roos D. The Machine That Changed the World

[22] Чечевич, Б. Н.; Ђорђевич, М. Lean accounting and value stream costing for more efficient business processes // Economic Themes. – 2020. – Т. 58, № 4. – С. 573–592. – DOI: 10.2478/ethemes-2020-0032.

[23] Смирнова, Н. И. Управление затратами – метод «таргет-костинг» // *Вестник Амурского государственного университета. Серия: Естественные и экономические науки*. – 2014. – № 66. – С. 45–52.

[24] Зарубежные методы учета затрат: Кайзен-костинг (Kaizen Costing) // *Саратовский государственный экономический университет (СУО СГЭУ)*. – 2015.

baxo siyosatlarini belgilaydilar. Bunday sharoitda foyda rejasini bajarilishini ta’minlash uchun xarajatlar mxsulot baxosidan kelib chiqib rejalashtiriladi. Iqtisodiyotni rivojlanishi va ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashuvi rivojlanayotgan iqtisodiyotlarga ega davlatlarda o‘zgaruvchan sharoitlar va noaniqliklarni kuchayishiga olib kelmoqda. Shuning uchun bunday davlatlarda xarajatlarni hisoblashda o‘zgaruvchanlik bilan bog‘liq sharoitlarda xarajatlarni boshqarishni taminlaydigan ayniqsa, chakana savdo va qishloq xo‘jaligi kabi o‘zgaruvchan sohalarda o‘zgaruvchan xarajatlash (variable costing) va aylanma prognozlash (rolling forecasts) usullaridan foydalanmoqdalar. An’anaviy usulda standartlar yordamida xarajatlarni tashkil etish Xindiston kompaniyalarida saqlanib qolayotganligiga qaramasdan, yirik korxonalar ko‘proq xarajatlarni strategik vositalar yordamida tashkil etishga xarakat qilinmoqda. Bunday usullarga benchmarking (taqqoslash tahlili) va Life Cycle Costing (Hayotiy tsikl xarajatlash)[25] kabi usullarni keltirish mumkin. Xitoyda davlat korxonalarida ABC va mas’uliyatli hisob yuritish (responsibility accounting) tizimlarining kengroq qo‘llanilishi kuzatilmoqda. Bunda hukumat tomonidan ERP tizimlarini joriy etishni qo‘llab-quvvatlash saqlab qolinadi.

3-jadval

Xarajatlarni tashkil etishning xususiyatlari va uni xududlar bo‘yicha taqsimlanishi

Mamlakat va xududlar	Xarajatlarni tashkil etish usullari	Xarajatlarni tashkil etish usullari xususiyatlari
AQSh	Faoliyatga asoslangan xarajatlar (ABC)	Korxonadagi xarajatlar faoliyatlar bo‘yicha tashkil etiladi.
Yaponiya	Target (maqsadli) va kaizen usuli (“uzluksiz yaxshilanish”)	Avval bozordagi raqobatchi narx va mijozlar tayyor to‘laydigan summa aniqlanadi, keyin shu narxdan kutilgan foyda chiqarib tashlanadi va qolgani mahsulotning maqsadli xarajati hisoblanadi.
Buyuk Britaniya	Faoliyatga asoslangan usul (ABC)	Korxonalarda xarajatlarni aniqroq va samarali taqsimlash uchun ishlatiladigan zamonaviy usul. Uning asosiy g‘oyasi shundaki, xarajatlar mahsulot yoki xizmatga emas, balki ularni yaratishdagi faoliyatlarga jamlanadi
Xitoy	ABC va mas’uliyatli hisob yuritish	Xarajatlarni aniq va samarali taqsimlash bilan birga, ular uchun mas’uliyatni ham belgilashdir
Hindiston	Standart va xayotiy tsikl xarajatlash	Xar bir mahsulot yoki xizmat uchun oldindan belgilangan standart xarajatlar hisoblanadi, mahsulotning butun hayoti davomidagi xarajatlar hisobga olinadi — dizayndan to yo‘q qilishgacha.
Braziliya	O‘zgaruvchan va gibrid	Faqat o‘zgaruvchan xarajatlar (xomashyo, ishchi soati, energiya sarfi) mahsulot narxiga kiritiladi. Doimiy

[25] *Understanding Life Cycle Costing: A Comprehensive Guide for MBA Students* // Online MBA Programs. – 2025. – 14 август.

	xarajatlash	xarajatlar (ijara, ma’muriy xarajatlar) alohida hisoblanadi.

Muallif ishlanmasi

Bugungi kunda O‘zbekistonda boshqaruv hisobida xarajatlarni tashkil etishda avtonom va integratsiyalashgan usullar, shuningdek javobgarlik markazlari bo‘yicha hisobga olish usullari qo‘llanilmoqda. Bu usullar korxonalarda xarajatlarni nazorat qilish, samaradorlikni oshirish va xalqaro tajribalarga moslashish imkonini beradi.

Zamonaviy usullarni qo‘llash masalan, GPK usuli (Global Partiya Kalkulyatsiyasi) xarajat markazlari aniq belgilangan sanoat korxonalarida samarali qo‘llanilishi mumkin. ABC (Activity-Based Costing) xarajatlar faoliyatlarga bo‘yicha va TDABC (Time-Driven Activity-Based Costing) xarajatlar vaqt drayverlari orqali hisoblash, ya’ni har bir jarayonga sarflangan vaqt bo‘yicha hisoblash usullari kabi zamonaviy yondoshuvlar qo‘lanilganda hisob jarayonining shaffofligini ortadi. Bundan tashqari, target costing (maqsadli xarajatlash)ni narxlash strategiyalari bilan integratsiya qilish eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Boshqaruv hisobining usullari raqamli infratuzilma va mexnat resurslari darajasi bilan integratsiyalashgan xolatda samarali vositaga aylanadi va ushbu salohiyatni amalda ishga solish tashkil etish va qonun va qarorlar bilan ta’minlanishi lozim.

Xulosalar.

Xar bir mamlakatda shakllangan madaniy qadriyatlar iqtisodiyotni rivojlanishida strategik ustuvorliklani belgilab beruvchi omildir. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda xam ma’lum bir qadriyatlar shakllangan bo‘lib, ular asosida usullar va yondoshuvlar shakllanadi. Misol keltiradigan bo‘lsak, Yaponiyada target kosting va kaizen kosting xarajatlarni boshqarish usullari, Germaniyada (Gemeinkosten-Planungs- und Kontrollsysteme) ya’ni ishlab chiqarish xarajatlarini rejalashtirish va nazorat qilish GPK tizimlari, Anglosakson mamlakatlarining ABC (Activity-Based Costing) va BSC (Balanced Scorecard) kabi xarajatlarni tashkil etish va samaradorlikni baholashda keng qo‘llaniladigan zamonaviy yondashuvlar, Skandinaviya mamlakatlarining ishtirokchilik va barqarorlikka asoslangan hisob yuritish amaliyotlari bunga misol bo‘lishi mumkin.

Sun’iy intellekt va ERP tizimlari (Enterprise Resource Planning) — korxonalarda barcha biznes jarayonlarni yagona platformada boshqarishga xizmat qiladigan integratsiyalashgan axborot tizimlarining keng qo‘llanilishi axborotlar tayyorlash jarayonlarining kengayib borayotganligi xamda, boshqaruv hisobining xam strategik jixatdan tez rivojlanib borayotganligini ko‘rsatadi. O‘zining yuksalish bosqichiga kirgan mamlakatimizga bu tajribalar foydani oshirish va raqobatda ustunlikni ta’minlash vositasi bo‘lib hisoblanadi va shuningdek istiqbolda boshqaruv hisobining rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Николаева, О.Е. Управленческий учет: Учебник. — М.: Юрайт, 2019. 412 с
2. Соколова, Е.В. Теория и практика управленческого учета. — СПб.: Питер, 2020. — 368 с.

3. Шеремет, А.Д. Управленческий учет. — М.: Инфра-М, 2018. — 352 с.
4. Каплан Р.С., Нортон Д.П. The Balanced Scorecard — Measures that Drive Performance // Harvard Business Review. — 1992. — Vol. 70, №1. — P. 71–79.
5. Horngren C.T., Datar S.M., Rajan M.V. Cost Accounting: A Managerial Emphasis. — 16th ed. — Harlow: Pearson, 2018. — 912 p.
6. Cooper R., Kaplan R.S. Measure Costs Right: Make the Right Decisions // Harvard Business Review. — 1988. — Vol. 66, №5. — P. 96–103.
7. International Integrated Reporting Council. International <IR> Framework. — London: IIRC, 2013. — 37 p.
8. Solomon E. Return on Investment: Definition, Calculation, and Applications // Journal of Finance. — 1965. — Vol. 20, №2. — P. 321–335.
9. World Bank. Worldwide Governance Indicators. — Washington, DC: World Bank Group, 1999–2025. — Режим доступа: https://info.worldbank.org/governance/wgi
10. United Nations Global Compact; Principles for Responsible Investment. Value Driver Model. — New York: UN Global Compact, 2014. — 28 p.
11. Russo K. What Is a Rolling Forecast? Pros, Cons, and Best Practices // NetSuite. — December 20, 2023. — Режим доступа: https://www.netsuite.com
12. Langston E. Open Source Dashboards: 9 Best Tools (2026) // MetricFire. — November 26, 2025. — Режим доступа: https://www.metricfire.com
13. Ohno T. Toyota Production System: Beyond Large-Scale Production. — Portland: Productivity Press, 1988. — 143 p.
14. Womack J.P., Jones D.T., Roos D. The Machine That Changed the World

Kimyo sanoatida boshqaruv hisobini tashkil etishning xususiyatlari.

Onorboev Sh. M.
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
shuhratjon.onorboev@tsue.uz

Annotatsiya. Iqtisodiyotni globallashuvi kimyo sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish masalalariga zamonaviy yondoshuvni talab qilmoqda. Ayniqsa kimyo sanoati bozorlarida o‘zgarishlarning tezlashuvi va raqobatning kuchayib borishi iqtisodiy samaradorlikni maksimal darajada ta’minlashni taqozo qiladi. Ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarning standartligi va baxolardagi tafovutlarning katta emasligi foydalilikni oshirishda

xarajatlarni asosiy nazorat ob’ekti sifatida qarash lozimligini anglatadi. Boshqaruv hisobi kimyo sanoati korxonalarida xarajatlarni samarali tashkil etish va boshqarish vositasi bo‘lib hisoblanganligi uchun ushbu ilmiy ishda kimyo sanoati korxonalarida xarajatlarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularni tashkil etishda boshqaruv hisobining o‘rni va vazifalarini yoritishga xarakat qilindi.

Kalit so‘zlar: global iqtisodiyot, raqobat, maxsulot baxolari, foydalilik, xarajatlar, boshqaruv hisobi usullari, samaradorlik.

O‘zbekistonda kimyo sanoati milliy iqtisodiyotning muxim tarmoqlaridan biri bo‘lib, ushbu tarmoqning rivojlanishi bir qator tarmoqlarning rivojlanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu strategik tarmoq bugungi kunda xalq xo‘jaligi tarmoqlariga kimyoviy unsurlardan tayyorlangan bir qator maxsulotlar yetkazib beradi. Qishloq xo‘jaligi uchun mineral o‘g‘itlar va o‘simliklarni kimyoviy himoya vositalaridan foydalaniladi. Ushbu kimyoviy vositalar xosildorlikni oshirishda xal qiluvchi rol o‘ynaydi. Kimyo sanoati shuningdek sanoatning yirik tarmog‘i bo‘lib, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda industrial asoslardan biri bo‘li hisoblanadi. Kimyo sanoati korxonalarida turli tarmoqlar uchun muxim bo‘lgan kimyoviy maxulotlar ishlab chiqariladi va bu maxsulotlar orqali ushbu tarmoqlarning riojlanishi ta’minlanadi. Kimyo sanoati mamlakatiizda ichki bozorlardan tashqari tashqi bozorlarga xam maxsulotlar yetkazib berish bilan shug‘ulanadi. Bu mamlakatimiz eksport sloxitni oshirishga yordam beradi. Ko‘rinib turibdiki kimyo sanoati iqtisodiy trmoqlarni industrial rivojlanishiga sharoit yaratishi va xalq xo‘jaligiga turli kimyoviy maxsulotlar yetkazib berish bilan mamlaktimiz iqtiodiy rivojlanishini ta’minlashga yordam beruvchi strategik tarmoqdir. Shuning uchun mamlakatimizda davlatimiz tomonidan kimyo sanoatini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda va uni saloxiyatini to‘la ishga solish bo‘yicha keng isloxotlar olib borilmoqda.

Kimyo sanoatida ishlab chiqarish jarayoni ma’lum bir o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqa tarmoqlardan farq qiladi. Avvalo kimyo sanoati ma’lum bir tabiiy shart-sharoitlarni talab qiladi. “Kimyo sanoati korxonalarini joylashtirishda infratuzilma, transport tarmoqlari, energiya manbalari, xomashyo bazasi va malakali ishchi kuchining mavjudligi hal qiluvchi omillar hisoblanadi”[26]. Shu bilan birgalikda kimyo sanoatining rivojlanishi iqtisodiyotning ma’lum bir tarmoqlarining rivojlanishi bilan bog‘liq. “O‘zbekistonda kimyo sanoati rivojlanish tendentsiyalari haqidagi tadqiqotlarda sanoatning agrosanoat kompleksi, qurilish va energetika sohalari bilan uzviy bog‘liqligi ta’kidlanadi. Olimlar fikricha, kimyo sanoati mamlakat iqtisodiyotida eksport salohiyatini oshirish va import o‘rnini bosishda muhim ahamiyatga ega”[27]. Kimyo korxonalarida tayyor maxsulot kimyoviy reaktsiyalar yordamida yuqori texnologik sharoitda, yuqori bosim, kimyoviy

[26] Абдихолиқова Г. А. Қ. Кимё саноати корхоналарининг ҳудудий жойланишига таъсир кўрсатувчи иқтисодий-географик омилларни ўрганишнинг илмий-назарий асослари // Иқтисодий география ва минтақавий тадқиқотлар журнали. – 2025. – №1. – Б. 22–30.

[27] Зуфторов К., Дўнаев Б. Д. Ўзбекистонда кимё саноати ривожланиши тенденциялари ва истиқболлари // *Иқтисодий назария ва амалиёт*. – Тошкент: 2024. – 70 б.

katalizatorlar yordamida olinadi. Ishlab chiqarish jarayonlari ko‘p jarayonli va xar bir jarayonda ma’lum shart sharoitlarda yuz beradigan kimyoviy reaktsiyalardan tashkil topadi. Maxsulot olish jarayonida turli zaxarli moddalardan foydalanganligi va kimyoviy reaktsiyalar amalga oshirilganligi bois yuqori xafsizlik talablari qo‘yiladi. Bu o‘z navbatida xafsizlik bilan bog‘liq xarajatlarning xajmini oshishiga olib keladi. Kimyoviy maxsulotlar olish jarayonida ma’lum ishlab chiqarish chiqindilari ajralib chiqadi va ushbu kimyoviy chiqindilar qayta ishlanadi va bu asosiy ishlab chiqarish jarayonlari davomi hisoblanadi.

Kimyo korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlari aksar xollarda yuqori texnologiyalar bilan amalga oshirilganligi bois barcha jarayonlar yuqori darajada avtomatlashtiriladi, bir turdagi xom ashyodan turli kimyoviy maxsulotlar olinadi. Ishlab chiqarish jarayonlari to‘xtovsiz texnologik protsess bo‘lganligi bois xarajatlarni doimiy taxlil qilib borishni talab qiladi. Ushbu korxonalarda maxsulot tannarxini aniqlash xam o‘ziga xos bo‘lib, unda bir qator asosiy va qo‘shimcha xarajatlarni hisobga olishni talab qiladi. Shuning uchun ushbu tarmoqda ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlash, uning samarali xajmlarini aniqlash, xarajatlarni tashkil etish va boshqarish kabi muxim vazifalar boshqaruv hisobi tomonidan amalga oshiriladi. Yana shuningdek kimyo tarmog‘i yuqori texnologiyalardan foydalanadi va bu esa katta mablag‘larni jalb etishni talab qiladi. Shuning uchun ushbu tarmoqda boshqaruv hisobini tashkil etish va uning usullaridan foydalanish aniqsa muximdir. Bunday usullargi korxonani iqtisodiy faoliyatini strategik boshqarish uchn zarur axborotlar bilan ta’minlash, ishlab chiqarish jarayonlarin rejalashtirish, byudjetlashtirish va iqtisodiy resurslardan foydalanish jarayonlarini nazorat qilish kabi vazifalarni kiritish mumkin.

Kimyo sanoati tizimida boshqaruv hisobining zaruriyati ushbu tarmoqning yuqori texnologiyalardan foydalanish zarurligi, ishlab chiqarish jarayonlarining o‘ziga xosligi, moddiy resurslar sarfining yuqoriligi xamda ekologik talablar bilan bog‘liq. “Kimyo sanoatidagi texnologik jarayonlar odatda bir nechta bosqichdan iborat bo‘lib, moddalarni tayyorlash, ajratish, tozalash va qayta ishlash kabi jarayonlardan tashkil topadi. Bu jarayonlar uzluksiz tarzda amalga oshirilishi uchun zamonaviy texnologik qurilmalar talab etiladi”[28]. “Kimyo sanoatidagi texnologik jarayonlar ko‘p hollarda katta energiya sarfi bilan kechadi. Masalan, neftni qayta ishlash, gazlarni ajratish va sintetik moddalar ishlab chiqarish jarayonlari yuqori harorat va bosim talab qiladi. Bu esa sanoatning energiya samaradorligi va iqtisodiy xarajatlarini oshiradi”[29]. “Kimyo sanoatidagi asosiy muammo – energiya ko‘p sarfi va chiqindilarning ko‘pligi. Olimning fikricha, sanoatni “Green Process Intensification” orqali qayta shakllantirish zarur. Bu jarayonda energiya tejamkor texnologiyalar, qayta tiklanadigan energiya manbalari va chiqindilarni

[28] Абдихолиқова Г. А. Қ. Кимё саноати корхоналарининг ҳудудий жойланишига таъсир кўрсатувчи иқтисодий-географик омилларни ўрганишнинг илмий-назарий асослари // Иқтисодий география ва минтақавий тадқиқотлар журнали. – 2025. – №1. – Б. 22–30.

[29] Roberts L. Zamonaviy kimyoviy texnologiya jarayonlari va qurilmalari // Ta’lim portali. – 2023. – URL: https://modern-info.com (мурожаат санаси: 05.02.2026).

minimallashtirish asosiy yo‘nalish hisoblanadi”[30]. Boshqaruv hisobi ushbu tarmoqda nafaqat ishlab chiqarish va moliyaviy jarayonlarning samaradorligini ta’minlash vositasi, balki kelajakni bashoratlash orqali korxonani raqobatda ustunligini ta’minlash vositasi xam bo‘lib hisoblanadi. (1-Jadval).

Kimyo sanoati korxonalarining muxim o‘ziga xos jixati mexanizatsiyalashgan texnologik jarayonlardan tashkil topganligidir. Xar bir texnologik jarayonda o‘ziga xos xarajatlar amalga oshiriladi. Bunday sharoitda xar bir jarayonni samarali tashkil etish butun tsiklni samarasini ta’minlaydi. Boshqaruv hisobi xar bir jarayonni samarali tashkil etilishini ta’minlash orqali butun ishlab chiqarishning samaradorligini ta’minlashga sharoit yaratadi.

Kimyo sanoati resurslarni ko‘p iste’mol qiluvchi tarmoqlar sirasiga kiradi va shuning uchun tarmoqda resurslar foydalanish samaradorligiga katta e’tibor qaratiladi. Bu o‘z navbatida boshqaruv hisobini tashkil etish va uning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qiladi.

Ekologik xafsizlik kimyo sanoatining muxim xususiyati bo‘lib, bu tarmoqda turli kimyoviy maxsulotlardan foydalanish bilan bog‘liq. “Zamonaviy tadqiqotlarda kimyo sanoatidagi jarayonlardan chiqadigan gazlar, aerozollar va chang atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlanadi. Shuning uchun olimlar filtrlar, tsiklonlar, nam tozalash qurilmalari va elektrofiltrlardan foydalanishni zarur deb hisoblaydilar”[31]. Boshqaruv hisobi bunday sharoitda eologik xarajatlarni samarali tashkil etish bilan bog‘liq qarorlarni qabul qilishga sharoit yaratishi lozim. Shuningdek kimyo sanoati korxonalarida maxsulot tannarxini aniqlash, uning darajalariga baxo berish muxim bo‘lib, ushbu vazifa boshqaruv hisobi vositasida amalga oshirilishi mumkin. Bu o‘z navbatida maxsulot tannarxini kamaytirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga sharoit yaratadi.

1-Jadval

Kimyo sanoati korxonalarining o‘ziga xos jixatlari[32].

Kimyo sanoati korxonallari ishlab chiqarish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari yo‘nalishlari	Kimyo sanoati korxonallari ishlab chiqarish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari
Texnologik jixatlari	Kimyo sanoati korxonalarining texnologiyalari zamonaviy, innovatsion takomillashgan murakkab va ko‘p bosqichlidir.
Resurslardan foydalanish	Kimyo sanoati korxonalarida xom ashyo va resurslar, energiya ko‘p istemol qilinadi.
Ekologik xafsizlik	Kimyo sanoati korxonalarida kimyoviy reaktsiyalar

[30] Cravotto G. Reshaping Chemical Manufacturing Towards Green Process Intensification: Recent Findings and Perspectives // Processes. – 2025. – Vol. 13, Issue 2. – P. 459. – DOI: 10.3390/pr13020459.

[31] Зуфторов К., Дўнаев Б. Д. Ўзбекистонда кимё саноати ривожланиши тенденциялари ва истиқболлари. – Тошкент: Иқтисодий назария ва амалиёт, 2024. – 70 б.

[32] Муаллиф ишланмаси.

	amalga oshiriladi va ushbu jarayonlar zararli moddalar ishtirokida amalga oshiriladi.
Maxsulot tannarxi shakllanishi	Maxsulot tannarxi ishlab chiqarish bosqichlarida kimyoviy reaktsiyalar bo‘yicha shakllanib boradi va ushbu xarajatlarni umumlashtirish orqali aniqlanadi.
Inson xayoti va xafsizlik	Kimyo sanoati korxonalarida inson xayoti va atrof muxit uchun zararli bo‘lgan kimyoviy reaktsiyalar amalga oshiriladi. Xafsizlik xarajatlari katta salmoqqa ega.
Boshqaruv hisobi taxlili va kelajakni bashoratlash	Tamoqda texnologik rivojlanishning tezligi va raqobatning kuchliligi iqtisodiy resurslardan foydalanishni taxlili xamda kelajakni bashoratlash usullaridan keng foydalanishni talab qiladi.
Zamonaviy axborot vositalaridan foydalanish	Tarmoqda zamonaviy axborot vositalaridan foydalanish axborot almashinuvini tezlashtiradi va strategik qarorlar qabul qilishga sharoit yaratadi.
Tarmoqda iqtisodiy xafsizlikni t’minlashda boshqaruv hisobining o‘rnini ortib borishi	Tarmoqda boshqaruv hisobining o‘rni ortib boradi, iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy axborot tayyorlash tizimlar qo‘llash kuchayib, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar taxlili kabi usullardan foydalanish darajasi ortib boradi.

Muallif ishlanmasi.

Kimyo sanoati korxonalarida xafsizlik masalasi muxim bo‘lib, bu jarayonni to‘g‘ri tashkil etilishi ishlab chiqarishni uzluksizligi va inson xayoti uchun xafsizligini ta’minlashga sharoit yaratadi. Boshqaruv hisobi xafsizlik bilan bog‘liq xarajatlarni optimallashtirish orqali ushbu jarayonlarni samarali tashkil etishga sharoit yaratadi.

Bugungi bozorlarda o‘zgarishlar tez yuz berayotgan bir sharoitda kimyo tarmog‘i korxonalarida iqtisodiy faoliyatni taxlil qilish va istiqbolni belgilash korxonaning raqobatbardoshligi uchun muximdir. Xozirgi davrda kimyo sanoatining dunyo miqyosida tez rivojlanayotganligi kuzatilmoqda va tarmoqqa kiritilayotgan investitsiyalarning miqdorlarining ortib borayotganligi tarmoqda raqobatni kuchayishiga va ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarning sifatini ortishiga va ularning takomillashishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda kimyo sanoti korxonalarida iqtisodiy taxlilni o‘rni ortib, u nafaqat bo‘lib o‘tgan iqtisodiy jarayonlar to‘g‘risida balki kelgusida yuz beradigan jarayonlar va ularga qo‘yiladigan talablar xaqida axborotlar beruvchi tizimga aylandi. Boshqaruv hisobi resurslardan foydalanish jarayonini taxlilini tashkil etadi va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi va shu orqali korxonaning iqtisodiy samarali faoliyatini ta’minlaydi. Boshqaruv hisobida an’anaviy usullarni zamonaviy hisoblash va axborot texnologiyalari bilan integratsiyalash orqali jarayonlarni nazorat qilishni kuchaytiradi. Ushbu texnologiyalar avtomatlashtirilgan boshqaruv

mexanizmlari bo‘lib, ishlab chiqarish va axborot almashinuv jarayonlari samaradorligini ta’minlshga xizmat qiladi.

Kimyo sanoati tez rivojlanayotgan tarmoq bo‘lib, ushbu tarmoq barcha tarmoqlarning barqaror rivojlanishigi sharoit yaratadi. Bugungi kunda xech bir tarmoq kimyo sanoati maxsulotlarisiz yetarli darajada rivojlana olmaydi. “Kimyo sanoatida ammiak, mineral o‘g‘itlar, plastmassa, sintetik tolalar, lak-boyoq materiallari va maishiy kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilishi uning tarmoqlararo ahamiyatini belgilaydi. Bu mahsulotlar iqtisodiyotning turli sohalarida qo‘llanilib, sanoatning innovatsion rivojlanishini ta’minlaydi”[33]. Shuning uchun rivojlangan davlatlarda tarmoqni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda xamda uni rivojlanishi uchun shart sharoitlar yaratmoqda. Bunday natijasida tarmoqqa kiritilayotga investitsiyalar xajmi ortmoqda va ishlab chiqarish sur’atlari tezlashmoqda, maxsulotlarning sifati ortmoqda va ularni texnologik darajasi takomillashmoqda. Bu o‘z navbatida tarmoqda raqobat kurashining kuchayishiga va ishlab chiqarish resrslaridan foydalanish samaradorligini ortishiga olib kelmoqda. Bugungi kundagi tarmoqning rivojlanishidagi bunday tendentsiyalar o‘z navbatida mavjud resurslardan samarali foydalanish va bozor talablariga javob beradigan maxsulotlarni ishlab chiqarishni talab qilmoqda. Bu sharoitda boshqaruv hisobi resurslardan foydalanish samaradorligini ta’minlash maqsadida ishlab chiqarish jarayonlarida resurslarni sarflarini rejalashtirishni amalga oshiradi va shu orqali korxonada resurslardan foydalanish bo‘yicha boshqaruv smaradorligini oshirishga yordam beradi.

Kimyo sanoati korxonalari iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga kimyoviy xom-ashyodan tortib, to tayyor maxsulotlargacha yetkazib beradi. Bugungi kunda kimyo sanoati yuqori innovatsion jarayonlar va ilmiy tadqiqotlar xamda texnologiyalari bilan o‘ziga xosdir. Ishlab chiqarish jarayonlari innovatsion, kamxarajat va yuqori unumli texnologiyalar bilan ajrab turadi. Tarmoq korxonalari ishlab chiqarayotgan maxsulotlarning turlari kundan-kunga yangilanib, takomillashib bormoqda. Tarmoqdagi kuchli raqobat soxa korxonalarida mavjud resurslardan samarali foydalanishda tejamkorlik me’yorlari bajarishini talab qilmoqda. Boshqaruv hisobi bunda sharoitda tejamkorlikni ta’minlash va yuqori unumdorlikka erishish xamda ishlab chiqarish va moliyaviy jarayonlarni samarali tashkil etilishini ta’minlashga yordam beradi. Kimyo sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashda boshqaruv hisobi o‘zining bir qator usullarini qo‘llaydi. Bunday usullarga rejalashtirish va hisobni tashkil etish bilan bog‘liq usullarni kiritish mumkin. (2-jadval).

Iqtisodiy jarayonlar tezlashayotgan bugungi kunda kimyo sanoati bozorlarida o‘zgarishlar tez yuz bermoqda va bu o‘z navbatida tarmoq korxonalarida strategik rivojlanish rejalarini ishlab chiqarishni, istiqbolni belgilashni, xamda shuningdek boshqaruv hisobida korxonaning ichki muxitida iqtisodiy jarayonlar samaradorligini oshirish orqali korxona raqobatbardoshligini oshirishga katta e’tibor qaratishni talab

[33] Kimyo sanoati // *Vikipediya*. – https://uz.wikipedia.org/wiki/Kimyo_sanoati (uz.wikipedia.org in Bing) (мурожаат санаси: 05.02.2026).

qilmoqda. Ko‘rinib turibdiki bugungi kunda kimyo sanoati korxonalarida boshqaruv hisobi barcha iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni ijobiy xal qilishiga yordam beradi. Shuning uchun kimyo sanoati korxonalarida boshqaruv hisobini tashkil etish, uning zamonaviy usllaridan foydalanishni yo‘lga qo‘yish tarmoq korxonalarining raqobatbardoshligini ta’minlashning va barqaror rivojlanishining garovi bo‘lib hisoblanadi.

Keyingi davrlarda kimyo sanoatida rivojlanish sur’atlarining tezlashayotganligi va uning iqtiodiyotda tutgan o‘rnining ortib borayotganligi samaradorlikni ta’minlashning muxim vositalaridan bo‘lgan boshqaruv hiobining tashkil etish darajasiga, unda qo‘llaniladigan usullarning tarkibiga va ularning texnikasiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Shundan kelib chiqqan xolda boshqaruv hisobi rivojlanishining tendentsiyalari shakllanishi kuzatilmoqda va ularni quyidagicha guruxlash mumkin:

Raqamli texnologiyalarni tadbiq qilish yo‘nalishida quyidagi faoliyatlarni tashkil etish nazarda tutiladi: ERP (Enterprise Resource Planning) barcha xo‘jalik jarayonlarini yagona dastur orqali bosharish va Big Data katta xajmli ma’lumotlardan foydalanishni usullaridan bir vaqtda foydalanish; sun’iy intellektdan keng foydalanish, bashoratlash, modellashtirishda senariylar, qarorlar samradorligini va optimalligini oshirish;

Masofaviy hisobotlarni tashkil etishga aoslangan Cloud-texnologiyalaridan foydalanish;

Strategik qarorlar yordamida rivojlanish yo‘nalishida quyidagi faoliyatlar qo‘llab quvvatlanadi: iqtisodi faoliyatni biznes analitika yordmida chuqur taxlilini amalga oshirish, daromad va xarajatlarga ularning tuzilmasi bo‘yicha yondashish; turli sharoitlarga o‘zgaruvchan senariy rejalashtirish orqali moslashish; qiymat zanjirini shakllantirish, qiymat asosida xamkorlik, korxonaning uzoq muddatli qiymatga yo‘naltirilishi.

2-jadval

Boshqaruv hisobining muxim usullari[34].

Boshqaruv hisobining usullari	Usullar mazmuni.
Xarajatlarni aniqlash va ularni hisobga olish usullari	Kimyo sanoati korxonalarida xarajatlar xom-ashyo, turli reagentlar, yoqilg‘i va energiya, texnologik xarajatlar, turli xizmatlar, transport, ishlovchilar mexnat xaqi va boshqa xarajatlar
Tannarxni va rentabellikni hisoblash usullari	Kimyo sanoati korxonalarida ishlab chiqarilgan maxsulotni tannarxi
Iqtisodiy jarayonlarni rejalashtirish va istiqbolni aniqlash	Korxonalarda iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini ta’minlash, raqobatbardoshligini qisqa va uzoq muddatli rejalar orqali ta’minlanadi.

[34] Муаллиф ишланмаси

usullari	
Foydalilikni aniqlash va uni oshirish usullari	Boshqaruv hisobi usullaridan fodalanish barcha iqtisodiy jarayonlarni samarali tashkil etishga sharoit yaratishi orqali foydalilikni oshirishga sharoit yaratadi.
Boshqaruv hisobi tizimlaridan foydalanish	Korxona iqtisodiy faaoliyati samaradorligi boshqaruv hisobining tarkibiy tizimlari to‘laqonli tashkil etish orqali erishiladi.
Boshqaruv hisobi va axborotlari tizimlari birlashuvi	Kimyo sanoati korxonalarida boshqaruv hisobi ma’lumotlari zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida tayyorlash axborotlarni tez, to‘liq va tayyorlashga va qayta ishlashga sharoit yaratadi.ni qo‘llash orqali
Axborot manbalari va qayta ishlash tizimlari	Korxonalar axborot manbalari iqtisodiy faoliyat xaqidagi axborotlar bilan, qata ishlash tizilari baxolashga xamda istiqbol bilan bog‘liq kutilishlarni aniqlashga sharoit yaratadi.
Boshqaruv hisobining zamonaviy usullari va tajribalar	Dunyoning turli regionlaridagi rivojlangan davlatlarda boshqaruv hisobining ilg‘or tizimlar muvafaqiyatli qo‘llanilmoqda. Bu usullardan foydalanish tarmoqda samaradorlikni oshirishga sharoit yaratadi.

Muallif ishlanmasi.

ESG — tizimi bo‘yicha: ESG — tizimi-bu “Environmental, Social, Governance” (Ekologik, Ijtimoiy va Korporativ boshqaruv) korxonani ESG tizimidagi reytingi uni barqarorligini bildiruvchi tizimdir. Ushbu ko‘rsatkichda erishilgan ijobiy natijalar korxonaning jamiyat va tabiatdan foydalanish oldidaga masuliyatini xamda korporativ munosabatlarni shakllanganligini bildiradi. Ushbu tizimni qo‘llashda resurslar sarflariga katta e’tibor qaratiladi, ekologik va qayta tiklanadigan energiyadan foydalanishni qo‘llab quvvatlanadi; ijtimoiy shart-sharoitlar bo‘yicha: mexnat muxitlari, ijtimoiy tenglik, korporativ mas’uliyat; korporativ boshqaruv tamoyillari bo‘yicha: kompaniyada shaffoflikni qo‘llash, aktsiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlarni manfaatdorlarni ta’minlash.

Xalqaro andozalarni qo‘llab quvvatlash yo‘nalishida: buxgalteriya hisobi milliy standartlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga birlashuvini ta’minlash; yirik korxonalar uchun turli mamlakatlardagi filiallari uchun yagona hisob platformasini yaratish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki mamlakatimizda olib borilayotgan isloxotlar iqtisodiyotni raqamlashtirishga, investitsiyalrga sharoit yaratish va ularning oqimini oshirishga xamda davlat va xususiy sektorlarning sherikligini shakllantirishga qaratilmoqda. Bunday sharoitda kimyo sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish, iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash va barqaror rivojlanish masalalariga ustuvor axamiyat berilmoqda. Boshqaruv hisobi iqtisodiy

samaradorlikni ta’minlash vositasi sifatida uning tarmoqda tutgan o‘rni oshmoqda, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, strategik taxlil orqali boshqaruv tizimining axborotlar bilan ta’minlash funktsiyasi sifatidagi iqtisodiy faoliyatlarni samarali boshqarish jarayonida faol ishtirok etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abdixoliqova G. A. Q. Kimyo sanoati korxonalarining hududiy joylanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy-geografik omillarni o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari // Iqtisodiy geografiya va mintaqaviy tadqiqotlar jurnali. – 2025. – №1. – B. 22–30.
2. Zuftorov K., Do‘naev B. D. O‘zbekistonda kimyo sanoati rivojlanishi tendentsiyalari va istiqbollari // *Iqtisodiy nazariya va amaliyot*. – Toshkent: 2024. – 70 b.
3. Roberts L. Zamonaviy kimyoviy texnologiya jarayonlari va qurilmalari // Ta’lim portali. – 2023. – URL: https://modern-info.com (murojaat sanasi: 05.02.2026).
4. Cravotto G. Reshaping Chemical Manufacturing Towards Green Process Intensification: Recent Findings and Perspectives // Processes. – 2025. – Vol. 13, Issue 2. – P. 459. – DOI: 10.3390/pr13020459.
5. Kimyo sanoati // *Vikipediya*. – https://uz.wikipedia.org/wiki/Kimyo_sanoati (uz.wikipedia.org in Bing) (murojaat sanasi: 05.02.2026).

Получение прозрачной и структурированной информации путем применения МСФО

Сативалдиева Доно Абдурахмановна
доцент кафедры “Бухгалтерский учет” ТГЭУ

Создание благоприятных условий для иностранных инвесторов в освоении и реализации инвестиций и формировании инвестиционных ресурсов является одним из важным вопросом. Это, в свою очередь, повышает спрос инвесторов и кредиторов на информацию об организации, являющейся потенциальным объектом инвестирования.

В мировой практике инвесторы доверяют информациям корпоративной отчетности, подготовленной в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности, поскольку эти стандарты помогают составлять финансовую отчетность, объективно отражающую финансовое состояние хозяйствующего субъекта и результаты его деятельности.

Поэтому привлечение иностранных инвестиций, а также выход на международные рынки капитала в свою очередь требуют от субъектов хозяйствования РУз. формирования отчетной информации в соответствие с

Международными стандартами финансовой отчетности (МСФО). Ведь на сегодняшний день именно МСФО признаны во всем мире как эффективный инструмент для предоставления прозрачной и объективной информации о деятельности предприятия.

Применение МСФО обеспечивает прозрачность и структурированность финансовой информации через единые международные стандарты, принципы начисления и справедливой стоимости. Это повышает сопоставимость, надежность данных для инвесторов и упрощает понимание отчетности в разных странах, регулируя учет активов, обязательств и капитала.

Ключевыми аспектами прозрачности и структуры в МСФО являются:

- Принцип начисления: доходы и расходы отражаются по мере возникновения, а не по факту оплаты, что точнее отражает реальное финансовое положение.
- Справедливая стоимость: активы и обязательства часто оцениваются по их текущей рыночной стоимости, а не исторической цене.
- Унификация: единые правила для бизнеса во всем мире повышают доверие иностранных партнеров и инвесторов.
- Структурированность: стандарты (например, МСФО (IAS) 1) устанавливают жесткие требования к составу и содержанию отчетности.
- Раскрытие информации: высокая детализация в примечаниях к отчетности позволяет глубже понять методы оценки и состав активов

Шаги по переходу хозяйствующих субъектов Республики Узбекистан международной практике составления отчетности были приняты с принятием Постановления Президента Республики Узбекистан № ПП-4611 от 24 февраля 2020 г. «О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности». Целью Постановления была обеспечения более широкого внедрения МСФО в систему ведения бухгалтерского учета акционерных обществ, коммерческих банков, страховых организаций и юридических лиц, отнесенных к крупным налогоплательщикам для того, чтобы обеспечить иностранным инвесторам прозрачную информационную среду и расширить доступ их к международным рынкам.

На сегодняшний день планируется подключить средний бизнес и другие предприятия к МСФО. Предстоит определить, кто будет обязан применять МСФО, а кто останется в зоне действия НСБУ.

В настоящее время разрабатывается единый Национальный стандарт финансовой отчетности на основе МСФО (IFRS) для субъектов среднего и малого бизнеса. При этом ответственным органом по внедрению МСФО является Министерство финансов Республики Узбекистан, которому

возложены обязанности по принятию следующих мер:

- совместно с ГНК, Агентством по развитию рынка и Агентством по управлению государственными активами наблюдать, контролировать и анализировать процесс внедрения МСФО;

- организовывать и содействовать в организации образовательных курсов по повышению квалификации в области аудита и бухгалтерского учета;

- взаимодействовать с Фондом МСФО (IFRS) для перевода текстов стандартов и разъяснений к ним на узбекский язык.

Существует два основных пути перехода на МСФО (IFRS).

Классическое проектное внедрение оптимально подойдет для крупных компаний, давно существующих на рынке, в которых нужно продумывать и разрабатывать методологию, создать учетную политику, адаптировать ее под стандарты МСФО (IFRS), требования к ним со стороны законодательства, приравнять к возможностям программного продукта.

Это путь, занимающий определенное время, состоящий из этапов:

- экспресс-аудит;

-моделирование и проектирование;

-разработка, включая тестирование и приемо-сдаточные испытания;

-настройка и отладка процессов в системе;

-подготовка к опытно-промышленной эксплуатации;

-эксплуатация, обучение пользователей, доработка и поддержка системы.

Средний и малый бизнес в ближайшие годы также начнет вести отчетность по МСФО (IFRS), и для него отработан другой подход – консультационное внедрение. Оно позволяет за несколько месяцев внедрить основные моменты, связанные с требованиями законодательства и МСФО (IFRS). В рамках консультационного внедрения будет производится следующая работа:

-регулярные консультации по несколько часов;

-статус-встречи по итогам работы за неделю;

-анализ и оформление проведенных встреч;

-анализ документации, предоставленной заказчиком.

Метод подразумевает переход по разработанному в начале внедрения плану и жесткое структурирование времени на подготовку домашних заданий. Это инновационный подход приводит к положительному внедрению МСФО в средний и малый бизнес в определенные сроки и с ожидаемым результатом.

Механизмы могут быть реализованы в форме трансформации или ведения параллельного учета. Оба варианта разработаны и могут быть применены в типовом варианте программного продукта. Выбор механизма

происходит по согласованию с заказчиком на основании наибольшей уместности в конкретном проекте внедрения.

Основные преимущества перехода на МСФО для среднего и малого бизнеса следующие:

- Привлечение инвестиций: отчетность по МСФО повышает доверие зарубежных инвесторов и банков, открывая доступ к более дешевым кредитам.
- Выход на международные рынки: единые стандарты позволяют узбекским компаниям прозрачно вести бизнес с иностранными партнерами и размещать акции/облигации на международных биржах.
- Качество управления: МСФО предоставляет точную, достоверную и сопоставимую информацию для принятия эффективных управленческих решений.
- Повышение репутации: применение международных стандартов улучшает имидж компании, делая её более надежной и профессиональной.
- Автоматизация и учет: позволяет эффективно учитывать финансовые инструменты, отложенные налоги и вести консолидацию для крупных холдингов.

В качестве вывода можно сказать, что введение бухгалтерского учета и составление финансовой отчетности в соответствии с МСФО повышает имидж не только крупных компании, но и среднего и малого бизнеса Узбекистана, способствует выхода их на мировые рынки капитала, а также более оперативно принимать управленческие решения руководством, так как они дают более прозрачную и структурированную информацию.

Еще хотим добавить, что применение МСФО в Узбекистане повышает прозрачность отчетности, привлекая иностранных инвесторов и снижая стоимость заимствований. Это обеспечивает понятность финансовой информации зарубежным партнерам, упрощает выход на международные рынки, улучшает корпоративное управление и повышает конкурентоспособность компаний.

Использованная литература

1. Постановление Президента Республики Узбекистан от 24 февраля 2020 года № ПП-4611 «О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности».

2. МСФО (IAS) 1 «Представление финансовой отчетности»

https://finacademy.net/materials/standartu-msfo/msfo-ias-1/

3. Козимжонов А., Сативалдиева Д.А. Сборник задач по международным стандартам финансовой отчетности. Учебное пособие. Т.: «DIADEMA NUR SERVIS» ООО, 2025. – 204 с.

4. Sotivaldiyeva D.A., Tashmanov G.D. Accounting. Text-book. – T.: OOO “DIADEMA NUR SERVIS”, 2025. 308 pg.

5. Эргашева Ш.Т. Международные стандарты финансовой отчётности. Учебник. –Т.: Iqtisodiyot, 2021. С.305. (Эта книга доступна в печатной и PDF-версии ИРЦ в университете).

MAHSULOT TANNARXINI KALKULYATSIYA QILISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

PhD, Suyunov Jaloliddin O‘ktam o‘g‘li
TDIU, “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
email:suyunov02021992@gmail.com

Habibullayeva Mavluda Marufxon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Buxgalteriya hisobi yo‘nalishi 1-kurs magistranti.

Annotatsiya: Ushbu tezisda mahsulot tannarxini kalkulatsiya qilish usullari keng yoritilib shu bilan birgalikda mahsulot tannarxi kalkulatsiya qilishning nazariy hamda amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan**.** Buxgalteriya hisobi tizimida mahsulot tannarxini aniqlashning muhim ahamiyati asoslab beriladi. Amaliy faoliyatda mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi..

Kalit so‘zlari: mahsulot tannarxi, kalkulyatsiya, xarajatlar, buxgalteriya hisobi, ishlab chiqarish, moliyaviy natija.

Аннотация: Производится углублённый анализ теоретических и практических аспектов калькулирования себестоимости продукции, широко раскрываются понятие себестоимости, её составные элементы и методы калькуляции. Обосновывается важное значение определения себестоимости продукции в системе бухгалтерского учета. Выявляются существующие

проблемы практической деятельности и разрабатываются научно-практические предложения и рекомендации, направленные на их устранение.

Ключевые слова: себестоимость, калькуляция, затраты, бухгалтерский учет, производство, финансовый результат.

Abstract: An in-depth analysis of the theoretical and practical aspects of product cost calculation is conducted, and the concept of cost, its structural components, and calculation methods are thoroughly described. The significance of determining product cost within the accounting system is substantiated. Existing practical problems are identified, and scientific and practical proposals and recommendations aimed at addressing these issues are developed..

Keywords: product cost, cost calculation, expenses, accounting, production, financial result.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlashda mahsulot tannarxini to‘g‘ri aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya qilish va diversifikatsiya jarayonlari xo‘jalik yurituvchi subyektlar oldiga xarajatlarni oqilona boshqarish hamda tannarxni pasaytirish vazifalarini qo‘ymoqda. Shu jihatdan, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Iqtisodiyotning rivojlanish darajasi ishlab chiqarish samaradorligi, resurslardan foydalanish holati hamda moliyaviy natijalarning shakllanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Iqtisodiy taraqqiyot jarayonida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining barqarorligi, raqobatbardoshligi va foydaliligi mahsulot tannarxining to‘g‘ri aniqlanishiga katta darajada bog‘liq bo‘ladi. Tannarx ko‘rsatkichi ishlab chiqarish jarayonida sarflangan moddiy, mehnat va moliyaviy

resurslarning pul ifodasini aks ettirib, korxonaning moliyaviy holatini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish masalalari yanada dolzarb tus olmoqda. Raqobat muhitining kuchayishi, resurslar narxining oshib borishi hamda ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashuvi korxonalardan tannarxni aniq hisoblash va uni pasaytirish yo‘llarini izlashni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Buxgalteriya hisobi tizimida mahsulot tannarxini aniqlash korxonaning daromad va xarajatlarini to‘g‘ri shakllantirish, moliyaviy natijalarni ishonchli aks ettirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur axborot manbai hisoblanadi. Tannarxni noto‘g‘ri aniqlash foyda miqdorining buzilishiga, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi pasayishiga olib kelishi mumkin. Amaliyotda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning turli usullari qo‘llaniladi. Jumladan, buyurtma usuli alohida buyurtmalar asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun, jarayonli usul ommaviy va uzluksiz ishlab chiqarish tarmoqlarida, normativ usul esa belgilangan me’yorlar asosida xarajatlarni hisoblashda keng qo‘llaniladi. Ushbu usullarning to‘g‘ri tanlanishi va qo‘llanilishi mahsulot tannarxining aniqligini ta’minlaydi.

Shu bois, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish jarayoni orqali xarajatlarni rejalashtirish, nazorat qilish va tahlil etish imkoniyati yaratiladi. Ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarni to‘g‘ri guruhlash, kalkulyatsiya usullarini ishlab chiqarish xususiyatiga mos tanlash va amaliyotga joriy etish muhim hisoblanadi. Shu sababli, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish masalalarini

ilmiy jihatdan o‘rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Xulosa

Xulosalarim asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish jarayonida barcha ishlab chiqarish xarajatlarini to‘liq va aniq hisobga olishni ta’minlash zarur. Xarajatlarning noto‘g‘ri tasniflanishi yoki ayrim xarajat turlarining hisobdan chetda qolishi mahsulot tannarxining noto‘g‘ri aniqlanishiga olib keladi. Shu sababli, korxonalarda buxgalteriya hisobining amaldagi me’yorlariga qat’iy rioya qilish va xarajatlarni hisobga olish tartibini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish xususiyatlarini inobatga olgan holda, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usullarini to‘g‘ri tanlash zarur. Buyurtma asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun buyurtma usuli, ommaviy va uzluksiz ishlab chiqarishda jarayonli usul, shuningdek, belgilangan me’yorlar asosida normativ usul qo‘llanilishi tannarxni aniqlashda aniqlik va ishonchlilikni ta’minlaydi.

Uchinchidan, mahsulot tannarxini pasaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida resurslardan oqilona foydalanish, ortiqcha xarajatlarni bartaraf etish va ichki nazorat tizimini kuchaytirish lozim. Xususan, mehnat, xomashyo va energiya resurslaridan samarali foydalanish tannarxni kamaytirishga va korxonaning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, mahsulot tannarxini hisoblash va xarajatlarni boshqarish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish tavsiya etiladi. Buxgalteriya hisobi jarayonlarini avtomatlashtirish hisob-kitoblarning aniqligini oshiradi, axborotlarni tezkor tahlil qilish imkonini beradi va boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilaydi.

Beshinchidan, korxonalarda mahsulot tannarxini kuzatish va tahlil qilish tizimini doimiy takomillashtirish, muammolarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha

ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarur. Bu nafaqat korxona moliyaviy barqarorligini oshiradi, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlashga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I. Mahsulot tannarxini hisoblash va kalkulyatsiya qilish usullari. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019.
2. Muminov F., Tursunov J. Korxona moliyaviy natijalarini aniqlash va tannarxni hisoblash. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.
3. Gapparov Sh. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobdorlik. Toshkent: Fan, 2016.
4. Petrov A.N. Uчет затрат и калькуляция себестоимости продукции. Москва: Финансы и статистика, 2015.
5. World Bank. Cost Accounting and Financial Management in Enterprises. Washington D.C., 2017.

6. BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISH MASALALALARI

7.

8. PhD, Suyunov Jaloliddin O‘ktam o‘g‘li

9. TDIU, “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

10. email:suyunov02021992@gmail.com

11. O‘ktamov Nozimbek Nozir o‘g‘li

12. TDIU 2-bosqich magistranti

13. gmail:nozimbekoktamov567gmail.com

14.

15. ANNOTATSIYA

16. Mazkur tezisda budjet tashkilotlarida xarajatlar hisobini yuritishning nazariy va amaliy jihatlari, ularning iqtisodiy tasnif asosida guruhlanishi hamda davlat budjeti mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishni ta’minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010-yil 20-avgustdagi 65-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Budjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma” asosida xarajatlarning iqtisodiy tasnifi tahlil qilinib, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, tovar va xizmatlar bo‘yicha xarajatlar, asosiy vositalar, subsidiyalar, grantlar, ijtimoiy nafaqalar hamda moliyaviy aktivlar va majburiyatlar bo‘yicha xarajatlarning mazmuni ochib berilgan. Maqolada budjet xarajatlari hisobini to‘g‘ri tashkil etish moliyaviy intizomni mustahkamlash, budjet ijrosining shaffofligini ta’minlash va davlat moliyasini samarali

boshqarishdagi roli asoslab berilgan.

17. **Kalit so‘zlar:** budjet tashkilotlari, budjet xarajatlari, iqtisodiy tasnif, moliyaviy aktivlar, majburiyatlar, subsidiyalar, grantlar, ijtimoiy nafaqalar.
18.

19. ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЁТА РАСХОДОВ В БЮДЖЕТНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

20. PhD, Суюнов Джалолиддин
21. ТГЭУ, кафедра “Бухгалтерский учёт”
старший преподаватель
22. Уктамов Нозимбек
23. ТГЭУ, магистрант 2 курса

24.

25. АННОТАЦИЯ

26. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты учета расходов в бюджетных организациях, их классификация по экономической классификации, а также значение целевого и эффективного использования средств государственного бюджета. В исследовании на основе Инструкции по применению бюджетной классификации, утвержденной приказом Министерства финансов Республики Узбекистан №65 от 20 августа 2010 года, проведен анализ экономической классификации расходов, раскрыто содержание расходов на оплату труда, товаров и услуг, основных средств, субсидий, грантов, социальных пособий, а также расходов по финансовым активам и обязательствам. Обоснована роль правильной организации учета бюджетных расходов в укреплении финансовой дисциплины, обеспечении прозрачности исполнения бюджета и повышении эффективности управления государственными финансами.

27. **Ключевые слова:** бюджетные организации, бюджетные расходы, экономическая классификация, финансовые активы, обязательства, субсидии, гранты, социальные пособия.

28.

29. ISSUES OF ORGANIZING EXPENDITURE ACCOUNTING IN BUDGETARY ORGANIZATIONS

30.

31. PhD, Suyunov Jaloliddin
32. TSUE, “Department of Accounting” senior teacher
33. O‘ktamov Nozimbek
34. TSUE, 2nd-year master’s student

35.

36. ANNOTATION

37. This article examines the theoretical and practical aspects of expenditure accounting in budgetary organizations, their classification based on economic classification, and the importance of ensuring targeted and efficient use of state budget funds. The study analyzes the economic classification of

expenditures in accordance with the Instruction on the Application of Budget Classification approved by Order No.65 of the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan dated August 20, 2010. The content of expenditures on wages and equivalent payments, goods and services, fixed assets, subsidies, grants, social benefits, as well as expenditures related to financial assets and liabilities is disclosed. The article substantiates the role of proper organization of budget expenditure accounting in strengthening financial discipline, ensuring transparency of budget execution, and improving the efficiency of public finance management.

38. **Keywords:** budgetary organizations, budget expenditures, economic classification, financial assets, liabilities, subsidies, grants, social benefits.

39. Kirish.

40. Budjet tashkilotlarida xarajatlar hisobi davlat budjeti mablag‘laridan maqsadli, samarali va oqilona foydalanishni ta’minlovchi muhim moliyaviy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Xarajatlar hisobining to‘g‘ri tashkil etilishi budjet intizomini mustahkamlash, moliyaviy resurslar harakati ustidan nazoratni kuchaytirish hamda budjet ijrosining shaffofligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasida budjet tashkilotlari xarajatlarining tarkibi va hisobini yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010-yil 20-avgustdagi 65-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Budjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma” (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010-yil 11-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2146) asosida belgilangan bo‘lib, mazkur hujjat xarajatlarni funksional, iqtisodiy va idoraviy tasniflar bo‘yicha guruhlash imkonini beradi.

41. Ushbu tasniflash tizimi budjet mablag‘larining har bir yo‘nalish bo‘yicha maqsadli sarflanishini ta’minlash, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirish hamda davlat moliyasini boshqarish samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xarajatlar hisobini amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida yuritish budjet tashkilotlarida moliyaviy intizomni ta’minlash va moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirishning muhim sharti hisoblanadi.

42. **Asosiy qism.**

43. Iqtisodiy tasnif budjet tizimi budjetlari xarajatlarini xo‘jalik belgilariga, ishlab chiqarish elementlariga ko‘ra farqlashni nazarda tutadi, davlat boshqaruvida amalga oshirilayotgan xarajatlarning iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib budjet xarajatlari yo‘nalishlarini belgilab beradi. Iqtisodiy tasnifning tuzilmasi quyidagi (1-jadval) ko‘rinishda bo‘ladi:

44.1-jadval

45. Iqtisodiy tasnif tuzilmasi

Toifa	Modda va kichik modda	Element
xx	xx	xxx

46. Iqtisodiy tasnif toifalar, moddalar va kichik moddalar kodlarini o‘z ichiga olgan 7 raqamdan iborat:
47. *toifa — 2 ta raqam;*
48. *modda — 1 ta raqam;*
49. *kichik modda — 1 ta raqam;*
50. *element — 3 ta raqam.*
51. Budjet tashkilotlarida xarajatlar tarkibida **41 00 000 “Ishchilar mehnatiga haq to‘lash”** toifasi markaziy o‘rin tutadi. Ushbu toifa mehnat qonunchiligiga muvofiq, xodimlarning bajargan yoki bajarilayotgan ishiga pul yoki natura shaklida beriladigan barcha mukofot va rag‘batlantirish xarajatlarini qamrab oladi. Mazkur toifa doirasida **41 10 000 “Ish haqi”** va **41 20 000 “Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar”** moddalari hisobga olinadi.
52. **41 10 000 “Ish haqi”** moddasi xodimlarga davlat xizmatchilari sifatida to‘lanadigan barcha to‘lovlarni o‘z ichiga oladi va uning tarkibida **41 11 000 “Pul shaklidagi ish haqi”** kichik moddasiga ajratilgan bo‘lib, bu element asosiy ish haqi, ish haqiga ustama va qo‘shimcha to‘lovlarni qamrab oladi. **41 11 100 “Asosiy ish haqi”** elementi mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy bitimlar asosida hisoblanadigan lavozim maoshlari, tarif stavkalari, soatbay haq to‘lash, mukofotlar, yillik ta’til va kompensatsiyalar, kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish davri uchun to‘lovlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, uzoq xizmat muddati, maxsus sharoitlar, ilmiy daraja va lavozimga bog‘liq ustamalar ham hisobga olinadi (**41 11 200 “Ish haqiga ustama va qo‘shimcha to‘lovlar”**, **41 11 210**, **41 11 220**). Ushbu elementlar umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarining o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini rag‘batlantirish va tibbiyot tashkilotlari xodimlariga qo‘shimcha to‘lovlarni o‘z ichiga oladi.
53. **41 20 000 “Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar”** moddasi xodimlarni ijtimoiy nafaqalar, jumladan pensiya va boshqa xarajatlarni ta’minlash maqsadida, qonunchilikka muvofiq davlat boshqaruvi sektori tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlarni o‘z ichiga oladi. Shu jumladan, **41 21 000 “Ijtimoiy ehtiyojlarga haqiqatda qilinadigan ajratmalar/badallar”** kichik moddasiga
41 21 100 “Ijtimoiy soliq” va **41 21 200 “Ijtimoiy ehtiyojlarga boshqa ajratmalar/badallar”** elementlari kiradi. Bundan tashqari, **41 22 000 “Shartli hisoblanadigan ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar”** kichik moddasida ham ijtimoiy xarajatlar hisoblanadi.
54. Budjet tashkilotlarida xarajatlar tarkibida **42 00 000 “Tovar va xizmatlar bo‘yicha xarajatlar”** toifasi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan tovarlar, xizmatlar va resurslarni o‘z ichiga oladi. Ushbu toifa quyidagi moddalardan tashkil topadi: **42 10 000 “Xizmat safarlari xarajatlari”**, **42 20 000 “Kommunal xizmatlari”**, **42 30 000 “Saqlab turish va joriy ta’mirlash”**, **42 40 000 “Ijara bo‘yicha xarajatlar”**, **42 50 000 “Moddiy aylanma vositalar zaxiralariga xarajatlar”**, va **42 90 000 “Tovar va xizmatlar sotib olish uchun boshqa xarajatlar”**.

55. **42 10 000 “Xizmat safarlari xarajatlari”** moddasi respublika hududidagi (**42 11 000**) va chet davlatlarga chiqish bilan bog‘liq (**42 12 000**) safar xarajatlarini qamrab oladi. **42 20 000 “Kommunal xizmatlari”** moddasiga esa elektroenergiya (**42 21 000**), tabiiy gaz (**42 22 000**), issiq suv va issiqlik energiyasi (**42 23 000**), sovuq suv va oqova (**42 24 000**) hamda chiqindilarni tozalash va energetik resurslar (**42 25 000**) xarajatlari kiradi. Shu tariqa, budjet tashkilotlarida xarajatlar hisobi xarajatlarning mazmuni va yo‘nalishini aniq tasniflash orqali moliyaviy nazoratni kuchaytirish va mablag‘lardan samarali foydalanishni ta’minlaydi.
56. Budjet tashkilotlarida xarajatlar tizimi bir qator asosiy toifalarga bo‘linadi. **42 00 000 “Tovar va xizmatlar bo‘yicha xarajatlar”** toifasi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan resurslarni o‘z ichiga oladi. Shu toifa doirasida **42 30 000 “Saqlab turish va joriy ta’mirlash”** moddasiga binolar, inshootlar, mashinalar, jihozlar va texnikaga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni joriy ta’mirlash xarajatlari kiradi. Kichik moddalari quyidagilardan iborat: **42 31 000 “Yer”**, **42 32 000 “Bino”**, **42 33 000 “Inshoot”**, **42 34 000 “Mashinalar, jihozlar va texnika”**, shuningdek, **42 39 000 “Saqlab turish va joriy ta’mirlash bo‘yicha boshqa xarajatlar”**.
57. **42 40 000 “Ijara bo‘yicha xarajatlar”** moddasiga budjet tashkilotlari ijara shartnomasi asosida mol-mulk, jumladan yer, bino, inshoot, transport vositalari va boshqa aktivlarni ijaraga olish xarajatlari kiradi. Kichik moddalari: **42 41 000 “Yer”**, **42 42 000 “Bino”**, **42 43 000 “Inshoot”**, **42 44 000 “Mashinalar, jihozlar va texnika”**, shuningdek, **42 49 000 “Ijara bo‘yicha boshqa xarajatlar”**.
58. **42 50 000 “Moddiy aylanma vositalar zaxiralariga xarajatlar”** moddasi strategik va boshqa moddiy aylanma vositalarni sotib olish va foydalanish xarajatlarini o‘z ichiga oladi. Strategik zaxiralar **42 51 000**, boshqa moddiy aylanma vositalar esa **42 52 000** kichik moddalarga bo‘linadi. **42 52 000** kichik moddasida tovar-moddiy zaxiralar, kiyim-kechak va poyabzal, oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar, yonilg‘i va YOMM hamda ko‘mir xarajatlari aks ettiriladi.
59. **42 90 000 “Tovar va xizmatlar sotib olish uchun boshqa xarajatlar”** moddasida 42 91 000—42 93 000 kichik moddalarda ko‘rsatilmagan xarajatlar, jumladan o‘qitish, telefon va telekommunikatsiya xizmatlari, obyektlarni qo‘riqlash va boshqa tovar hamda xizmat xarajatlari mavjud.
60. **43 00 000 “Asosiy vositalar bo‘yicha xarajatlar”** toifasiga asosiy vositalarni loyihalashtirish (**43 10 000**), qurish va rekonstruksiya qilish (**43 20 000**), kapital ta’mirlash (**43 30 000**), o‘rta ta’mirlash (**43 40 000**), sotib olish (**43 50 000**) va boshqa xarajatlar (**43 90 000**) kiradi. Har bir modda o‘z navbatida kichik moddalarga bo‘linadi, masalan, binolar, inshootlar, transport vositalari, mashinalar, jihozlar va texnika, shuningdek, mebel, ofis va kompyuter jihozlari.
61. **44 00 000 “Foizlar”** toifasi ichki va tashqi manbalardan olingan kredit va qarzlar bo‘yicha foizlarni o‘z ichiga oladi. Moddalar: **44 10 000**

“Norezidentlarga”, **44 20 000 “Rezidentlarga, davlat boshqaruv sektori bundan mustasno”**, **44 30 000 “Boshqa davlat boshqaruvi sektori birliklariga”**. Har bir modda o‘z navbatida kichik moddalarga bo‘linadi, masalan xorijiy davlatlar, tijorat banklari, obligatsiyalar va g‘aznachilik veksellari bo‘yicha foizlar.

62. **45 00 000 “Subsidiyalar”** toifasi davlat va munitsipial tashkilotlarning zararlarini qoplash xarajatlarini o‘z ichiga oladi. Bu xarajatlar joriy transfert xarajatlari bo‘lib, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish yoki tovarlar va xizmatlarni sotish jarayonida korxonalarga beriladi.
63. Davlat budjeti xarajatlari tarkibida **45 00 000 “Subsidiyalar”** toifasi muhim o‘rin egallaydi. Subsidiyalar dastlab oluvchi subyektning institutsional maqomiga qarab tasniflanadi, ya’ni davlat tashkilotlariga (45 10 000), xususiy tashkilotlarga (45 20 000), nodavlat notijorat tashkilotlariga (45 30 000) hamda jismoniy shaxslarga (45 40 000) taqdim etiladi. Ushbu tasniflash budjet mablag‘larining yo‘naltirilishini aniqlashtirish va ularning maqsadli sarflanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Natijada subsidiyalar moliyaviy va nomoliyaviy tashkilotlar kesimida farqlanib, iqtisodiyotni tartibga solish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.
64. **46 00 000 “Grantlar”** toifasi bir davlat birligidan boshqasiga, shuningdek xorijiy davlatlar hukumatlari va xalqaro tashkilotlarga beriladigan majburiy bo‘lmagan joriy yoki kapital transfertlarni ifodalaydi. Grantlar avvalo grant oluvchining turiga, ya’ni xorijiy davlatlar hukumatlariga (46 10 000), xalqaro tashkilotlarga (46 20 000) va davlat boshqaruvi sektorining boshqa birliklariga (46 40 000) berilishiga qarab tasniflanadi. Mazkur grantlar joriy va kapital xarakterga ega bo‘lishi mumkin bo‘lib, ularning iqtisodiy mazmuni davlatlararo va budjetlararo moliyaviy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.
65. Joriy grantlar oluvchining kundalik faoliyati bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi va aktivlar sotib olish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmaydi. Kapital grantlar esa asosiy vositalarni sotib olish, kapital ta’mirlash, aktivlarni beg‘araz topshirish yoki majburiyatlarni bekor qilish bilan bog‘liq bo‘lgan transfertlarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli, kapital grantlar uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi xarajatlar sifatida qaraladi.
66. Davlat boshqaruvi sektorining boshqa birliklariga beriladigan grantlar **46 40 000** modda orqali aks ettirilib, joriy (46 41 000) va kapital (46 42 000) grantlarga bo‘linadi. Joriy grantlar doirasida dotatsiyalar, subvensiyalar va o‘tkazib beriladigan mablag‘lar ajratiladi. Dotatsiyalar quyi budjetlarning daromadlari yetishmagan hollarda ularning xarajatlarini qoplash uchun berilsa, subvensiyalar aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, maqsadsiz sarflanganda qaytarib olinadi. O‘tkazib beriladigan mablag‘lar esa hududlarda shakllangan daromadlarning bir qismini tegishli budjetlarga qayta taqsimlash mexanizmini ifodalaydi.
67. Kapital grantlar **46 42 000** kichik moddasi orqali aks ettirilib, asosan kapital

xarajatlarni qoplash uchun subvensiyalar hamda davlat doirasidagi boshqa kapital transfertlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu xarajatlar asosiy vositalarni yaratish va modernizatsiya qilish orqali hududlar va tashkilotlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

68. Budjet xarajatlarining muhim yo‘nalishlaridan biri **47 00 000 “Ijtimoiy nafaqalar”** toifasi bo‘lib, u davlat pensiya ta’minoti va ijtimoiy hamda tibbiy sug‘urta doirasidagi to‘lovlarni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy nafaqalar joriy transfertlar hisoblanib, aholini ijtimoiy xavflardan himoyalashga qaratilgan. Ular ijtimoiy ta’minot bo‘yicha nafaqalar (47 10 000), ijtimoiy yordam nafaqalari (47 20 000) hamda ish beruvchilar tomonidan beriladigan ijtimoiy nafaqalar (47 30 000)ga bo‘linadi.
69. **48 00 000 “Boshqa xarajatlar”** toifasi avvalgi toifalarga kiritilmagan xarajatlarni qamrab olib, mulk bilan bog‘liq xarajatlar (48 10 000) hamda boshqa turli xarajatlar (48 20 000)dan iborat. Ushbu xarajatlar joriy va kapital xarakterga ega bo‘lib, davlat faoliyatining turli yo‘nalishlarini moliyaviy jihatdan ta’minlashga xizmat qiladi.
70. Moliyaviy operatsiyalar bilan bog‘liq xarajatlar **49 00 000 “Moliyaviy aktivlar va majburiyatlar bo‘yicha xarajatlar”** toifasida aks ettiriladi. Bu toifaga depozitlar, qimmatli qog‘ozlar, kredit va qarzlar hamda kapitalda ishtirok etish shakllarini moliyalashtirish xarajatlari kiradi. Mazkur xarajatlar davlatning moliyaviy aktivlarini boshqarish, hududlar va tashkilotlarni kreditlash orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.
71. Budjet xarajatlari tarkibida moliyaviy aktivlarga investitsiya qilish shakllaridan biri **49 11 400 “Aksiya va kapitalda ishtirok etishning boshqa shakllari”** elementi orqali aks ettiriladi. Ushbu element korporatsiya tugatilganda yoki uning faoliyati yakunlanganda barcha kreditorlarning talablari qondirilgandan so‘ng qoladigan qoldiq qiymatga bo‘lgan talabni tasdiqlovchi instrumentlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur moliyaviy aktivlar davlatning xo‘jalik yurituvchi subyektlar kapitalida ishtirok etishini va ularning moliyaviy natijalariga bog‘liq manfaatlarini ifodalaydi.
72. Moliyaviy aktivlarning tashqi yo‘nalishi **49 12 000 “Tashqi”** kichik moddasida jamlangan bo‘lib, u xorijiy subyektlar bilan bog‘liq moliyaviy operatsiyalarni qamrab oladi. Ushbu kichik modda tarkibiga depozitlar (49 12 100), qimmatli qog‘ozlar, aksiyalar bundan mustasno (49 12 200), kredit va qarzlar (49 12 300) hamda aksiya va kapitalda ishtirok etishning boshqa shakllari (49 12 400) kiradi. Bu xarajatlar davlatning xalqaro moliya bozorlaridagi ishtirokini va tashqi moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmini ifodalaydi.
73. Moliyaviy talablar vujudga kelishi bilan bir vaqtda debitor tomonida tegishli majburiyatlar yuzaga keladi va ular **49 20 000 “Majburiyatlar”** moddasida aks ettiriladi. Majburiyatlar paydo bo‘lish manbasiga ko‘ra ichki (49 21 000) va tashqi (49 22 000) majburiyatlarga bo‘linadi. Ushbu tasnif davlatning ichki va tashqi moliyaviy barqarorligini baholashda muhim ahamiyatga ega.

74. Ichki majburiyatlar **49 21 000** kichik modda doirasida aks ettirilib, asosan qimmatli qog‘ozlar, aksiyalar bundan mustasno (49 21 100), jumladan g‘aznachilik veksellari va uzoq muddatli qimmatli qog‘ozlarni to‘lash bilan bog‘liq majburiyatlarni qamrab oladi. Shuningdek, ichki majburiyatlar tarkibiga kredit va qarzlarni qaytarish (49 21 200) kiradi bo‘lib, ular respublika, hududiy va institutsional darajalardagi ssuda va kredit majburiyatlarini o‘z ichiga oladi.
75. Budjetlararo moliyaviy munosabatlar **49 21 300 “Budjetlar o‘rtasidagi hisob-kitob va to‘lovlar”** elementi orqali ifodalanadi. Ushbu majburiyatlar budjet jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, turli darajadagi budjetlar o‘rtasida mablag‘larni qayta taqsimlash va o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon hududlar moliyaviy muvozanatini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.
76. Aksiya chiqarish va kapitalda ishtirok etishning boshqa shakllari bilan bog‘liq majburiyatlar ham ichki majburiyatlar tarkibida e’tirof etilib, **49 21 400** elementi orqali aks ettiriladi. Bu holat davlatning korporativ boshqaruvdagi ishtirokini va investor sifatidagi majburiyatlarini ifodalaydi.
77. Tashqi majburiyatlar **49 22 000** kichik moddasida jamlangan bo‘lib, ular xorijiy kreditorlar oldidagi moliyaviy majburiyatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu majburiyatlarga qimmatli qog‘ozlarni to‘lash (49 22 100), kredit va qarzlarni qaytarish (49 22 200), jumladan xorijiy hukumatlar, xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar kreditlari bo‘yicha majburiyatlar kiradi. Tashqi majburiyatlar davlatning tashqi qarz siyosati va xalqaro moliyaviy munosabatlaridagi ishtirokini aks ettiradi.
78. Umuman olganda, iqtisodiy tasnif kodlari mazkur Yo‘riqnomaga muvofiq to‘rt guruh bo‘yicha shakllantirilib, budjet xarajatlari, moliyaviy aktivlar va majburiyatlarning tizimli hisobini yuritish imkonini beradi. Bu tasnif davlat moliyasining shaffofligi, tahliliy baholanishi va samarali boshqarilishini ta’minlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

79.2-jadval

80.Iqtisodiy tasnif (qisqacha xarajatlar guruhi bo‘yicha)

Kodlar			**Nomi**
I-guruh “Ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar”			
41	10	000	Ish haqi
47	11	100	Nafaqalar
48	21	400	Stipendiyalar
II-guruh “Ish haqiga qo‘shimchalar”			
41	20	000	Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar
III-guruh “Kapital qo‘yilmalar”			
43	10	000	Asosiy vositalarni loyihalashtirish
43	20	000	Asosiy vositalarni qurish va rekonstruksiya qilish
IV-guruh “Boshqa xarajatlar”			

42	*00*	*000*	*TOVAR VA XIZMATLAR BO‘YICHA XARAJATLAR*
42	10	000	Xizmat safarlari xarajatlari
42	20	000	Kommunal xizmatlari
42	30	000	Saqlab turish va joriy ta’mirlash
42	40	000	Ijara bo‘yicha xarajatlar
42	50	000	Moddiy aylanma vositalar zaxiralariga xarajatlar
42	90	000	Tovar va xizmatlar sotib olish uchun boshqa xarajatlar
43	*00*	*000*	*ASOSIY VOSITALAR BO‘YICHA XARAJATLAR*
43	30	000	Asosiy vositalarni kapital ta’mirlash
43	40	000	Asosiy vositalarni o‘rta ta’mirlash
43	50	000	Asosiy vositalarni sotib olish
44	*00*	*000*	*FOIZLAR*
44	20	000	Rezidentlarga, davlat boshqaruv sektori bundan mustasno
44	30	000	Boshqa davlat boshqaruvi sektori birliklariga
45	*00*	*000*	*SUBSIDIYALAR*
45	10	000	Davlat tashkilotlariga
45	20	000	Xususiy tashkilotlarga
45	30	000	Nodavlat notijorat tashkilotlarga
45	40	000	Jismoniy shaxslarga
46	*00*	*000*	*GRANTLAR*
46	10	000	Xorijiy davlatlar hukumatlariga
46	20	000	Xalqaro tashkilotlarga
46	40	000	Davlat boshqaruvi sektorining boshqa birliklariga
47	*00*	*000*	*IJTIMOIY NAFAQALAR*
47	10	000	Ijtimoiy ta’minot bo‘yicha nafaqalar
47	20	000	Ijtimoiy yordam nafaqalari
47	30	000	Ish beruvchilarning ijtimoiy nafaqalari
48	*00*	*000*	*BOSHQA XARAJATLAR*
49	*00*	*000*	*MOLIYAVIY AKTIVLAR VA MAJBURIYATLAR BO‘YICHA XARAJATLAR*
49	10	000	Moliyaviy aktiv
49	20	000	Majburiyatlar bo‘yicha

81.

82. Xarajatlar hisobini tashkil etish bo‘yicha yuzaga kelayotgan muammolar

83. Hozirgi kunda budjet tashkilotlarida xarajatlar hisobini yuritishda iqtisodiy tasnif kodlarini qo‘llash bilan bog‘liq muammolar kuzatilmoqda. Jumladan, ayrim hollarda xarajatlarning iqtisodiy mazmuni bilan tasnif kodi o‘rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelib, bu moliyaviy hisobotlarda ma’lumotlarning noto‘g‘ri aks ettirilishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, moliyaviy aktivlar va majburiyatlar bo‘yicha xarajatlarni ajratish va ularni ichki hamda tashqi

guruhlarga to‘g‘ri taqsimlash amaliyotida xatoliklar uchramoqda.

84. Bundan tashqari, budjet tashkilotlari xodimlarining iqtisodiy tasnifning murakkab elementlari bo‘yicha yetarli amaliy bilim va ko‘nikmalarga ega emasligi xarajatlar hisobining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ayrim tushunchalar va tasnif mezonlarining amaliyotda bir xil talqin etilmasligi esa budjet ma’lumotlarining solishtiriluvchanligini pasaytiradi. Shuningdek, axborot tizimlarida iqtisodiy tasnif kodlarining avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlari yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi hisob jarayonida qo‘shimcha xatarlarga sabab bo‘lmoqda.
85. ***Mavjud muammolarga berilayotgan takliflar***
86. Aniqlangan muammolarni bartaraf etish maqsadida, avvalo, budjet tashkilotlarida xarajatlar hisobini yurituvchi mutaxassislarning iqtisodiy tasnif bo‘yicha bilim va malakasini oshirish zarur. Buning uchun malaka oshirish kurslari va amaliy seminarlar tashkil etilib, ularda moliyaviy aktivlar va majburiyatlar hisobining murakkab jihatlariga alohida e’tibor qaratilishi lozim.
87. Shuningdek, iqtisodiy tasnif kodlarini qo‘llash bo‘yicha amaliy yo‘riqnomalarni takomillashtirish, ularni real xo‘jalik operatsiyalari misolida izohlash maqsadga muvofiqdir. Bu budjet tashkilotlarida tasnif kodlaridan bir xil va to‘g‘ri foydalanishni ta’minlaydi. Axborot tizimlarini rivojlantirish orqali xarajatlar hisobini avtomatlashtirish, noto‘g‘ri tasniflangan operatsiyalarni aniqlovchi nazorat mexanizmlarini joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.
88. Bundan tashqari, budjet hisobotlarida iqtisodiy tasnif bo‘yicha ma’lumotlarning tahliliy imkoniyatlarini kengaytirish, ichki va tashqi majburiyatlar hamda moliyaviy aktivlar kesimida alohida tahliliy ko‘rsatkichlarni shakllantirish taklif etiladi. Bu davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirishga, budjet ijrosining shaffofligini ta’minlashga hamda moliyaviy qarorlar qabul qilishda ishonchli axborot bazasini yaratishga xizmat qiladi.
89. **Xulosa.**
90. Budjet tashkilotlarida xarajatlar hisobini iqtisodiy tasnif asosida tashkil etish davlat moliyasini boshqarish tizimida muhim va strategik ahamiyatga ega hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xarajatlarning iqtisodiy mazmuniga mos ravishda aniq va tizimli guruhlanishi budjet mablag‘larining harakatini to‘liq va ishonchli aks ettirish imkonini beradi. Bu esa budjet ijrosi ustidan doimiy monitoringni amalga oshirish, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash hamda davlat moliyaviy siyosatini shakllantirishda mustahkam axborot bazasini yaratadi.
91. Iqtisodiy tasnifning amaliyotda qo‘llanilishi budjet xarajatlari hisobining shaffofligini sezilarli darajada oshiradi. Xarajatlarning ish haqi, tovar va xizmatlar, subsidiyalar, grantlar, moliyaviy aktivlar va majburiyatlar kabi asosiy guruhlarga ajratilishi davlat mablag‘larining qaysi yo‘nalishlarga va

qanday maqsadlarda yo‘naltirilayotganini aniq ko‘rsatib beradi. Natijada, budjet mablag‘laridan maqsadsiz foydalanish holatlarining oldi olinadi hamda moliyaviy intizomni mustahkamlashga erishiladi.

92. Shuningdek, moliyaviy aktivlar va majburiyatlar bo‘yicha xarajatlarning iqtisodiy tasnifda alohida aks ettirilishi davlatning ichki va tashqi moliyaviy barqarorligini baholash imkonini kengaytiradi. Ichki va tashqi majburiyatlarning aniq hisobga olinishi davlat qarzining real hajmini aniqlash, qarz yukini boshqarish va uzoq muddatli fiskal barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa davlat moliyasini boshqarishda ehtiyotkor va asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi.
93. Budjetlararo hisob-kitoblar va transfertxrtqa o‘tkazmalarining iqtisodiy tasnif orqali aks ettirilishi hududlar moliyaviy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv turli darajadagi budjetlar o‘rtasida moliyaviy resurslarning adolatli va shaffof taqsimlanishini ta’minlab, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga imkon beradi. Shu bilan birga, budjetlararo munosabatlarning ochiq va tizimli yuritilishi davlat boshqaruvi samaradorligini oshiradi.
94. Umuman olganda, budjet tashkilotlarida xarajatlar hisobini iqtisodiy tasnif asosida yuritish nafaqat moliyaviy hisobotlarning sifatini yaxshilaydi, balki davlat moliyasini boshqarishning institutsional asoslarini mustahkamlaydi. Mazkur yondashuv budjet ijrosining shaffofligi va hisobdorligini oshirish, moliyaviy xavflarni kamaytirish hamda davlat resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlash orqali mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.
95.

96. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

97.1. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, oxirgi tahrir.
98.2. O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standartlari (BHS), 2-sonli BHS. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, amaldagi tahrir.
99.3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. **“Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi bo‘yicha yo‘riqnoma”**. – Toshkent: Moliya vazirligi nashriyoti, oxirgi tahrir.
100. 4. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahrir).
101. 5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010-yil 20-avgustdagi 65-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan **“Budjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma”** (ro‘yxat raqami 2146).
102. 6. Rasulov A., Jo‘rayev B., Abdullayev S. **“Davlat sektori buxgalteriya hisobi”**. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2022.
103. 7. Mehmonov S.U., Ubaydullayev D.Y. **“Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi”**. – Toshkent, 2013.

104. 8. UzASBO–2 dasturiy majmuasi foydalanuvchi qo‘llanmasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy portalidagi metodik tavsiyalar.
105. 9. Xalqaro davlat sektori buxgalteriya standartlari kengashi (IPSASB). **International Public Sector Accounting Standards (IPSAS)**. – IFAC, amaldagi nashr.
106. 10. Karimov N., Xolmatov A. **“Budjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat va audit”**. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021.

AGROSANOAT KLASTERLARIDA XARAJATLARNI BOSHQARISHDA HISOB SIYOSATINING XUSUSIYATLARI

Toshpo‘latov Azizbek Shermuxamadovich
TDIU “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti,
iqtisodiyot fanlari nomzodi

Annotatsiya: *mazkur maqolada klasterlar faoliyatida xarajatlarni boshqarishning zamonaviy yechimi sifatida hisob siyosati tadqiq qilingan bo‘lib, unda klasterlarning tashkiliy-huquqiy mexanizimlari bilan bir qatorda buxgalteriya hisobi tizimida xarajatlar hisobini zamonaviy yo‘nalishlaridan keng foydalanish imkoniyatlari o’rganilgan.*

Key words: *klaster, boshqaruv qarorlari, boshqaruv hisobi, hisob siyosati, metodologiya.*

“Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog’lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g’iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadid”a qabul qilingan **«O‘zbekiston — 2030»** strategiyasining [1] muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan “**Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash”** nafaqat mamlakat iqtisodiyotini ustuvor yo‘nalishlarini belgilash balki “Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg’or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish” orqali “... klasterlarini tashkil etish va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish korxonalarini ishga tushirish” kabi sanoatni barqaror rivojlanishi yo‘lida dasturi amal sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan agrosanoat klasterlari ko‘p tarmoqli yo‘nalishlarni qamrab olganligi, ularning boshqaruv maqsadlari uchun belgilangan strategik yo‘nalishlari klasterlar manfaatlari qaratilgan bo‘lsada, bevosita boshqaruv

qarorlarini qabul qilishda hisob, ayniqsa boshqaruv hisob axborotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda boshqaruv hisobning zamonaviy usullarini keng qo‘llash orqali ularda hisob siyosatining uslubiy asoslarini belgilash xarajatlarni yanada aniqligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mavjud adabiyotlarda klaster tushunchasi uning mazmun va mohiyati 2000 yillardan kirib kelgan bo'lsa-da, bu atama bugungi kungacha aniq ta'rifga ega emas, chunki turli ishtirokchilar (huquqiy asoslarni ishlab chiqaruvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va iqtisodiy sektorlar) uni turli kontekst va yo‘nalishlarda qo'llashadi (Galvez-Nogales & Webber, 2017; Steffens, 2016) [2]. Eng ko'p qo'llaniladigan ta'riflardan biri bu o'zaro bog'langan firma va muassasalarning geografik kontsentratsiyasidir (Porter, 1998) [3].

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda ham klsaterlar, ularning huquqiy asoslarini yaratish, ularda faoliyatning tashkiliy mexanizmlarini ishlab chiqish borasida tizimli ishlar olib borilgan. “Klaster – bu qo‘shilgan qiymat zanjirining barcha ishtirokchilarini (fermerlar, qayta ishlovchi korxona, eksportyor) bir maqsad sari jamlagan korxonalar guruhidir. Klasterlar tizimi – bu xom-ashyo yetishtirishdan boshlab to qayta ishlangan tayyor mahsulotni iste’molchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab olgan bir butun tizim hisoblanadi” [4].

Klasterlar faoliyatining asosiy maqsadi “kam xarajat qilib, ko‘p daromad olish, moliyaviy xolatini yaxshilash”ga qaratilgandir. Bu maqsad yo‘lida, nafaqat samarali boshqaruvni yaratish, qolaversa hisob ma’lumotlarini shaffofligini ta’minlashda boshqaruv hisobining uslubiy asoslarini belgilash muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Bunda qo‘llaniladigan hisob-tahliliy vositalarini tahlil qilish maqsadga muvofiq, shunki buxgalteriya ma’lumotlari va boshqaruv hisobi registrlari tahlilining yakuniy mahsuli boshqaruv hisoboti shakllari va tizimdan tashqari boshqaruv vazifalarini hal qilish asosida yaratilgan boshqa maqsadli hisobotlar hisoblanadi. Muayyan korxonaning o‘ziga xos xususiyatlari va uning boshqaruv hisob tizimini qurishning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda buxgalteriya jarayoniga nisbatan tashkiliy-kommunikatsiya faoliyatini amalga oshirish ham muhim masala hisoblanadi.

Bugungi kunda mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar negizi ular tomonidan yaratilayotgan qiymat tannarxini pasaytirish imkoniyatlarini izlab topish iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan dolzarb muammo hisoblanadi. Ma’lumki, mahsulot tannarxi qanchalik arzon bo‘lsa, shunchalik sub’ekt oladigan foyda miqdori oshib boradi. Ikkinchi tomondan ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini kamaytirish ular uchun ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, ya’ni masulot sifatiga ta’siri orqali xarajatlarni kamaytirish hollarda kuzatilishi mumkin. Bunday salbiy natijalarni oldini olish maqsadida boshqaruv hisobi maqsadlari uchun

xarajatlarni samarali boshqarish, ularni hisob ob’ektlarida to‘g’ri taqsimlanishini ta’minlash uchun zamonaviy usullardan foydalanishni taqazo etadi.

Klasterlar faoliyatida xarajatlarni baholash usuli sifatida “ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirish” tanlab olinadigan bo‘lsa, xarajatlarni boshqarish bu xarajatlarni kamaytirish bilan bog’liq bo‘ladi. Shu bilan birga xo‘jaliklarda “qat’iy belgilab qo‘yilgan xarajatlarda samarani maksimallashtirish” mezonini tanlab olish ham mumkin. Bu xarajatlar avvalgi darajada qolib ketishini anglatmaydi: agar bunday o‘sish ularning samaradorligini oshiradigan bo‘lsa, ular o‘sishi mumkin. Shu maqsadda boshqaruvchilari u yoki bu xarajatlarning o‘sish sur’atini oldindan aniqlab olishlari lozim.

Xarajatlarni samarali boshqarish orqali mahsulot tannarxini hisoblashning zamonaviy tizimlari mahsulot ishlab chiqarishda tugallanmagan ishlab chiqarishni kamaytirish, sarflangan resurslar hajmini eng kam darajaga keltirishni hamda buyurtmalarini olingan vaqtdan boshlab o‘z vaqtida ishlab chiqarishni nazarda tutadi.



1-rasm. Agrosanoat klasterlarida xarajatlarni boshqarish orqali yo'qotishning oldini olish bosqichlari.

Agrosanoat klasterlari tomonidan sub’yekting kelajakda moliya-xo‘jalik faoliyatini ma’lum bir darajada bashoratlash maqsadida prognoz ko‘rsatkichlari boshqaruv hisobi tizimidagi asosiy vositalardan biri hisoblanadi, odatda bu ko‘rsatkichlar 3-5 yillik muddatlarni qamrab olgan holda ishlab chiqiladi. Bunda sub’yekting moliyaviy mas’uliyat markazlai tomonidan hisobat davrlarini hisobga olgan holda batafsil bayon qilishlari lozim. Ular darajasida nafaqat boshqaruv maqsadlariga yerishish maqsadida turli ko‘rsatkichlar bosqichma-bosqich

baholanadi, balki rejalashtirilgan ko‘rsatkichlar sezirali o‘zgarishlarga olib kelgan bo‘lsa, ular ma’lum davrlarni qamrab olgan holda choraklik, yillik davrlar bo‘yicha tuzatilishi kerak.

Xarajatlar hisobini to‘g‘ri tashkil etish korxonaning tashkiliy va ishlab chiqarish tuzilmasiga bog‘liq bo‘ladi. Ishlab chiqarishning normal ishlashini hal qiluvchi omil bu boshqaruv faoliyati bo‘lib, unda menejerlar ishonchli va dolzarb ma’lumotlarga ega bo‘ladi. Axborot ta’minoti yordamida bo‘limlar o‘rtasidagi munosabatlar, har bir bo‘limning korxona ma’muriyati oldidagi majburiyat va huquqlarini chegaralanishi, korxonaning maqsadiga erishishida barcha faoliyatning izchilligi ta’minlanadi. Axborot tizimi korxonaning tashkiliy tuzilmasi ehtiyojlariga bo‘ysunadi.

Bugungi kunda amaliyotda xarajatlarni samarali boshqarish maqsadida boshqaruv hisobi an’anaviy buxgaleriya hisobi kabi aniq normativlarga ega bo’lmaganligi, buxgalteriya hisobining bir nechta maqbul variantlari mavjudligi tufayli o’zining aniq bir yo’nalishini anglab olishga imkon bermayapti. Shu tufayli bugungi zamonaviy buxgalteriya hisobi kontseptsiyasini belgalashda boshqaruv hisobining maqsadlarini belilab olish uning uslubiy, tashkiliy hamda texnik jihatlarini hisob siyosatida belgilash orqali samarali boshqaruvni tashkil etilishiga olib kelinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi “«O‘zbekiston — 2030» Strategiyasi to‘g’risida”gi PF-158-sonli farmoni. https://lex.uz/ru/docs/6600413.

2. Galvez-Nogales, E. & Webber, M. (Eds.). (2017) *Territorial tools for agro-industry development. A sourcebook. Agrobased clusters. With assistance of K. murphy*. Rome, Italy: FAO.

3. Steffens, V.C. (2016) *Potentials of agrarian cluster development for improving smallholder's income–a case study from the SAGCOT initiative in Tanzania*. Bachelor. University of Cologne, Cologne. Available online at https://geographie.uni-koeln.de/sites/geographie/user_upload/Bachelorarbeit_Steffens.pdf.

4. https://www.agro.uz/agroklasterlar-va-kooperatsiyalar/#1627303540327-5870b9c2-be30

Calculation of Equivalent Units, Evaluation of Finished Products and Unfinished Production

Tursunaliev I.U.[35]

Ashuraliyev D.[36]

Abstract. This research paper examines the calculation of equivalent units, and the evaluation of finished and unfinished production in cost accounting. The objective of this study is to highlight the importance of process costing techniques in determining accurate production costs and assessing work in progress (WIP). The paper discusses how equivalent units are used to measure partially completed goods, ensuring fair cost allocation and reliable reporting. Through practical examples and theoretical analysis, the study emphasizes that proper evaluation of unfinished production is essential for managerial decision-making, cost control, and performance analysis. The results suggest that applying the equivalent units method contributes to the transparency and accuracy of production costing systems.

Introduction. In manufacturing enterprises, production often occurs in continuous processes where goods are partially completed at the end of a period. Accurate cost measurement in such cases requires determining the degree of completion and assigning costs proportionally between finished goods and work in progress. This is where the concept of equivalent units becomes essential (Drury, 2018; Horngren, 2017). The process costing system helps to evaluate production costs and determine the cost per equivalent unit, which is critical for managerial control and financial reporting. In Uzbekistan's manufacturing sector, understanding this method is especially relevant as industries seek to optimize resource use and improve cost efficiency.

Methodology. This study employs analytical and comparative methods to explain the calculation of equivalent units and the evaluation of production (Garrison et al., 2021; Bhimani et al., 2019). The process involves dividing production into two categories: completed units and partially completed units. The equivalent unit concept is applied to measure the degree of completion of materials, labor, and overhead. Two main approaches are considered: the Weighted Average Method and the FIFO (First-In, First-Out) Method (Garrison et al., 2021; Kaplan & Atkinson, 2015). Both methods are widely used in cost accounting, and their selection depends on management's information needs. For illustration, data from a hypothetical manufacturing company producing 10,000 units is used to demonstrate calculations.

Results and Discussion. Assume the company completed 8,000 units and had 2,000 units in ending work in progress (WIP) that were 60% complete for materials

[35] Ibrokhimjon U. Tursunaliev assistant teacher of the Department of Accounting, Tashkent State University of Economics, Tashkent, Uzbekistan,
Email: tursunalievibrokhimjon@gmail.com
ORCID: 0009-0004-3267-6213
[36] Ashuraliyev D. Bachelor student, Accounting Department, Tashkent State University of Economics (TSUE).

and 40% complete for labor and overhead. Total production costs for the period amounted to $50,000, including $30,000 for materials, $12,000 for labor, and $8,000 for overhead. Using the Weighted Average Method, equivalent units for materials are calculated as (8,000 + 2,000 × 60%) = 9,200, and for conversion costs (labor and overhead) as (8,000 + 2,000 × 40%) = 8,800. The cost per equivalent unit for materials is $30,000 / 9,200 = $3.26, and for conversion costs is $20,000 / 8,800 = $2.27 (Labor = $1.36; Overhead = $0.91). Thus, the total cost per equivalent unit equals $5.53. These calculations follow standard process costing practice (Drury, 2018; Garrison et al., 2021).

The value assigned to finished goods and ending WIP is as follows. Finished goods are valued at 8,000 × $5.5336 ≈ $44,268.77. Ending WIP is valued by component: materials (2,000 × 60% × $3.2609 ≈ $3,913.04) and conversion (2,000 × 40% × $2.2727 ≈ $1,818.18). Total ending WIP ≈ $5,731.22. The total assigned costs (Finished goods + Ending WIP) reconcile to the total production costs of $50,000 (rounding differences may apply).

Table 1.

Equivalent Units Calculation and Cost per Unit (Corrected)

Cost Component	Total Cost ($)	Equivalent Units	Cost per Equivalent Unit ($)
Materials	30,000	9,200	3.26
Labor	12,000	8,800	1.36
Overhead	8,000	8,800	0.91
Conversion (Labor+Overhead)	20,000	8,800	2.27
Total	50,000	-	5.53

Note: Conversion cost per equivalent unit equals the sum of labor and overhead cost per equivalent unit. All figures are rounded to two decimal places for presentation. The table now includes the conversion row that was missing previously.



Figure 1. Distribution of Production Costs by Component

Managerial Implications.Accurate evaluation of finished and unfinished production has several managerial implications. First, it ensures the correct valuation of inventory, which directly impacts profit measurement and financial reporting (IASB, 2023). Second, it helps managers identify inefficiencies in production processes, such as material waste or labor shortages (Kaplan & Atkinson, 2015). Third, it supports budgeting and performance analysis by showing how effectively resources are utilized. In manufacturing environments where production cycles overlap accounting periods, understanding equivalent units helps managers track production flow and optimize process efficiency. Moreover, the data obtained from equivalent unit analysis can be integrated into digital management accounting systems, improving real-time cost control and decision-making.

Conclusion.The calculation of equivalent units and evaluation of finished and unfinished production play a vital role in cost accounting and managerial decision-making. They bridge the gap between accounting data and operational performance by converting partial completion into measurable financial terms. This corrected version reconciles all costs and provides accurate inventory valuation under the Weighted Average method (Drury, 2018; IASB, 2023).

References

1. Abdullayev, O. (2019). Korxonada boshqaruv hisobi amaliyoti. Toshkent: Fan va texnologiya.
2. Drury, C. (2018). Management and Cost Accounting. Cengage Learning. Garrison, R. H., Noreen, E. W., & Brewer, P. C. (2021). Managerial Accounting. McGraw-Hill Education.
3. Horngren, C. T. (2017). Introduction to Management Accounting. Pearson Education.

Qurbonov, R. Q. (2016). Boshqaruv hisobi asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
4. Kaplan, R. S., & Atkinson, A. A. (2015). Advanced Management Accounting. Pearson Education Limited.
5. Bhimani, A., Horngren, C. T., Datar, S. M., & Rajan, M. V. (2019). Management and Cost Accounting. Pearson UK.
6. Hilton, R. W., & Platt, D. E. (2020). Managerial Accounting: Creating Value in a Dynamic Business Environment. McGraw-Hill Education.
7. Mahmoodov, S. (2022). Ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarish va tahlil qilish. Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim nashriyoti.
8. International Accounting Standards Board (IASB). (2023). IAS 2 – Inventories. IFRS Foundation.

Ўзбекистонда молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича кенг кўламлий ишлар амалга оширилмоқда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4611-сонли қарорида[1] молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишни жадаллаштириш, хорижий инвесторларни зарур маълумотлар билан таъминлаш ва халқаро молия бозорларига кириш имкониятларини кенгайтириш, ҳисоб ва аудит соҳалари мутахассисларини халқаро стандартлар бўйича тайёрлаш тизимини такомиллаштириш масалаларига яққол мисол бўла олади. Ушбу қарорда бундан ташқари 2021 йил 1 январдан бошлаб молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида бухгалтерия ҳисоби юритилишини ташкил этиши ҳамда молиявий ҳисоботни ихтиёрий равишда халқаро стандартларга мувофиқ тайёрлайдиган тижорат банклари, акциядорлик жамиятлари, суғурта ташкилотлари ва йирик солиқ тўловчилар тоифасига киритилган юридик шахслар тадбиркорлик субъектлари бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартлари бўйича молиявий ҳисобот тақдим этишдан озод этилиши белгилаб қўйилган. Бу жараён юртимизда халқаро стандартларга ўтишдаги асосий қадамлардан бири бўлди десак муболаға бўлмиз.

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини сифатли қўллаш учун ушбу соҳа

мутахассисларини тайёрлаш бўйича жаҳоннинг муваффақиятли тажрибаларини оммалаштириш, бухгалтерия ҳисоби ва аудит соҳасида қайта тайёрлаш ва малака ошириш бўйича нодавлат таълим ташкилотлари (Сертификатланган дипломли бухгалтерлар халқаро ассотсацияси - ACCA) ва бошқалар билан ўзаро ҳамкорликни кенгайтириш фикрлар кўриб чиқилган. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишни жадаллаштириш мақсадида юртимиздаги ҳар бир молиявий операцияларни амалга оширишда “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари бўйича молиявий ҳисобот” фанини муваффақиятли топширганлиги тўғрисида ҳужжатга ёҳуд, “Сертификатланган дипломли бухгалтер (ACCA)” ва “Халқаро молиявий ҳисобот бўйича диплом (DipIFR)” сертификатларидан бирига эга бухгалтерлар иштирокини таъминлаш таъкидланган.

Бутун дунё бўйлаб сўнгги йилларда молиявий бозорларда молиявий инструментларнинг хилма-хиллиги ва мураккаблиги кескин ўсиб бормоқда. Молиявий инструментлар учун бухгалтерия ҳисоби амалиётида муаммо бўлиб ҳисобланади ва шунинг учун халқаро стандартлардан кенг фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини тизимида молиявий инструментлар мавзуси энг қийин деб ҳисобланади.

1-расм. Молиявий инструментларни ҳисобга олишда қуйидаги халқаро стандартлар

Манба: муаллиф ишланмаси

МҲХС (IAS) 32. Молиявий инструментларни таснифлаш ва уларни молиявий ҳисоботларда тақдим этиш билан боғлиқ[2].

МҲХС (IFRS) 9. Молиявий ҳисоботларда молиявий инструментларни ўлчаш ва тақдим этиш билан боғлиқ[3].

МҲХС (IFRS) 7. Молиявий ҳисоботларда молиявий инструментларнинг ошкор этилиши билан боғлиқ[4].

2-расм. Молиявий инструментларни ҳисобга олишнинг жиҳатлари

Манба: муаллиф ишланмаси

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, молиявий инструментлар тушунчасига қуйидаги таъриф бериш мумкин.

Молиявий инструментлар – бу шартнома бўлиб, бир корхонада молиявий актив иккинчи корхонада эса молиявий мажбурият ёки улушли воситадир.

Шундан келиб чиқиб, молиявий инструментлар таркибий тузилиши қуйидагилардан иборат бўлади (3- расм)

3- расм. Молиявий инструментлар тузилиши

Манба: муаллиф ишланмаси

Молиявий активларга таркибига қайси элементлар киришини қуйидаги 4-расмда кўриш мумкун.



4- расм. Молиявий активларнинг таркиби

Манба: муаллиф ишланмаси

Молиявий мажбуриятларга таркибига қайси элементлар киришини қуйидаги 5-расмда кўриш мумкун.



5-расмда Молиявий мажбуриятларнинг таркиби

Манба: муаллиф ишланмаси

Улушли воситалар- Компаниянинг соф активларидаги улушга нисбатан эгасининг ҳуқуқини тасдиқловчи шартнома масалан оддий акция.

Молиявий инструментларни (масалан, облигациялар ёки сотиб олинадиган имтиёзли акциялар) қуйидаги уч хил молелда ҳисобга олинади.(6-расмда)

6-расм. Молиявий инструментларни ҳисобга олиш моделлари

Манба: муаллиф ишланмаси

Молиявий инструментларни фойда ёки зарар орқали ҳаққоний қиймат бўйича тан олинган. Қуйидаги иккита босқичда ҳисобга олинади:

- Бизнес модели тести. Бу инвестиция қандай мақсадда амалга оширилаётганига қарайди.
- Шартнома бўйича пул маблағлари оқимининг хусусиятларини текшириш. Бу инвестициядан олинадиган пул оқимлари ва уларнинг таркибини кўриб чиқади.

Молиявий инструментларни амортизация қилинган қиймат бўйича ҳисобга олиниши мумкин:

- Бизнес модели тести. Компания инвестицияларни муддатигача ушлаб туриш ниятига эга бўлиши керак.
- Шартнома бўйича пул маблағлари оқимининг хусусиятларини текшириш. Шартнома шартларига кўра, молиявий актив фақат асосий қарз ва унинг қолдиғи бўйича фоизларни тўлашни ифодаловчи пул оқимларини яратиши керак.

Агар қарз воситаси амортизация қилинган қиймат бўйича ҳисобланса, фоиз даромади (мажбуриятлар бўйича самарали ставка бўйича ҳисобланган) фойда ёки зарар тўғрисидаги ҳисоботда тан олинади ва активнинг йил якуни қиймати амортизация қилинган қийматдан фойдаланган ҳолда худди шундай тарзда ҳисобланади.

Молиявий инструментларни бошқа умумлашган даромад орқали ҳаққоний қиймат бўйича ҳисобланиши учун у иккита мақсадни ўз ичига олади:

- Бизнес модели тести. Компания инвестицияларни муддати тугагунга қадар ушлаб туриш ниятида бўлиши керак, лекин агар бошқа, фойдалироқ активни сотиб олиш имконияти пайдо бўлса, активни сотиши мумкин.
- Шартнома бўйича пул маблағлари оқимининг хусусиятларини текшириш.

Шартнома шартларига кўра, молиявий актив амортизация қилинган харажатларни ҳисобга олишда бўлгани каби, фақат асосий қарз ва унинг қолдиғи бўйича фоизларни тўлашни ифодаловчи пул оқимларини яратиши керак.

Молиявий мажбуриятлар дастлаб ҳақоний қийматда тан олинади. Бу, одатда, олинган пулнинг соф суммасидан, мажбуриятни чиқариш учун кетган харажатлари айириб ташлаш билан топилади.

Молиявий мажбуриятларни кейинги баҳолаш

Молиявий мажбуриятлар амортизация қилинган қиймат бўйича ҳисобга олинади.

Амортизация қиймати қуйидагича ҳисобланади:

Номинал қиймати + самарали ставка бўйича ҳисобланган фоизлар - тўланган фоизлар.

Самарали ставка бўйича ҳисобланган фоизлар тўланган фоизлардан фарқ қилади, агар тўлаш учун тўловлар, эмиссия харажатлари ёки чегирмалар каби қўшимча қарз харажатлари мавжуд бўлса. Бундай мажбуриятларга мисол сифатида чуқур чегирмали облигацияни келтириш мумкин.

Молиявий инструментларнинг энг кенг тарқалган турларидан бири бу чуқур чегирмали облигациядир.

- Бундай восита номинал қийматидан катта чегирма билан чиқарилади.
- Одатда купон ставкаси бозор курсидан анча паст бўлади
- Қарзларнинг умумий қийматига қуйидагилар киради:

  - эмиссион харажатлари;

  - чиқарилганда чегирма;

  - йиллик фоиз тўловлари;

  - тўлов бўйича мукофот.

Облигацияларнинг бошланғич қиймати эмиссиядан олинган соф тушум ҳисобланади.

Жами молиявий тўловлар доимий даврий фоиз ставкасини олиш учун воситанинг амал қилиш муддати давомида ҳисоблаб чиқилади.

Доимий даврий фоиз ставкаси (шунингдек, самарали ставка деб аталади) даромаднинг ички даражаси билан бир хил тарзда ҳисобланади. Имтиҳонда самарали фоиз ставкаси берилади.

Ушбу облигациялар, аксарият молиявий мажбуриятлар сингари, амортизация қилинган қиймат бўйича ўлчанади.

Номинал қиймати + самарали ставка бўйича ҳисобланган фоизлар - тўланган

фоизлар

Мавзуни ўрганиш натижасида қуйидаги таклифларга эришилди:

1. Молиявий инструментлар таърифларини умумлаштирган ҳолда қуйидаги “Молиявий инструментлар шартнома бўлиб, бир томон учун молиявий актив сифатида ҳисобга олинадиган, иккинчи томон учун эса молиявий мажбурият ёки улишли инструментлар сифатида ҳисобга олинувчи инструментлар ҳисобланади” таъриф ишлаб чиқилди.

2. Молиявий активларга қилинган ҳаққоний харажатлар қўшилишини, молиявий мажбуриятларга эса ушбу харажатлар айрилиб ҳисобга олинишини инобатга олган ҳолда ҳисоб сиёсатида қуйидаги счётлар киритишни таклиф этамиз.

- молиявий активларга қилинган харажатлар номли актив счёт.

- молиявий мажбуриятларга қилинган харажатлар номли контр актив счёт.

Бу счётлар бухгалтерия маълумотларини ишончлилигини, тушунарлилигини ва тақосланувчанлигини янада оширади .

Мавзуни ўрганиш натижасида қуйидаги хулосаларга эришилди:

1. Молиявий инструментларни халқаро ва миллий стандартларининг фарқли жиҳатлари аниқлаш ва уни 12 сонли “Молиявий инвестицияларни ҳисобга олиш” БҲМСни такомиллаштириш зарур.

2. Молиявий инструментларни учта модел, яъни фойда ёки зарарда тан олинган ўзгаришлар билан ҳаққоний қиймат, амортизация қилинган қиймат ва бошқа умумлашган даромадда тан олинган ҳаққоний қийматда ҳисобга олинади ҳамда фойда ёки зарарда тан олинган ўзгаришлар билан ҳаққоний қиймат модели умумий бўлиб ҳисобланади.

3. Молиявий инструментларни ҳисобга олишнинг жорий ташкилий ва услубий қоидаларни баҳолаш ва уларни ишлаб чиқиш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш зарур.

4. Амалдаги қонунчилик асосида молиявий инструментларни ҳисобга олиш учун бухгалтерия ҳисоби схемасини таклиф қилиш ва уни такомиллаштириш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш зарур.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги «Молиявий ҳисобот¬нинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-4611-сон Қарори. https://lex.uz/docs/4746047.

2. МҲХС (IAS) 32 "Молиявий инструментлар: тан олиш" номли молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари.

3. МҲХС (IFRS) 7 "Молиявий инструментлар: ахборотни ошкор қилиш". тан олиш"

номли молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари.

4. МҲХС (IFRS) 9 "Молиявий инструментлар" номли молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари.

5. Фельдман А.Б., Производные финансовые и товарные инструменты. - М.: 2003

6. http: ifrs.com

Пу Кебин,
2-го курс магистрант в Ташкентского государственного экономического университета.
Email:1084583972@qq.com

Порядок формирования прибыли и убытков в соответствии с национальными стандартами

Формирование прибыли и убытков на предприятии является центральным элементом системы бухгалтерского учета, поскольку именно данный процесс отражает конечный результат всей хозяйственной деятельности. В соответствии с Национальными стандартами бухгалтерского учета (НСБУ) Республики Узбекистан порядок определения финансового результата базируется на последовательном сопоставлении доходов и расходов, а также на применении установленных принципов признания и оценки хозяйственных операций.

После определения себестоимости рассчитывается валовая прибыль. Этот показатель является первым уровнем финансового результата и отражает эффективность производственного процесса без учета управленческих и коммерческих расходов. На данном этапе уже можно оценить, насколько рационально предприятие использует производственные ресурсы.

Далее в учет включаются коммерческие расходы, связанные с реализацией продукции. Они включают транспортные расходы, расходы на упаковку, маркетинговые мероприятия и оплату услуг посредников. В условиях конкуренции на рынке строительных материалов данные расходы могут существенно влиять на конечный финансовый результат.

После учета коммерческих расходов формируется прибыль от основной деятельности. Этот показатель является более точным отражением операционной эффективности предприятия, поскольку учитывает не только производственные, но и сбытовые затраты.

Далее в расчет включаются прочие доходы и расходы. К ним относятся курсовые разницы, доходы от временного размещения свободных денежных средств, штрафы, пени и иные нерегулярные операции. Хотя данные элементы не относятся к основной деятельности, они могут существенно влиять на конечный финансовый результат, особенно в условиях нестабильной экономической среды.

На заключительном этапе определяется чистая прибыль предприятия. Она рассчитывается после вычета налога на прибыль в соответствии с Налоговым кодексом Республики Узбекистан. Чистая прибыль является итоговым показателем, который отражает реальный финансовый результат деятельности предприятия и используется для распределения между собственниками, реинвестирования и формирования резервных фондов.

Следует отметить, что между бухгалтерским и налоговым учетом прибыли могут возникать различия. Это связано с тем, что Налоговый кодекс устанавливает собственные правила признания доходов и расходов, которые не всегда совпадают с нормами НСБУ. В результате формируются временные и постоянные разницы, которые должны корректно отражаться в учетной системе.

С точки зрения корпоративного управления, процесс формирования прибыли имеет не только учетное, но и управленческое значение. Руководство предприятия использует данные о прибыли для оценки эффективности подразделений, анализа затрат и принятия стратегических решений.

Например, снижение валовой прибыли при стабильной выручке может сигнализировать о росте себестоимости продукции, что требует пересмотра закупочной политики или оптимизации производственных процессов.

Аналогично снижение чистой прибыли при стабильной операционной прибыли может указывать на рост налоговой нагрузки или увеличение прочих расходов.

В условиях цифровизации бухгалтерского учета на предприятии активно используются автоматизированные системы формирования финансовых результатов. Это позволяет ускорить обработку данных и повысить точность расчетов, однако требует высокой дисциплины при вводе первичной информации.

В целом можно сделать вывод, что корректная организация процесса формирования прибыли и убытков является важнейшим элементом системы бухгалтерского учета и корпоративного управления. От ее качества зависит точность финансовой информации, эффективность управленческих решений и устойчивость предприятия в долгосрочной перспективе.

Список литературы

1. Национальные стандарты бухгалтерского учета (НСБУ) Республики Узбекистан

2. Закон Республики Узбекистан «О бухгалтерском учете» от 13.04.2016 г. № ЗРУ-404

3. Налоговый кодекс Республики Узбекистан (утвержден Законом РУз от 30.12.2019 г. № ЗРУ-599)

4. Каримов А.А. Основные направления совершенствования бухгалтерского учета и аудита в системе корпоративного управления: Автореф. дисс. д-ра экон. наук. – Ташкент, 2009.

5. Рахимов Н. Влияние международных стандартов на финансовую систему Узбекистана // Бюллетень Министерства финансов Республики Узбекистан. – 2022.

Temirov Furqat Tursoatovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti

FERMER XO‘JALIKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI SCHYOTLAR REJASINI QO‘LLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobi schyotlar rejasini qo‘llashga doir ilmiy taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: fermer xo‘jaligi, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot schyotlar rejasi, moliyaviy hisobot, BHMS, diversifikatsiya

Kirish

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish va uni barqarorlashtirishda fermer xo‘jaliklarining tutgan o‘rni hamda yalpi ichki mahsulot hajmidagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Shu boisdan, fermer xo‘jaliklari faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.10.2017 yilda PF-5199 sonli Farmoni e’lon qilindi.

Ushbu farmonda fermer xo‘jaliklarining asosiy qismi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan cheklanib qolmoqda, ularning qayta ishlash, saqlash, tayyor mahsulotlarni sotish va xizmatlar ko‘rsatish kabi ko‘p tarmoqli faoliyatini yo‘lga qo‘yishda mavjud imkoniyatlardan foydalanilmayotgani, fermer va dehqon xo‘jaliklari a’zolari va tomorqa yer egalarining qishloq ho‘jalik mahsulotlarini yetishtirish sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularni zarur ma’lumot va axborotlar bilan ta’minlash hamda boshqa xizmatlar ko‘rsatish tizimi, shuningdek, fermer xo‘jaliklarida mehnat munosabatlarini tashkil etish holati bugungi kun talablariga javob bermayotgani ta’kidlab o‘tilgan.

Mustaqillikning dastlab yillaridan mamlakatimizda buxgateriya hisobini tartibga solish mexanizmi ishlab chiqilgan hamda shu asosida buxgalteriya hisobi rivojlanib kelmoqda. Bugungi kunda faoliyat yuritayotgan barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar, jumladan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari ham 21-BHMS

“Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma” asosida buxgalteriya hisobi tashkil qilinib kelinmoqda.

Fermer xo‘jaliklarda buxgalteriya hisobini tashkil etish, tartibga solish, ifodalash, ma’lumotlarni to‘plash va saqlash yo‘li bilan xo‘jalik faoliyatini tezkor (joriy), taktik va hatto strategik boshqarish uchun axborot bilan ta’minlaydi – bu fermer xo‘jaliklari faoliyatining haqiqatdagi ma’lumotlari to‘g‘risida tizimga solingan ma’lumotlar (ko‘rsatkichlar)dir. Axborotni saqlash deganda ishlab chiqarish samaradorligi ko‘rsatkichlarini saqlash tushuniladi. Buxgalteriya hisobining barcha boshqa axboroti faqat ma’lum muddat mobaynida saqlanishi va o‘zgarmasdan qolishi mumkin, chunki ushbu axborot unga xo‘jalik jarayonining keyingi voqea hodisalari doimiy ravishda o‘zgaradi. Bu o‘zgarish schyotlar tizimi yordamida amalga oshiriladi.

Buxgalteriya hisobi schyotlari tizimi uning shakli va mazmunining muayyan nisbatini o‘zida mujassam etadi. Buxgalteriya hisobini rivojlantirish bo‘g‘inlari va uning schyotlar tizimi o‘rtasida dialektik o‘zaro bog‘liqlik mavjud. Shunday qilib, schyotlar buxgalteriya hisobi shaklining usuli bo‘lsa, schyotlardagi tizimga solingan va guruhlangan axborot – uning mazmuni hisoblanadi. Schyotlar tizimidan foydalanishga qarab xo‘jalik muomalalarining tarkibi va ularning mazmuni aniqlanadi. Buxgalteriya hisobi schyotlari tizimi xo‘jalik jarayonlarini ro‘yxatga olish va guruhlash buxgalteriya axboroti tizimining abstrakt-mantiqiy modeli hisoblanadi. Schyotlar tizimining nomenklaturasi buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarini tuzish uchun zarur bo‘lgan ko‘rsatkichlarni olish uchun muhim rol o‘ynaydi.

Mamlakatimiz hamda horijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqtolari hanuzgacha schyotlar tizimiga taalluqli ko‘plab masalalar (buxgalteriya hisobi, schyotlar rejasini aniqlash, schyotlar tizimi nomenklaturasini tuzish va b.) o‘zining bir ma’noli yechimini topmaganligi qo‘shimcha uslubiy, didaktik va amaliy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ilgari chop etilgan ishlarda ayrim mualliflar

buxgalteriya hisobini xo‘jalik operatsiyalarini joriy aks ettirish va xo‘jalik faoliyatining umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlarini olish usuli sifatida, boshqa mualliflar rejani bajarishning borishini nazorat qilish shakli va usuli sifatida, uchinchilari esa xo‘jalik vositalari, jarayonlari va operatsiyalarini iqtisodiy jihatdan bir xil belgilar bo‘yicha tasniflash, umumlashtirish va tizimga solish usuli tavsiflashdi.

Shuningdek, V.A.Astaxovning ta’kidlashicha, "Schyot lokal tizimni o‘zida namoyon etib, uning shakllanishi jarayonida xo‘jalik operatsiyalarining ta’siri ostida iqtisodiy bir xil obyektning mavjudligi va harakatini hisobga oish, joriy va keyingi nazorat qilish amalga oshiriladi.[3] Ayrim mualliflar hozirgacha schyotni faqat buxgalteriyada qo‘llaniladigan alohida registr (buxgalteriya kitoblari, jurnallari, qaydnomalari va h.k.) sifatida tavsiflashadi. Yana shuni ta’kidlash lozimki, schyot o‘zicha hech qanday nazorat harakatlarini bajarmaydi. Buni V.F.Paliy va Y.V.Sokolovlar kabi iqtisodchi olimlar o‘z ishlarida bir necha marta asosli tarzda ta’kidlashdi. Buxgalteriya hisobi schyotlari subyektni nazorat qilish uchun schyot emas, balki schyotlarda aks ettiriladigan xo‘jalik jarayonlari to‘g‘risidagi axborotdan foydalaniladi.

Bu borada respublikamiz olimlari ham turli xil yondoshuvlarni ilgari suradi. Jumladan, B.Isroilov, R.Xolbekovlar “Buxgalteriya hisobida xo‘jalik mablag‘lari va ularning tashkil topish manbalarining harakati to‘g‘risida ma’lumotlarga ega bo‘lishi uchun har bir mablag‘, manba va xo‘jalik jarayonlari uchun belgilangan raqamlar buxgalteriya schyotlari deb yuritiladi” deb ta’kidlab o‘tgan.[5]

Bizning fikrimizcha, buxgalteriya schyotlari axborot abstrakt-mantiqiy modellarni va hisobga olinadigan obyektlarni xo‘jalik operatsiyalariga aylantirish yo‘li bilan miqdoriy o‘zgartirish va ular mazmunini sifat jihatdan tavsiflash uchun tasnifiy belgilarni o‘zida namoyon etadi.

Mamlakatimizda schyotlar rejasi turli davrlarda iqtisodiy o‘zgarishlar va korxonalarni boshqarish tizimining rivojlanishiga qarab bir necha marta qayta ishlab chiqilib, o‘zgartirildi. Jumladan amaldagi schyotlar tizimi 2002 yilda qabul qilingan

bo‘lsa, keyinchalik zamon talablari asosida qayta ko‘rib chiqilgan hamda o‘zgartirishlar kiritilgan.

Alohida tarmoqlar iqtisodiyotida, shu jumladan bugungi kunda qishloq xo‘jaligining lokomativiga aylanayotgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini barqarorlashish tendensiyalari boshqaruvning iqtisodiy usullaridan faol foydalanishni rag‘batlantirdi, bu qaysidir darajada xo‘jalik yurituvchi subyektlar menejerlari va rahbarlarining boshqaruv uchun buxgalteriya axborotiga bo‘lgan qiziqishini oshirdi. Alohida tadbirkorlik tuzilmalarida buxgalteriya boshqaruvini hisobga olish zarurati paydo bo‘ldi. Bundan tashqari, mamlakat hisob yuritish amaliyotini hisob yuritishning xalqaro standartlari bilan uyg‘unlashtirishga doir huquiy talablar schyotlar nomenklaturasining boshqaruv va moliyaviy hisobi schyotlari kichik tizimiga tabaqalanishini shart qilib qo‘ydi. Ushbu jihatlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasini takomillashtirish omilining hal qiluvchi yo‘nalishlari bo‘ldi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘larida tasodifiy yo‘qotishlarni oldini olish borasida mamlakatimizda tizimli ishlar olib borilgan. Buning natijasida qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘urtalash tizimi ishlab chiqilgan hamda bugungi kunda samarali faoliyat yuritmoqda. Lekin agrar xo‘jalik tarmog‘ida tasodifiy yo‘qotishlar faqat tabiiy ofatlar natijasida sodir bo‘lmaydi. Shuning uchun ham ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarida tasodifiy xarajatlar tarkibiga kiruvchi xarajat moddalari reyestrini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz tomonimizdan taklif etilayotgan “tasodifiy yo‘qotishlar bo‘yicha xarajatlarni hisobga oluvchi schyoti” ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarida xarajatlardan samarali foydalanish hamda ularni mahsulot turlari bo‘yicha taqsimlashda muhim hisoblanadi. Quyida taklif etilayotgan schyotning modeli keltirilgan.



1-rasm. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarida tasodifiy xarajatlarni hisobga olish sxemasi

Ushbu sxemada ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarida tasodifiy xarajatlarni mahsulot tannarxiga kiritish yoki uni qoplash bo‘yicha buxgalteriya o‘tkazmalari keltirilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarida tasodifiy xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- tabiiy ofat natijasida yuzaga kelgan xarajatlar;
- sug‘urta natijalarida qoplanmagan xarajatlar;
- ishchi va xizmatchilar aybi bilan yuzaga kelgan xarajatlar;
- tabiiy yo‘qotish normalari va h.k.

Ushbu xarajat moddalarini biz tomonimizda taklif qilinayotgan 2200 – “Tasodifiy yo‘qotishlar bo‘yicha xarajatlarni hisobga oluvchi schyoti” alohida hisobga olinishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Shu bilan birga ushbu schyotni quyidagi analitik schyotlar bo‘yicha yuritilishi belgilandi:

2210 – “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha tasodifiy xarajatlarni hisobga oluvchi schyot”;

2220 – “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash natijasida yuzaga keladigan tasodifiy xarajatlarni hisobga oluvchi schyoti”.

Xulosa

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining bir yoki hatto bir necha turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik tadbirkorlik tuzilmalarida buxgalteriya hisobini oddiy sxema bo‘yicha yuritish mumkin. Bunday hisob yuritishning asosini daromadlar va xarajatlarni hisobga olish kitoblarini "daromad-xarajat" tamoyili bo‘yicha yuritish tashkil qiladi. Ko‘p tarmoqli dehqon xo‘jaligi ishlab chiqarishining shakllanishi va rivojlanishi hisob yuritish (ishlab chiqarish) obyektlarining ham, umuman hisob axborotining ham oshishiga olib kelishi muqarrar.

Shu munosabat bilan xo‘jalik operatsiyalarini batafsil tizimga solish zarurati yuzaga keladi. Shuning uchun, biz ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari faoliyatning buxgalteriya hisobini yuritishning sodda shakldagi hisob registrlarida va buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi amaldagi tizimining alohida schyotlarida tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.10.2017 yildagi «Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5199- sonli Farmoni.

2. Astaxov V.P. Teoriya buxgalterskogo ucheta / V.P. Astaxov. - M.: Ekspertnoye byuro-M, 2020.-351 s.

3. B.I. Isroilov, R.O.Xolbekov Buxgalteriya hisobi nazariyasi. –T.: “Tafakkur” nashriyoti 2020. 240 b.

4. Abdusalomova N.B, Temirov F.T. Moliyaviy hisob. “lnnovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” T.: -2021-y. 374 b.

5. B.Nidiz, H.Anderon, D.Kolduyell Princibles of Accounting. M: Finansi i ekonomika, 2 oye izd. 2014

6. Baymirzayev D.N. Ko‘p tarmoqlilik – fermer xo‘jaliklarida xatarlarni boshqarishning muhim yo‘nalishi. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2018 yil.

Temirov Furqat Tursoatovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti

KO‘P TARMOQLI FERMER XO‘JALIKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI SHAKLLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: *Ushbu tezisda ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobini yuritishda qo‘llaniladigan birlamchi ho‘jjatlarni yuritish tartibi va ularni takomillashtirish tartibi bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar. Ko‘p tormoqli fermer xo‘jaligi, buxgalteriya hisobi, hisob shakllari, jo‘rnal order, memorial order.

Iqtisodiyotimizni mutlaqo yangi asosda tashkil etish va yanada erkinlashtirish, uning huquqiy asoslarini takomillashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya hamda diversifikatsiya qilish bo‘yicha qator qonununiy va meyoriy hujjatlar, puxta o‘ylangan dasturlar qabul qilinib, ular izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish va uni barqarorlashtirishda fermer xo‘jaliklarining tutgan o‘rni hamda yalpi ichki mahsulot hajmidagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Shu boisdan, fermer xo‘jaliklari faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.10.2017 yilda PF-5199 sonli Farmoni e’lon qilindi.

Ushbu farmonda fermer xo‘jaliklarining asosiy qismi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan cheklanib qolayotgani, ularning qayta ishlash, saqlash, tayyor mahsulotlarni sotish va xizmatlar ko‘rsatish kabi ko‘p tarmoqli faoliyatini yo‘lga qo‘yishda mavjud imkoniyatlardan foydalanilmayotgani, fermer va dehqon xo‘jaliklari a’zolari va tomorqa yer egalarining qishloq ho‘jalik mahsulotlarini yetishtirish sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularni zarur

ma’lumot va axborotlar bilan ta’minlash hamda boshqa xizmatlar ko‘rsatish tizimi, shuningdek, fermer xo‘jaliklarida mehnat munosabatlarini tashkil etish holati bugungi kun talablariga javob bermayotgani ta’kidlab o‘tilgan.

Shu munosabat bilan yuqoridagi farmon ijrosini ta’minlash maqsadida respublikamizda ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarni tashkil qilish masalasi qo‘yildi. Ushbu masalani ijbiy hal etishda nafaqat uning tashkiliy tuzilmasini o‘zgartirish, balki ulardagi mavjud mol-mulkdan samarali foydalanish va uni nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nazoratni amalga oshirish buxgalteriya hisobi tizimi orqali amalga oshiriladi. Bunda, fermer xo‘jaliklarining rivojlanishi ko‘p jihatdan davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga, kredit va boshqa ta’minot tashkilotlarining xizmat ko‘rsatish darajasiga hamda fermer xo‘jaliklarida hisob yuritish tizimining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligiga bog‘liqdir. Shu boisdan, bugungi kunda fermer xo‘jaliklarining xisob tizimi holati va uni takomillashtirishdagi mavjud muammolarni hal qilish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi iqtisodiyotning shiddat bilan rivojlanishi ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi uchun buxgalteriya hisobining shakli, uning mazmuniga, faoliyatning barcha jarayonlarini boshqarishning axborot ta’minotiga mos kelishi lozim. Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobining rivojlanishi joylarda progressiv yo‘l bilan emas, balki sust, evolyutsion-kechikish yo‘li bilan kechmoqda, chunki ilmiy va o‘quv adabiyotlarda ushbu muammolarga yetarlicha e’tibor qaratilmayapti. Bunda, hisob yuritishning rivojlanish jarayonini tadqiq etish va fermer xo‘jaliklarida uni takomillashtirishning uslubiy qoidalarini tadqiq etish zaruratini belgilab beradi.

Buxgalteriya hisobining eski shakllari (memorial-order, kitob-order, soddalashtirilgan va h.k..) tez sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgan mazmunga mos kelmay qolayapti va nafaqat keyingi rivojlanish, balki boshqaruv funksiyalari sifatida ushbu tizimning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun ham to‘siq bo‘lmoqda. Shuning uchun buxgalteriya hisobining qulay va samarali shaklarini tanlash buxgalteriya hisobini rivojlantirishning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xususan, ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobini tashkil

etishda, hisob yuritish siyosatini tanlashda buxgalteriya hisobi shaklining amaliy ahamiyatini yetarlicha baholamaslik axborot tizimidagi uzilishlarga olib kelish bilan birga hisob yuritish oldiga qo‘yilgan vazifalarning hal etilishiga to‘sqinlik qiladi. Natijada, hisob yuritishning bunday shakli samarasiz ishlashning davomiyligini ta’minlashga olib keladi.

Buxgalteriya hisobining mazmuniga mos keluvchi shakl esa mazmunning evolyutsion-kechikish emas, balki progressiv rivojlanishini tezlashtiradi. Shuning uchun har qanday xo‘jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan, fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya xizmatining asosiy vazifalaridan biri hisob yuritishning mazmuniy tomonini ham, shakliy tomonini ham e’tibordan qochirmaslik, buxgalteriya hisobining kerakli shaklini tanlay olishdan iborat bo‘ladi.

Buxgalteriya xodimlarining amaliy faoliyati sifatida buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi qoidalar jumlasiga qonunlar, yo‘riqnomalar meyorlar, standartlar qoidalari, shuningdek, maxsus qoidalar, an’analar va hatto buxgalteriya faoliyatining odatlari ham kiradi.

Ta’kidlash joizki, hamma iqtisodiy (reja, hisob, tartibga soluvchi) axborot ham buxgalteriya hisobining mazmunini tashkil qilmaydi, bundan tashqari, hamma axborot ham boshqaruv ehtiyojlari uchun foydalanilmaydi. Foydalanilmaydigan axborot kerak emas.

Fikrimizcha, buxgalteriya hisobining mazmuni, uning aks ettiriladigan xo‘jalik hayoti dalillarining vaqt va makonda bog‘liqligi belgilarini ifodalovchi, tashkilotning xo‘jalik jarayonlarini boshqarish uchun muayyan xususiyatlarga ega bo‘lgan axborotlar yig‘indisi sifatida ta’riflash mumkin. Ushbu axborot o‘z ichki va tashqi foydalanuvchilarining ehtiyojlarini qondirishi kerak.

Buxgalteriya hisobining shakli va mazmunini rivojlantirish jarayonlarida ushbu jihatlarni hisobga olish lozim. Hisob yuritish shakli uning mazmunidan ajralmas bo‘lsa-da, lekin hisoblash texnikasi hamda hisob yuritish mazmuniy fragmentlarini shakllashtirish va modellashtirish metodologiyasi rivojlanishining hozirgi sharoitida u nisbiy mustaqillikka ega bo‘lishi mumkin.

Bugungi kunda buxgalteriya hisobida belgilar, raqamlar, formulalar, modellarni tuzish va ularni o‘zgartirishning aniq qoidalariga bo‘ysungan bilimlarni shakllashtirish (modellashtirish, dasturlash, sun’iy belgili yoki formulali til) usuli muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Belgili, formulali va hokazo ifodalarning qarraligi, o‘zgartirishlarning tezkorligi, ularni aniq matematik va mantiqiy qoidalarga bo‘ysundirish imkoniyati, bilish vazifalarining shakl darajasida muvaffaqiyatli yechilishini ta’minlaydi va buxgalteriya hisobida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi (ABT) dan yanada keng foydalanish imkonini beradi. Shu bilan birga shakllashtirish teskari jarayon, belgili, formulali va boshqa "formalizmni" talqin etish, ya’ni mazmuniga izoh berish bilan to‘ldirilishi lozim. Aks holda amaliyotda ko‘pincha buxgalteriya hisobi shakllarini zaiflashtirish, asossiz soddalashtirish yoki hisob yuritishni avtomatlashtirish uchun yagona metodologik yondashuvdan bebahra qolgan, hisob yuritishning oldida turgan vazifalarni, uning belgilangan funksiyalarini, asosiy tamoyillarini, unga nisbatan qo‘yiladigan taxminlar va talablarni hisobga olmaydigan ko‘p sonli dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish yo‘li bilan ularni murakkablashtirish tendensiyasi namoyon bo‘ladi.

Natijada, buxgalteriya hisobining shakli o‘z mazmunini tashkil etish, ifodalash va uning mavjud bo‘lishi vositalaridan birdan-bir maqsadga aylanadi, ya’ni hisob yuritish shakli hisob yuritish shakli uchun.

Fikrimizcha, buxgalteriya hisobini takomillashtirishda buxgalteriya hisobining shakli va mazmunini rivojlantirishning dialektik yagonaligidan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi faoliyatida sodir bo‘lgan xo‘jalik jarayonlari buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shaklidan, shuningdek, tegishli hisob registrlarida va buxgalteriya hisobining ishchi schyotlar rejasida yuritilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki hisobga olish uchun taklif etilayotgan ushbu ishchi schyotlarning har biri hisob registrlari va shakllarida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.10.2017 yildagi «Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5199- sonli Farmoni.
2. Ucheta / V.F. Paliy, Y.V. Sokolov. - M.: Finansi, 2000. - 304 s.
3. B.I. Isroilov, R.O.Xolbekov Buxgalteriya hisobi nazariyasi. –T.: “Tafakkur” nashriyoti 2020. 240 b.
4. Sokolov Y.V. Osnovi teorii buxgalterskogo ucheta / Y.V. Sokolov. -M.: Finansi i statistika, 2005. - 496 s.
5. B.Nidiz, H.Anderon, D.Kolduyell Princibles of Accounting. M: Finansi i ekonomika, 2 oye izd. 2014
6. Baymirzayev D.N. Ko‘p tarmoqlilik – fermer xo‘jaliklarida xatarlarni boshqarishning muhim yo‘nalishi. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2018 yil.

Шубҳали дебиторлик қарзлари бўйича резерв ташкил этишни молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш

Холпўлотов Рустам Ўктамович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
ТДИУ «Бухгалтерия ҳисоби» кафедраси ассистенти
e-mail: x.oktamovich@tsue.uz; ORCID: 0009-0003-6662-1715
(+998 99-081-00-81)

Аннотация: Бир корхонанинг бошқа хўжалик юритувчи субъектлар олдидаги дебиторлик ва кредиторлик қарзларининг бажарилмай қолиши занжирсимон таъсирини юзага келтириб, жуда кўплаб корхоналарнинг молиявий ҳолатига ва охир-оқибатда мамлакат иқтисодиётига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Мақолада хўжалик юритувчи субъектларда шубҳали дебиторлик қарзлари бўйича резерв ташкил этишни йўлари баён этилган.

Таянч сўлар: Дебитор қарздорлик, молиявий инструметлар, шубҳали қарз, интервал усули, экспертлар усули, статистик усул.

Ҳозирги кунга келиб, Ўзбекистон Республикасида ялпи ички маҳсулот

ҳажми сезиларли даражада ошиб бормоқда, ўз навбатида, давлат бюджетининг даромад қисми ҳам ошмоқда. Бу каби иқтисодий ўзгаришлар мамлакатда макроиқтисодий барқарорликка эришиш, пул-валюта ва тўлов интизоми мустаҳкамланиб боришига асос бўлмоқда. Нефът-газ саноати корхоналарининг молиявий барқарорлиги улар ўртасидаги дебиторлик ва кредиторлик қарзларининг ўз вақтида бажарилиб борилишига бевосита боғлиқ.

Бир корхонанинг бошқа хўжалик юритувчи субъектлар олдидаги дебиторлик ва кредиторлик қарзларининг бажарилмай қолиши занжирсимон таъсирини юзага келтириб, жуда кўплаб корхоналарнинг молиявий ҳолатига ва охир-оқибатда мамлакат иқтисодиётига салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

Дебитор қарздорлик молиявий инструметлар таркибий қисми ҳисобланади. «Ўзбекнефтгаз» АЖнинг ҳисоб сиёсатида дебиторлик қарзига қуйидагича тариф берилган. Дебиторлик қарзлари - бу харидорларнинг ёки бошқа бизнес контрагентларининг компания олдидаги қўшма корхона шартномалари бўйича тақдим этилган товарлар ва хизматлар учун пул тўлаш мажбуриятлари[67].

Республикамизда муддати ўтиб кетган дебиторлик қарзи фоизини Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1995 йил 12 майдаги ПФ-1154-сон «Халқ хўжалигида ҳисоб-китоблар ўз вақтида ўтказилиши учун корхона ва ташкилотлар раҳбарларининг маъсулиятини ошириш борасидаги чора-тадбирлар тўғрисида»ги Фармони билан белгиланган[68]. Ушбу фармонда корхоналарга етказиб бериладиган маҳсулот қийматининг камида 15 фоизи олдиндан тўланмаса, маҳсулот жўнатиши тақиқланган, маҳсулотлар амалда жўнатилган кундан бошлаб 90 кун ўтгандан кейин, етказиб берилган маҳсулотлар учун маблағлар келиб тушмаганлиги муддати ўтиб кетган дебиторлик қарзи деб ҳисобланиши белгиланган.

[67] “Ўзбекнефтгаз” АЖнинг маълумотлари асосида тайёрланди.
[68] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 12.05.1995 йилдаги ПФ-1154-сон

Шу билан бир вақтда айрим соҳалар ва маҳсулотлар учун муддати ўтиб кетган дебиторлик қарзи фоизини аниқлашнинг истиснолар ҳам мавжуд.

Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 19 майдаги 225-сон «Нефть маҳсулотлари билан таъминлаш тизимини ва уларни сотишда ҳисоб-китоб қилиш механизмини янада такомиллаштириш тўғрисида»ги Қарорига биноан 2008 йил 1 апрелдан бошлаб барча нефть маҳсулотлари истеъмолчилар учун (нефтни қайта ишлаш заводларидан «Ўзбекнефтгаз» АЖнинг нефть базаларига ва давлат эҳтиёжлари учун қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштириш ҳажми учун қишлоқ хўжалиги истеъмолчиларига дизель ёнилғиси етказиб бериш бундан мустасно) олдиндан мажбурий ҳақ тўлашнинг қуйидаги миқдорлари белгиланган. Унга кўра автомобиль бензини, дизель ёнилғиси ва суюлтирилган газ учун 100 фоиз миқдорида олдиндан тўлов белгилаб қўйилган. Бошқа нефть маҳсулотлари учун узил-кесил ҳисоб-китобларни 60 кун доирасида амалга оширган ҳолда, камида 50 фоиз миқдорида олдиндан тўлов белгиланган.

Юқоридаги тартиб қоидалардан кўриниб турибдики, тақиқот объекти бўлган «Ўзбекнефтгаз» АЖда баъзи турдаги нефть маҳсулотлари учун 50 фоиз миқдорида олдиндан тўлов ва қолан қисми 60 кун давомида амалга оширилиши эвазига дебиторлик қарздорлик вужудга келади.

Бухгалтерия ҳисобида қарздорликни баҳолаш усуллари шубҳали қарз резерв аниқлаш мазмунига асосланган.

Олима Д.М.Мавлянова фикрича «Шубҳали қарз - бу корхонанинг шартномада белгиланган муддатларда тўланмаган дебиторлик қарздорлиги бўлиб тегишли кафолатлар билан таъминланмаганлигидир[69]».

Молиявий ҳисоботларда ошкор қилинадиган дебиторлик қарзларининг баъзи қисмлари унинг қийматини қабул қилмаса, ҳақиқий вазиятни нотўғри акс эттириши мумкин. Шу боисдан, хўжалик юритувчи субъектлар зарарни

[69] Д.М.Мавлянова “Жорий активлар ҳисоби, таҳлили ва аудитини услубий жиҳатларини такомиллаштириш” диссертацияси Тошкент-2020

ҳисобга олишда шубҳали қарзлар бўйича резервлар яратиш талаб қилинади. Бундай резервларни яратиш тадбиркорлик субъекти молиявий аҳволининг ҳақиқий ҳолатига боғлиқ.

Белгиланган муддатда қайтарилмайдиган ва тегишли кафолатлар билан таъминланмаган хўжалик юритувчи субъектларнинг қарзлари шубҳали ҳисобланади. Контрагент томонидан тўлов муддати бузиши ёки контрагентнинг молиявий муаммолари тўғрисида олинган маълумот резервни яратиш учун сабаб бўлиши мумкин.

Халқаро тажрибага мувофиқ шубҳали қарзлар учун резерв яратишда қуйидаги усуллардан фойдаланиш ва уларни ҳисоб сиёсатида акс эттириш мақсадга мувофиқ:

1. Интервал усули.

2. Экспертлар усули.

3. Статистик усул.

1. Интервал усули. Резервга ажратмалар миқдори кечикиш муддатига кўра қарз миқдори фоиз ставкаси сифатида ҳар чоракда (ойлик) ҳисобланади. Яъни ҳар бир шубҳали қарз бўйича резерв учун ажратилган маблағлар кечикиш даври билан мутаносибдир.

Резервни шу тарзда ҳисоблаш учун қуйидаги алгоритмни қўллаш тавсия этилади:

1-жадвал

Резервни ҳисоблаш алгоритми (тартиби)[70]

Мажбуриятларни бажармаслик муддати, кунлар	Ҳаракатлар
45 кундан кам	Яратмаслик
45 дан 90 кунгача	Қарз миқдоридан 50 % ҳажмида
90 дан ортиқ	Қарзнинг тўлиқ миқдорига

2. Эксперт усули. Ҳар бир шубҳали қарз учун хўжалик юритувчи субъектнинг фикрига кўра, юқори эҳтимоллик билан қайтарилиши мумкин

[70] Муаллиф томонидан шакллантирилди

бўлмаган миқдорда резерв тузилади.

3. Статистик усул. Энг кўп вақт талаб этувчи вариант мазкур корхоналарнинг статистик маълумотлари бўйича резервга ажратмалар миқдорини бир неча солиқ даврлари бўйича қарз улуши сифатида аниқлашдан иборат бўлиб, улар дебиторлик қарздорлиги умумий суммасига нисбатан қопланмаган бўлиб қолади.

Резерв миқдорини ҳар чоракда (ойда) ҳисоблаш керак. Масалан, харидорларнинг умумий қарздорлик суммаси бўйича улар томонидан тўланмаган маҳсулот (товар, иш, хизмат)лар улуши.

Ҳар чоракнинг (ойнинг) охирги кунида резерв миқдори қуйидаги формула бўйича белгиланади:

1-расм. Ҳисобот даври якунида шубҳали қарзлар бўйича резерв суммасини аниқлаш[71]

Статистик усулда, резервларнинг олинган қиймати аввалги чорак (ой) нинг охирги кунида ҳосил бўлган шубҳали резервларнинг қийматидан катта бўлса, улар билан бошқа харажатлар (захирани ҳисоблашдан олдин) ўртасидаги фарқни киритиш лозим. Агар у камроқ бўлса, бошқа даромадлар орасидаги фарқни (резервни тиклаш) ўз ичига олади.

Интервал ёки эксперт усули қўлланилганда қуйидаги вариантларни танлаш мумкин:

• агар резерв яратилган қарзлар умидсиз деб топилса, у резервдаги маблағлар ҳисобидан қопланади. Агар резервда пул маблағлари етарли бўлмаса, резерв ҳисобидан қопланмаган қарз суммаси бошқа операцион харажатларга ҳисобдан чиқарилади;

[71] Муаллиф томонидан тузилган

• агар резерв яратилган қарз қопланса, резерв миқдори тикланади, яъни бошқа операцион даромадларга киритилади.

Статистик усулни қўллашда қуйидаги вариантлар бўлиши мумкин:

• агар резервни яратиш бўйича қарзлар умидсиз деб топилса, қарз резервлар ҳисобидан ҳисобдан чиқарилади. Агар резерв суммаси етарли бўлмаса, у ҳолда резерв ҳисобидан қарзнинг қопланмай қолган қисми бошқа операцион харажатларда ҳисобдан чиқарилади;

• агар резерв яратилмаган тоифадаги, шунингдек, ҳар бир қарзни тўлашда қарз умидсиз деб тан олинса, у ҳолда резерв қарзнинг миқдори ўзгартирилмайди.

Шунингдек, шубҳали қарзлар учун резервлар яратилганда, резерв яратишнинг у ёки бу усулини танлашдан олдин, у нима учун яратилганлигини аниқ тушуниш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги «Молиявий ҳисобот нинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-4611-сон Қарори. https://lex.uz/docs/4746047.
2. Ю.А.Астахова "Современные подходы к учету финансовых инструментов" тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.12. 2013г.
3. В.В.Ковалев «Финансовый анализ: Управление капиталом. Выбор инвестиций. Анализ отчетности» - М.: Финансы и статистика, 1995.
4. МҲХС (IFRS) 7 "Молиявий инструментлар: ахборотни ошкор қилиш". тан олиш" номли молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари.
5. МҲХС (IAS) 32 "Молиявий инструментлар: тан олиш" номли молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари.
6. МҲХС (IFRS) 9 "Молиявий инструментлар" номли молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари.
7. http: ifrs.com

Нефть ва газ саноати корхоналарида жорий активлар ҳажми ўзгариш тенденцияларини баҳолашда таҳлилнинг самарали усулларидан фойдаланиш

Мавлянова Дилобар Махкамовна, Тошкент давлат иқтисодиёт университети "Бухгалтерия ҳисоби " кафедраси доценти

e-mail: d.mavlyanova@mail.ru
ORCID: 0000-0002-7947-5265

Аннотация. Ушбу мақолада кўп омилли таҳлилни амалга ошириш, омилларнинг муҳимлилик даражасини белгилаб олиш, асосий вазифалардан моделлаштиришнинг спецификация босқичи, яъни моделда иштирок этувчи омил кўрсаткичларини ажратиб олиш босқичи кўп омилли динамик моделларни шакллантириш хақида сўз боради.

Аннотация. В этой статье будет рассказано о реализации многофакторного анализа, определении степени значимости факторов, выделении этапа моделирования из основных задач, то есть этапа выделения факторных показателей, участвующих в модели, формировании многофакторных динамических моделей.

Калит сўзлар: нефть маҳсулотлари, энергия ресурслари, индекс, таҳлил, омил, тоғ-кон саноати, ёқилғи-энергетика ресурслари, активлар пассивлар, ҳисобот, баҳо.

Ключевые слова: нефтепродукты, энергоресурсы, индекс, анализ, фактор, горнодобывающая промышленность, ресурсы, активные, пассивные, отчеты, оценки.

Кириш. Жаҳон мамлакатлари ижтимоий-иқтисодий тизимларида юз бераётган глобал ўзгаришларнинг асосий йўналишларидан бири табиий энергия ресурсларининг камайиб бориши билан ёқилғи-энергетика ресурсларига бўлган талабнинг ортиб бориши, улар баҳоларининг ўсиб бориши ҳамда табиий энергия ресурсларига муқобил бўлган энергия

манбаларининг инсоният эҳтиёжига йўналтирилаётганлигини таҳлиллар кўрсатиб бермоқда. Ушбу тенденциялар бир мамлакат, минтақа ва қитъалар ҳудудидан чиқиб, бутун жаҳонни қамраб олмоқда.

Методология. Айтиб ўтилган глобал ўзгаришлар сўнгги даврларда мамлакатимиз энергетика тизимларида ҳам кузатилаётганлиги юз бераётган ўзгариш тенденцияларини таҳлил қилган ҳолда келгуси ўзгаришларнинг ҳаракат траекторияларини баҳолаган ҳолда фаолиятни ташкил этиш муҳим ҳисобланади.

Натижа. Нефть ва газ саноати корхоналарида юз бераётган ўзгаришларни баҳолашда, аввало, тармоқда фаолият олиб бораётган йирик корхоналарнинг вақт оралиқларидаги ишлаб чиқариш ҳажмларини таҳлил қилиш мақсадга мувофиқ. Албатта, тренд ўзгаришларини баҳолашда таҳлилнинг анъанавий усулларидан ҳисобланган индекслар усулидан фойдаланиш ўзгаришларнинг умумий йўналишларини аниқлашда самаралидир.

Мамлакатимиз тоғ-кон саноати таркибидаги қазиб олувчи йирик корхоналар томонидан 2017-2023-йилларда нефть ва газ қазиб олиш ҳажмларининг ўзгариш ҳолати юқорида айтиб ўтилган фикрларнинг ёқилғи қазиб олиш соҳасида ҳам пасайиш тенденциялари кузатилаётганлигини кўрсатади (3.1-жадвал).

3.1-жадвал

Тоғ-кон саноати томонидан нефть ва газ қазиб олиш кўрсаткичлари[72]

Йиллар	Нефть маҳсулоти				Табиий газ			
	Қазиб олинган, минг тн	Мутлоқ ўзгариш, минг тн	Нисбий ўзгариш, %	Қўшимча нисбий ўсиш, %	Қазиб олинган, млн. м^3	Мутлоқ ўзгариш, млн. м^3	Нисбий ўзгариш, %	Мутлоқ нисбий ўсиш, %

[72] Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги статистика агентлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

2017	685,2	x	x	x	63492,6	x	x	x
2018	745,7	60,5	108,8	8,8	60396,5	-3096,1	95,1	-4,9
2019	699,5	-46,2	93,8	-6,2	60537,5	141	100,2	0,2
2020	752,2	52,7	107,5	7,5	49736,2	-10801,3	82,2	-17,8
2021	774,0	21,8	102,9	2,9	53802,0	4065,8	108,2	8,2
2022	787,8	13,8	101,8	1,8	51664,5	-2137,5	96,0	-4,0
2023	770,1	-17,7	97,8	-2,2	46710,3	-4954,2	90,4	-9,6

Жумладан, нефть қазиб олиш ҳажмларида 2019 ва 2023-йилларда маълум даражада пасайган бўлса-да (мос равишда 6,2 % ва 2,2 %) табиий газ қазиб олишда ушбу тенденция аниқроқ кўринади. Табиий газ қазиб олиш ҳажмида 2019 ва 2021 йилларда маълум даражада ўсиш кузатилади (мос равишда 0,2 % ва 8,2 %), бироқ қолган давр оралиғида йирик корхоналар томонидан табиий газ қазиб олиш ҳажми 4-18 % атрофида пасайиш тенденциясини кўрсатади. Албатта, қазиб олиш ҳажмидаги бу пасайиш тенденцияси нефть ва табиий газни қайта ишловчи корхоналарнинг физик ҳажм ииндексларига ўз таъсирини кўрсатади (3.1-расм).



3.1-расм. Тоғ-кон саноати томонидан нефть (минг тн) ва табиий газ (млн. м^3) қазиб олиш кўрсаткичлари динамикаси[73]

Таҳлил. Тадқиқот объекти сифатида олинган “Ўзнефтгаз” АК таркибидаги корхоналарнинг асосий қисмини нефть маҳсулотларини қайта ишловчи корхоналар таўкил этишини ҳисобга олган ҳолда тоғ-кон саноати томонидан қазиб олинган нефть маҳсулотларини қайта ишловчи йирик саноат корхоналари томонидан ишлаб чиқарилган автомобиль бензини ва дизел ёқилғиси ҳажмининг 2017-2023-йиллар давомидаги ҳажмини вақтли қаторлар кўринишида олиб, индекслар усулидан фойдаланган ҳолда тармоқ

[73] Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

корхоналари томонидан ишлаб чиқарилган маҳсулот ҳажмидаги ўзгариш тенденциялари баҳоланди (3.2-жадвал).

3.2-жадвал

Нефть ва газ саноати йирик корхоналари томонидан автомобиль бензини ва дизел ёқилғиси ишлаб чиқариш кўрсаткичлари[74]

Йиллар	Автомобиль бензини				Дизел ёқилғиси			
	Ишлаб чиқарилган, минг тн	Мутлоқ ўзгариш, минг тн	Нисбий ўзгариш, %	Қўшимча нисбий ўсиш, %	Ишлаб чиқарилган, минг тн	Мутлоқ ўзгариш, минг тн	Нисбий ўзгариш, %	Қўшимча нисбий ўсиш, %
2017	1106,2	x	x	x	963,0	x	x	x
2018	1146,9	40,7	103,7	3,7	1080,7	117,7	112,2	12,2
2019	1025,1	-121,8	89,4	-10,6	1030,5	-50,2	95,4	-4,6
2020	1016,3	-8,8	99,1	-0,9	931,1	-99,4	90,4	-9,6
2021	1128,2	111,9	111,0	11,0	755,4	-175,7	81,1	-18,9
2022	1257,7	129,5	111,5	11,5	800,1	44,7	105,9	5,9
2023	1333,1	75,4	106,0	6,0	1012,5	212,4	126,5	26,5

Жадвал маълумотларидан кўринадики, таҳлил этилаётган даврда йирик саноат корхоналари томонидан ишлаб чиқарилган бензин ва дизел ёқилғиси ҳажми ўзгаришида вақт оралиқлари бўйича маълум бир тебранишлар кузатилади.

Автомобиль бензини ишлаб чиқариш ҳажми 2018-йилда аввалги йилга нисбатан ортган бўлса (мутлоқ ўзгариш 40,7 минг тн, нисбий ўзгариш 103,7 %, қўшимча нисбий ўсиш 3,7 %), 2019 ва 2020 йилларда кўрсаткичнинг сезиларли даражада (2019-йилда мутлоқ ўзгариш – 121,8 минг тн, нисбий ўзгариш – 89,4 %; 2020-йилда мутлоқ ўзгариш – 8,8 минг тн, нисбий ўзгариш – 99,1 %) пасайиши кузатилса, 2021 йилдан бошлаб йирик саноат корхоналари томонидан автомобиль бензини ишлаб чиқариш ҳажмида барқарор ўсиш

[74] Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги статистика агентлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

(2021-йилда мутлоқ ўзгариш – 111,9 минг тн, нисбий ўзгариш – 111,0 %; 2022-йилда мутлоқ ўзгариш – 129,5 минг тн, нисбий ўзгариш – 111,5 %; 2023-йилда мутлоқ ўзгариш – 75,4 минг тн, нисбий ўзгариш – 106,0 %) кузатилади.

Дизел ёқилғиси ишлаб чиқариш ҳажмида ҳам 2018-йилда аввалги йилга нисбатан ўсиш (мутлоқ ўзгариш 117,7 минг тн, нисбий ўзгариш 112,2 %, қўшимча нисбий ўсиш 12,2 %) юз берган бўлса,, 2019-2021 йилларда кўрсаткичнинг сезиларли даражада пасайиши (2019-йилда мутлоқ ўзгариш – 50,2 минг тн, нисбий ўзгариш – 95,4 %; 2020-йилда мутлоқ ўзгариш – 99,4 минг тн, нисбий ўзгариш – 90,4 %; 2021-йилда мутлоқ ўзгариш – 175,7 минг тн, нисбий ўзгариш – 81,1 %) кузатилади. Бироқ 2022 йилдан бошлаб йирик саноат корхоналари томонидан бу турдаги маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмида барқарор ўсиш (2022-йилда мутлоқ ўзгариш – 44,7 минг тн, нисбий ўзгариш – 105,9 %; 2023-йилда мутлоқ ўзгариш – 212,4 минг тн, нисбий ўзгариш – 125,5 %) кузатилади (3.2-расм).



3.2-расм. Нефть ва газ саноати йирик корхоналари томонидан автомобиль бензини ва дизел ёқилғиси ишлаб чиқариш кўрсаткичлари динамикаси[75]

Юқорида таҳлиллар мамлакатимиз бўйича йирик нефть ва газ саноати корхоналари томонидан нефть ва табиий газ қазиб олиш ҳамда уларни қайта ишлаш асосида ишлаб чиқарилган асосий маҳсулот турлари ҳажмининг вақтли қаторлар асосидаги ўзгариш тенденцияларини баҳолаш имконини беради.

[75] Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Ушбу кўрсаткичлардан ташқари таҳлил учун олинган “Ўзнефтгаз” АК таркибидаги корхоналарнинг 2016-2022-йиллардаги фаолиятини акс эттирувчи молиявий ҳисоботлари асосида ушбу тизим таркибидаги корхоналардаги активлар ҳамда уларнинг манбалари ва мажбуриятлари ҳажмининг ўзгаришидаги тенденцияларни аниқ кўрсаткичлар асосида таҳлил қилинди.

3.3-жадвал

“Ўзнефтгаз” АК тизимидаги корхоналарнинг активлари таркиби ва динамикаси[76]

Йиллар	Узоқ муддатли активлар				Жорий активлар			
	Қиймати, млн. сўм	Мутлоқ ўзгариш, млн. сўм	Нисбий ўзгариш, %	Қўшимча ўсиш, %	Қиймати, млн. сўм	Мутлоқ ўзгариш, млн. сўм	Нисбий ўзгариш, %	Қўшимча ўсиш, %
2016	9474506,2	x	x	x	7357604,6	x	x	x
2017	29449234,0	19974727,8	310,8	210,8	6294647,0	-1062957,6	85,6	-14,4
2018	30187946,6	738712,6	102,5	2,5	9228758,8	2934111,8	146,6	46,6
2019	48285730,1	18097783,5	160,0	60,0	19395991,9	10167233,1	210,2	110,2
2020	51610348,5	3324618,4	106,9	6,9	13504947,6	-5891044,3	69,6	-30,4
2021	60320882,4	8710533,9	116,9	16,9	14087704,1	582756,5	104,3	4,3
2022	62868684,1	2547801,7	104,2	4,2	15496433,4	1408729,3	110,0	10,0

“Ўзнефтгаз” АК таркибидаги корхоналарнинг 2016-2022-йиллардаги активлари таркибининг вақт давомидаги ўзгаришлари таҳлили ўтган 7 йил давомида тизим корхоналари томонидан жами узоқ муддатли активлар қиймати мунтазам ошириб борилганлигини, айниқса 2017, 2019 ва 2021-йилларда узоқ муддатли активларга манбалардан маблағларнинг сезиларли даражада кўпроқ йўналтирилганлиги ҳисобига, ушбу йилларда тизим корхоналари узоқ муддатли активлари ҳажмининг ортишида кескин сакрашлар бўлгани кузатилади (3.3-жадвал).

[76] “Ўзнефтгаз” АК нинг 2016-2022-йиллар учун молиявий ҳисоботлари асосида муаллиф томонидан шакллантирилган.

Тизим корхоналари жами узоқ муддатли активлари ҳажмининг 2016, 2018, 2020 ва 2022-йиллардаги ўзгаришида ўртача 2,5-6,9 % лик ўсиш корхоналарда узоқ муддатли активлар мунтазам янгиланиб, уларнинг фаол қисми ортиб бораётганлигини кўрсатади.

Тизим корхоналарининг жами жорий активлари ҳажмидаги ўзгариш тенденциялари узоқ муддатли активлардаги ўзгаришлардан кескин фарқ қилиб, таҳлил қилинаётган даврда жорий активлар жами қиймати ўзига хос тебраниш тенденциясига эга. Вақт оралиқлари бўйича тизим корхоналари жами жорий активлари қийматида 2017 ва 2020 йиллар давомида кескин пасайиш кузатилса, қолган даврларда жорий активларнинг умумий қийматида барқарор (2018 ва 2019-йилларда кескин) ўсиш кузатилади (3.3-расм).



3.3-расм. “Ўзнефтгаз” тизими корхоналарида узоқ муддатли ва жорий активлар ҳажмининг ўзгариш динамикаси[77]

Жорий активлар ҳажмининг вақт оралиғидаги ўзгаришлар трендида юқорида айтиб ўтилган даврлардаги пасайиш тенденцияларини аниқроқ кўриш мумкин.

Таҳлил этилаётган даврда тизим корхоналарининг умумий активлари, шу жумладан, узоқ муддатли ва жорий активлари ҳажмининг ўзгариш динамикаси аниқ шароитда иқтисодий фаолиятни ташкил этиш ҳамда фаолият натижадорлигини таъминлаш учун етарли даражада эканлиги кўринади.

Албатта, активларнинг шаклланиши корхона балансининг пассив

[77] “Ўзнефтгаз” АК тизими молиявий натижалари асосида муаллиф томонидан шакллантирилган.

қисмидаги маблағларнинг ўзгаришига боғлиқ бўлиб, пассивлар таркибидаги корхоналарнинг ўз маблағлари ва жалб этилган мажбуриятлар ҳисобига активлар ҳажмининг ўзгариши юзага келади.

“Ўзнефтгаз” АК таркибидаги корхоналар пассивлари ҳажми ва таркибининг 2016-2022-йиллардаги ўзгариши тизим корхоналари ихтиёридаги активларнинг шаклланиш манбаларида ҳам ўзига хос ўзгариш тенденцияси мавжудлигини кўрсатади (3.4-жавдал).

3.4-жадвал

“Ўзнефтгаз” АК тизимидаги корхоналарнинг пассивлари таркиби ва динамикаси[78]

Йиллар	Ўз маблағларининг манбалари				Мажбуриятлар			
	Қиймати, млн. сўм	Мутлоқ ўзгариш, млн. сўм	Нисбий ўзгариш, %	Қўшимча ўсиш, %	Қиймати, млн. сўм	Мутлоқ ўзгариш, млн. сўм	Нисбий ўзгариш, %	Қўшимча ўсиш, %
2016	8112441,1	x	x	x	8719669,7	x	x	x
2017	20045431,7	11932990,6	247,1	147,1	15698449,3	6978779,6	180,0	80,0
2018	21203277,0	1157845,3	105,8	5,8	18213428,4	2514979,1	116,0	16,0
2019	34169359,9	12966082,9	161,2	61,2	30812362,0	12598933,6	169,2	69,2
2020	46762646,2	12593286,3	136,9	36,9	18352649,9	-12459712	59,6	-40,4
2021	50018956,4	3256310,2	107,0	7,0	19929459,5	1576809,6	108,6	8,6
2022	49458402,5	-560553,9	98,9	-1,1	28906714,9	8977255,4	145,0	45,0

Кўрилаётган даврдаги тизим корхоналарининг пассивлари таркибидаги ўз маблағлари манбалари ҳажми 2022 йилгача бўлган даврда сезиларли диапазондаги тебранишлар билан ўсиб борган бўлиб, 2022 йилда бу маблағлар ҳажмида аввалги йилга қараганда 560553,9 млн. сўм (-1,1 %)га пасайиш юз берган. Бироқ тизим корхоналари активларини шакллантирувчи ўз маблағлари 2017, 2019 ва 2020 йилларда узоқ муддатли активлар ҳажмининг ортиши ҳисобига ўз маблағлари ҳажми ҳам ортган.

Таҳлил этилаётган даврда активлар ҳажмининг ўсиши билан боғлиқ

[78] “Ўзнефтгаз” АК нинг 2016-2022-йиллар учун молиявий ҳисоботлари асосида муаллиф томонидан шакллантирилган.

ҳолда пассивлар ҳажмининг ортиши ўз маблағларининг қолган қисмини мажбуриятлар ҳисобига шакллантирган. Бунда тизим корхоналарининг умумий мажбуриятлари ҳажми фақатгина 2020 йилда сезиларли даражада (40,4 % га) камайган. Қолган йилларда эса мажбуриятлар ҳажми тебранувчан трендда ўтган даврга нисбатан ўсиб борган (3.4-расм).



3.4-расм. “Ўзнефтгаз” тизими корхоналарида ўз маблағлари манбалари ва мажбуриятлар ҳажмининг ўзгариш динамикаси[79]

Тизим корхоналари пассивлари таркибидаги ўз маблағлари ва четдан жалб қилинган маблағлар ҳажмининг трендларидан пассивлар таркибидаги ўзгариш тенденцияларини аниқ баҳолаш мумкин.

Таҳлил жараёнининг асосий мақсади “Ўзнефтгаз” АК тизимидаги корхоналарда жорий активлар ҳажми ўзгаришидаги тенденцияларни баҳолаш эканлигини назарда тутган ҳолда ўзгариш тенденцияларини баҳолашда асосий эътибор тизим корхоналарининг жорий активларининг тасниф бўйича таркибидаги ўзгаришларни вақтли қатор кўрсаткичлари бўйича индекслар усулидан фойдаланган ҳолда кўриб чиқилди.

Тизим корхоналари жорий активлари ҳажмини тасниф бўйича дастлаб фодаланиш соҳаси бўйича кўриб чиқамиз. Фойдаланиш соҳаси бўйича корхоналарнинг жорий активлари ишлаб чиқариш ҳамда муомала соҳасидаги жорий активларга бўлинади ва ушбу тасниф бўйича жорий активлар таркиби корхона фаолиятининг асосий қисми қайси фаолиятдан иборат эканлигини

[79] “Ўзнефтгаз” АК тизими молиявий натижалари асосида муаллиф томонидан шакллантирилган.

кўрсатади (3.5-жадвал).

3.5-жадвал

“Ўзнефтгаз” АК тизимидаги корхоналарнинг ишлаб чиқариш ва муомала соҳасидаги жорий активлари таркиби ҳамда динамикаси[80]

Йиллар	Ишлаб чиқариш соҳасидаги жорий активлар				Муомала соҳасидаги жорий активлар			
	Қиймати, млн. сўм	Мутлоқ ўзгариш, млн. сўм	Нисбий ўзгариш, %	Қўшимча ўсиш, %	Қиймати, млн. сўм	Мутлоқ ўзгариш, млн. сўм	Нисбий ўзгариш, %	Қўшимча ўсиш, %
2016	188,1	x	x	x	7357416,5	x	x	x
2017	145,8	-42,3	77,5	-22,5	6294427,0	-1062989,5	85,6	-14,4
2018	120,8	-25,0	82,9	-17,1	9228563,8	2934136,8	146,6	46,6
2019	607644,9	607524,1	503017,3	502917,3	18787652,5	9559088,7	203,6	103,6
2020	750205,2	142560,3	123,5	23,5	12748756,6	-6038895,9	67,9	-32,1
2021	1269134,2	518929,0	169,2	69,2	12812738,4	63981,8	100,5	0,5
2022	1070780,5	-198353,7	84,4	-15,6	14420612,3	1607873,9	112,5	12,5

Ишлаб чиқариш соҳасидаги жорий активлар қийматининг 2019 йилгача бўлган ҳажми тизим таркибидаги корхоналарнинг асосий қисми воситачи ёки етказиб бериш билан шуғулланувчи корхоналардан иборат эканлигини кўрсатиб, 2019 йилдан кейинги даврда тизимга нефть ва газ маҳсулотларини ишлаб чиқарувчи корхоналар қўшилиши ҳисобига ишлаб чиқариш соҳасидаги жорий активлар ҳажми ортган.

Тизим корхоналарининг ишлаб чиқариш соҳасидаги жорий активлари ҳажми 2019 йилгача бўлган даврда пасайиш трендига эга бўлиб, 2019 йилда ушбу кўрсаткич қиймати жуда катта сакраш хусусиятига ҳамда 2020 ва 2021 йилларда барқарор ўсиш тенденциясини кўрсатади. Бироқ 2022 йил якуни бўйича тизим корхоналарининг ишлаб чиқариш соҳасидаги жорий активлари ҳажми аввалги йилдаги кўрсаткич ҳажмига нисбатан 15,6 % га пастлаган.

Муомала соҳасидаги жорий активлар ҳажмининг таҳлил давридаги динамикасида эса ўта кескин ўзгаришлар нисбатан юмшоқроқ ҳолатда юз

[80] “Ўзнефтгаз” АК нинг 2016-2022-йиллар учун молиявий ҳисоботлари асосида муаллиф томонидан шакллантирилган.

берган. Жумладан, тизим таркибидаги корхоналарнинг муомала соҳасидаги жорий активлари ҳжми 2017 ва 2020 йилларда аввалги йилга нисбатан пасайиш трендига эга бўлса, қолган йиллардаги ушбу кўрсаткичнинг ўзгаришида ўсиш тенденцияси кузатилади (3.5-расм).

3.5-расм. “Ўзнефтгаз” АК тизимидаги корхоналарнинг ишлаб чиқариш ва муомала соҳасидаги жорий активлари ўзгариш трендлари[81]

Тизим корхоналари жорий активлари таркибидаги ишлаб чиқариш ва муомала соҳасидаги жорий активлар ҳажмининг ўзгариш трендлари корхоналарнинг ўрганилаётган вақт оралиғидаги фаолият соҳаларида юз берган ўзгаришлар тенденцияларини аниқ кўриш имконини беради.

Таҳлил этилаётган корхоналар жорий активлари таркибидаги товар-моддий захиралар, келгуси давр харажатлари ва кечиктирилган харажатлар ҳам жорий активларнинг маълум бир қисмидан фойдаланишда юзага келадиган ўзига хос хусусиятларни аниқлаш ва корхоналарнинг жорий активлари ҳолатини баҳолаш имконини беради. Шу сабабли, таҳлил давомида айнан юқорида кўрсатиб ўтилган жорий активлар қисмининг вақт давомидаги ўзгариш тенденцияларини аниқлашга ҳаракат қилинди.

“Ўзнефтгаз” АК тизими корхоналари жорий активлари таркибида 2016-2018 йиллар давомида товар-моддий захиралар мавжуд бўлмаган, бироқ 2019 йилдан бошлаб товар-моддий захираларнинг ҳажми ортиб, 2022 йилгача

[81] “Ўзнефтгаз” АК нинг 2016-2022-йиллар учун молиявий ҳисоботлари асосида муаллиф томонидан шакллантирилган.

бўлган вақт оралиғида барқарор равишда ортиб борган, 2022 йил якунида эса захираларнинг ҳажми сезиларли даражада (41,9 % га) пасайган (3.6-жадвал).

3.6-жадвал

“Ўзнефтгаз” АК тизимидаги корхоналар жорий активлари таркибидаги товар-моддий захиралар, келгуси давр харажатлари ва кечиктирилган харажатлар миқдори динамикаси[82]

Йиллар	Товар-моддий захиралар			Келгуси давр харажатлари			Кечиктирилган харажатлар		
	Қиймати, млн. сўм	Нисбий ўзгариш, %	Қўшимча ўсиш, %	Қиймати, млн. сўм	Нисбий ўзгариш, %	Қўшимча ўсиш, %	Қиймати, млн. сўм	Нисбий ўзгариш, %	Қўшимча ўсиш, %
2016	0,0	x	x	188,1	x	x	10595,1	x	x
2017	0,0	x	x	145,8	77,5	-22,5	0,0	x	x
2018	0,0	x	x	120,8	82,9	-17,1	0,0	x	x
2019	675206,4	x	x	217,4	180,0	80,0	559929,1	x	x
2020	816144,5	120,9	20,9	2136,0	982,5	882,5	5457,4	10260,0	10160,0
2021	1323382,9	162,2	62,2	651,0	30,5	-69,5	109492,5	2006,3	1906,3
2022	769489,5	58,1	-41,9	2247,8	345,3	245,3	55035,4	50,3	-49,7

Тизим корхоналари томонидан жорий активлар таркибидаги келгуси давр харажатларига йўналтирилган маблағлар ҳажмида ҳам ўзгаришлар кузатилади. Жумладан, корхоналар томонидан 2017, 2018 ва 2021 йилларда келгуси давр харажатларига йўналтирилган жорий маблағлар ҳажми аввалги йилларга нисбатан камайган бўлса, 2019, 2020 ва 2022 йилларда ушбу мақсадларга йўналтирилган жорий активларнинг ҳажми аввалги йилларга нисбатан ортган.

Жорий активлар таркибидаги кечиктирилган харажатлар корхоналарнинг етказиб берувчилар билан муомалаларидаги кечикишларни ўзида акс эттириб, тизим корхоналари фаолиятида кечиктирилган харажатлар миқдори 2019 йилдан бошлаб сезиларли даражада кўпайган. Бироқ корхоналар томонидан жорий активларнинг кечиктирилган харажатларга йўналтирилган

[82] “Ўзнефтгаз” АК нинг 2016-2022-йиллар учун молиявий ҳисоботлари асосида муаллиф томонидан шакллантирилган.

қисмида 2022 йилда сезиларли ҳажмда (-49,7 %) ушбу мақсаддаги харажатлар пасайишни бошлаган.

Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятини ташкил этишда жорий активлар таркибидаги пул маблағлари ҳамда дебитор қарздорликлар кўринишидаги маблағлар ҳажмининг етарлилиги корхоналарнинг фаолият самарадорлигига, фаолиятнинг якунланиш даврига ва бошқа кўрсаткичларга бевосита таъсир кўрсатади. Шуни ҳасобга олган ҳолда, “Ўзнефтгаз” АК тизими таркибидаги корхоналарда пул маблағлари ва дебиторлик қарзлари ҳажмидаги ўзгариш тенденциялари таҳлил даври учун ўрганилди (3.7-жадвал).

3.7-жадвал

“Ўзнефтгаз” АК тизимидаги корхоналар жорий активлари таркибидаги пул маблағлари ва дебиторлик қарзлари динамикаси[83]

Йиллар	Пул маблағлари				Дебиторлик қарзлари			
	Қиймати, млн. сўм	Мутлоқ ўзгариш, млн. сўм	Нисбий ўзгариш, %	Қўшимча ўсиш, %	Қиймати, млн. сўм	Мутлоқ ўзгариш, млн. сўм	Нисбий ўзгариш, %	Қўшимча ўсиш, %
2016	339026,4	x	x	x	7007795,0	x	x	x
2017	483674,5	144648,1	142,7	42,7	5810752,5	-1197042,5	82,9	-17,1
2018	291502,7	-192171,8	60,3	-39,7	7269151,1	1458398,6	125,1	25,1
2019	800464,1	508961,4	274,6	174,6	16812778,0	9543626,9	231,3	131,3
2020	2291908,9	1491444,8	286,3	186,3	8863127,6	-7949650,4	52,7	-47,3
2021	1867365,4	-424543,5	81,5	-18,5	10191223,9	1328096,3	115,0	15,0
2022	2233607,2	366241,8	119,6	19,6	11824876,8	1633652,9	116,0	16,0

Ўрганилаётган давр оралиғида тизим корхоналари жорий активлари таркибидаги пул маблағлари ҳажми ўзгаришида циклик тебранишлар юз берган бўлиб, ушбу маблағлар ҳажмининг 2019 ва 2020 йиллардаги нисбий ўсиш даражаси қолган вақт оралиқларига нисбатан юқори кўрсаткичга эга бўлган. Бироқ 2018 ва 2021 йилларда тизим корхоналари томонидан тасарруф

[83] “Ўзнефтгаз” АК нинг 2016-2022-йиллар учун молиявий ҳисоботлари асосида муаллиф томонидан шакллантирилган.

этилаётган пул маблағлари ҳажмида аввалги йилган нисбатан мос равишда 39,7 % ва 18,5 % га пасайиш юз берганлиги кузатилади. Миқдорий жиҳатдан пул маблағлари ҳажмининг кескин ортиш даври сифатида 2020 йилни (миқдорий ўзгариш – 149144,8 млн сўм), пул маблағлари ҳажмининг кескин камайиш даври сифатида 2021 йилни (миқдорий ўзгариш – 424543,5 млн сўм) кўрсатиш мумкин (3.6-расм).



3.6-расм. “Ўзнефтгаз” АК тизимидаги корхоналар жорий активлари таркибидаги пул маблағлари ва дебиторлик қарзлари трендлари[84]

Тизим корхоналари жорий активлари таркибидаги дебиторлик қарзлари миқдори ўзгаришида жорий активларнинг қолган таркибий қисмларидан кўра бошқача ўзгариш тенденцияси кузатилади. Тизим корхоналари жорий активлари таркибидаги дебиторлик қарздорликлари миқдорий жиҳатдан 2017 ва 2020 йилларда камайган бўлса–да, кўрилаётган даврнинг қолган вақт оралиқларида 115-231,0 % атрофидаги ўсиш кузатилади. Айниқса, 2019 йилда тизим корхоналарининг дебитор қарздорликлари ҳажми энг юқори даражага – 16812778,0 млн. сўмга етган бўлиб, кейинги йилдан пасайиш ва 2021 йилдан ўртача 15-16 % га ўсган. Албатта, дебитор қарздорликларнинг умумий ҳажмида муддати ўтмаган қарздорликлар асосий қисмни ташкил этадиган бўлса, ушбу турдаги жорий активларнинг ортиши корхоналар фаолиятига молиявий жиҳатдан сезиларли салбий таъсир кўрсатмайди, бироқ дебитор

[84] “Ўзнефтгаз” АК нинг 2016-2022-йиллар учун молиявий ҳисоботлари асосида муаллиф томонидан шакллантирилган.

қарзлар таркибида муддати ўтган қисми ортиб кетадиган бўлса, у ҳолда корхоналар жорий активларидан фойдаланиш самарадорлигига салбий таъсир кўрсатади.

Юқоридаги кўрсаткичларнинг вақтли қаторлар бўйича ўзгариш тенденцияларини индекслар усулидан фойдаланган ҳолдаги таҳлили натижаларига асосан нефт ва газ саноати корхоналари фаолияти ҳамда уларнинг жорий активларидаги ўзгаришлар бўйича қуйидаги асосий жиҳатларни ажратиб кўрсатиш мумкин:

1. Жаҳон миқёсида қазиб олинадиган табиий энергия ресурслари ҳажмининг камайиб бориши мамлакатимиз иқтисодий тизимларида ҳам кузатилиб, юз бераётган ўзгариш тенденцияларини таҳлил қилган ҳолда келгуси ўзгаришларнинг ҳаракат траекторияларини баҳолаган ҳолда фаолиятни ташкил этиш муҳим ҳисобланади.

2. Мамлакатимиз тоғ-кон саноати томонидан нефть ва табиий газ қазиб олиш ҳажмларининг камайиб бориши билан, нефть ва газ саноати йирик корхоналари томонидан ёқилғи маҳсулотларини қайта ишлаш ҳажмида ҳам тебранувчи траекториядаги ўзгариш тенденцияларининг юзага келиши кузатилмоқда.

3. “Ўзнефтгаз” АК тизимидаги корхоналарнинг 2016-2022 йиллар бўйича молиявий ҳисоботлари асосида тенденцияларнинг ўзгариш таҳлили тизим корхоналарининг активлари ва уларнинг манбаларида вақт оралиқлари бўйича ўзига хос тебранишларни кўрсатади. Жумладан, тизим корхоналари томонидан жами узоқ муддатли активлар қиймати мунтазам ошириб борилганлигини, айниқса 2017, 2019 ва 2021-йилларда узоқ муддатли активларга манбалардан маблағларнинг сезиларли даражада кўпроқ йўналтирилганлиги ҳисобига, ушбу йилларда тизим корхоналари узоқ муддатли активлари ҳажмининг ортишида кескин сакрашлар юзага келган. Вақт оралиқлари бўйича тизим корхоналари жами жорий активлари қийматида 2017 ва 2020 йиллар давомида кескин пасайиш кузатилса, қолган даврларда

жорий активларнинг умумий қийматида барқарор (2018 ва 2019-йилларда кескин) ўсиш кузатилади.

4. “Ўзнефтгаз” АК таркибидаги корхоналар пассивлари ҳажми ва таркибининг таҳлил этилаётган даврдаги ўзгариши тизим корхоналари ихтиёридаги активларнинг шаклланиш манбаларида ҳам ўзига хос ўзгариш тенденцияси мавжудлигини кўрсатади. Тизим корхоналарининг пассивлари таркибидаги ўз маблағлари манбалари ҳажми 2022 йилгача бўлган даврда сезиларли диапазондаги тебранишлар билан ўсиб борган бўлиб, 2022 йилда бу маблағлар ҳажмида аввалги йилга қараганда пасайиш юз берган. Таҳлил этилаётган даврда активлар ҳажмининг ўсиши билан боғлиқ ҳолда пассивлар ҳажмининг ортиши ўз маблағларининг қолган қисмини мажбуриятлар ҳисобига шакллантирган. Бунда тизим корхоналарининг умумий мажбуриятлари ҳажми фақатгина 2020 йилда сезиларли даражада камайган. Қолган йилларда эса мажбуриятлар ҳажми тебранувчан трендда ўтган даврга нисбатан ўсиб борган.

5. Ишлаб чиқариш соҳасидаги жорий активлар қийматининг 2019 йилгача бўлган ҳажми тизим таркибидаги корхоналарнинг асосий қисми воситачи ёки етказиб бериш билан шуғулланувчи корхоналардан иборат эканлигини кўрсатиб, 2019 йилдан кейинги даврда тизимга нефть ва газ маҳсулотларини ишлаб чиқарувчи корхоналар қўшилиши ҳисобига ишлаб чиқариш соҳасидаги жорий активлар ҳажми ортган. Ишлаб чиқариш соҳасидаги жорий активлари ҳажми 2019 йилгача бўлган даврда пасайиш трендига эга бўлиб, 2019 йилда ушбу кўрсаткич қиймати жуда катта сакраш хусусиятига ҳамда 2020 ва 2021 йилларда барқарор ўсиш тенденциясини кўрсатади. Бироқ 2022 йил якуни бўйича тизим корхоналарининг ишлаб чиқариш соҳасидаги жорий активлари ҳажми аввалги йилдаги кўрсаткич ҳажмига нисбатан пастлаган. Муомала соҳасидаги жорий активлар ҳажмининг таҳлил давридаги динамикасида эса ўта кескин ўзгаришлар нисбатан юмшоқроқ ҳолатда юз берган. Жумладан, тизим таркибидаги корхоналарнинг

муомала соҳасидаги жорий активлари ҳжми 2017 ва 2020 йилларда аввалги йилга нисбатан пасайиш трендига эга бўлса, қолган йиллардаги ушбу кўрсаткичнинг ўзгаришида ўсиш тенденцияси кузатилади.

6. “Ўзнефтгаз” АК тизими корхоналари жорий активлари таркибида 2016-2018 йиллар давомида товар-моддий захиралар мавжуд бўлмаган, бироқ 2019 йилдан бошлаб товар-моддий захираларнинг ҳажми ортиб, 2022 йилгача бўлган вақт оралиғида барқарор равишда ортиб борган, 2022 йил якунида эса захираларнинг ҳажми сезиларли даражада пасайган. Тизим корхоналари томонидан жорий активлар таркибидаги келгуси давр харажатларига йўналтирилган маблағлар ҳажмида ҳам ўзгаришлар кузатилади. Жумладан, корхоналар томонидан 2017, 2018 ва 2021 йилларда келгуси давр харажатларига йўналтирилган жорий маблағлар ҳажми аввалги йилларга нисбатан камайган бўлса, 2019, 2020 ва 2022 йилларда ушбу мақсадларга йўналтирилган жорий активларнинг ҳажми аввалги йилларга нисбатан ортган. Жорий активлар таркибидаги кечиктирилган харажатлар миқдори 2019 йилдан бошлаб сезиларли даражада кўпайган, бироқ корхоналар томонидан жорий активларнинг кечиктирилган харажатларга йўналтирилган қисмида 2022 йилда сезиларли ҳажмда ушбу мақсаддаги харажатлар пасайишни бошлаган.

7. Ўрганилаётган давр оралиғида тизим корхоналари жорий активлари таркибидаги пул маблағлари ҳажми ўзгаришида циклик тебранишлар юз берган бўлиб, ушбу маблағлар ҳажмининг 2019 ва 2020 йиллардаги нисбий ўсиш даражаси қолган вақт оралиқларига нисбатан юқори кўрсаткичга эга бўлган. Бироқ 2018 ва 2021 йилларда тизим корхоналари томонидан тасарруф этилаётган пул маблағлари ҳажмида аввалги йилган нисбатан пасайиш юз берганлиги кузатилади. Миқдорий жиҳатдан пул маблағлари ҳажмининг кескин ортиш даври сифатида 2020 йилни, пул маблағлари ҳажмининг кескин камайиш даври сифатида 2021 йилни кўрсатиш мумкин.

8. “Ўзнефтгаз” АК таркибидаги корхоналар жорий активлари таркибидаги дебиторлик қарзлари миқдори ўзгаришида жорий активларнинг

қолган таркибий қисмларидан кўра бошқача ўзгариш тенденцияси кузатилади. Тизим корхоналари жорий активлари таркибидаги дебиторлик қарздорликлари миқдорий жиҳатдан 2017 ва 2020 йилларда камайган бўлса–да, кўрилаётган даврнинг қолган вақт оралиқларида 115-231,0 % атрофидаги ўсиш кузатилади. Айниқса, 2019 йилда тизим корхоналарининг дебитор қарздорликлари ҳажми энг юқори даражага етган бўлиб, кейинги йилдан пасайиш ва 2021 йилдан ўртача 15-16 % га ўсиш кузатилади.

Хулоса. Албатта, дебитор қарздорликларнинг умумий ҳажмида муддати ўтмаган қарздорликлар асосий қисмни ташкил этадиган бўлса, ушбу турдаги жорий активларнинг ортиши корхоналар фаолиятига молиявий жиҳатдан сезиларли салбий таъсир кўрсатмайди, бироқ дебитор қарзлар таркибида муддати ўтган қисми ортиб кетадиган бўлса, у ҳолда корхоналар жорий активларидан фойдаланиш самарадорлигига салбий таъсир кўрсатади.

Нефть ва газ саноати корхоналарида жорий активлар ҳажми ўзгариш тенденцияларини баҳолашда кўрсаткичларнинг вақтли қаторларидаги ўзгариш тенденцияларини индекслар усулидан фойдаланган ҳолда таҳлил этиш тадқиқ этилаётган жараёнларда юз бераётган ўзгаришларнинг барқарор, мавсумий ҳамда тасодифий компонентларини аниқлаган ҳолда трендларнинг умумий траекторияларини аниқроқ баҳолаш имконини кенгайтиради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. ПП-4611 «О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности» 24 февраля 2020 г.
2. МСФО 2 (IAS 2) Запасы. https://finacademy.net/materials/standartu-msfo/msfo-ias-2-zapasy
3. Набор международных стандартов финансовой отчетности. // АССА. МСФО/IAS.., 2019.
4. Чая В.Т., Чая Г.В. "Международные стандарты финансовой отчетности". ISBN 978-5-4252-0182-9. 368 с.
5. Сатывалдыева Д.А. Бухгалтерский учет. Учебное пособие.-Т.: «IQTISODIYOT», 2023. -248 с.
6. Эргашева Ш.Т. и др. (2019) Международные стандарты финасовой отчетности. Учебное пособие. – Т.: Иктисодиёт, 2019. –227 с.
7. Новые международные стандарты финансовой отчетности. Перемены в стандартах страхования // Международный бухгалтерский учет. 2011. № 25. С. 2–5.
8. Хорин А. Н., Бровкин А. В. Цели и особенности анализа интегрированной отчетности, корпоративного капитала и комплексной

результативности бизнес - процессов // Креативная экономика. — 2018. — Т. 12, № 4. — С. 499–512.

9. Четыркин Е.Н. Статистические методы прогнозирования. - М.: Статистика, 1975. - 184 с.

10. Бланк И.А. Управление использованием капитала. - Киев: «Ника-центр»: «Эльга», 2000. - 650 с.

KORXONALAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TAN OLISHDA BUXGALTERIYA HISOBINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Maxmudova Dilobarxon Rasuljon qizi,
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoati instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiy barqarorlikni shakllanishi va uning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarning iqtisodiy moxiyati ko‘rib chiqilgan. Shuningdek iqtisodiy barqarorlik shakllanish (paydo bo‘lish) va amal qilish doirasidan kelib chiqib guruxlash taklif qilindi. Bular ichida korxonalar moliyaviy barqarorligini tan olishda buxgalteriya hisobining ahamiyati ochib berildi. Bu borada iqtisodchi olimlarning fikrlari o‘rganilib, mualliflik xulosasi berildi. Jumladan, xo‘jalik yurituvchi subyektning kapitali qancha ko‘p bo‘lsa hamda va qarzi qancha kam bo‘lsa, uning moliyaviy barqarorligi shuncha yuqori bo‘lishi asoslab berildi va uni hisoblash formulasi berildi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy barqarorlik, makroiqtisodiy barqarorlik, mikroiqtisodiy barqarorlik, moliyaviy barqarorlik, ijobiy balans, o‘z mablag‘lari, qarzga olingan mablag‘lar, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, korxonaning hisob siyosati.

Respublikamiz iqtisodiyotining barqaror o‘sish sur’atlari shiddat bilan ta’minlanmoqda va hukumatimiz tomonidan uni mustahkamlash borasida yangi ustuvor vazifalar belgilanmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Asosiy vazifalar — makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, inflyatsiyani jilovlash, tarmoqlarni monopoliyadan chiqarish, davlat tomonidan narxlar belgilanishini tartibga solishni bekor qilish va “yashirin iqtisodiyot” ga barham berish” [1].

Iqtisodiy barqarorlik o‘zida mamlakat iqtisodiyotining bir butunlikda qamrab oladi. Iqtisodiy barqarorlik shakllanish (paydo bo‘lish) va amal qilish doirasidan kelib chiqib, quyidagicha guruxlanadi:

makroiqtisodiy barqarorlik;

mikroiqtisodiy barqarorlik;

moliyaviy barqarorlik.

Iqtisodiy barqarorlik ta’sir etuvchi omillar:

iqtisodiy omillar (investitsiya darajasi, ishlab chiqarish kuchlari, innovatsiya va texnologiya);

siyosiy omillar (mamlakatdagi siyosiy xolat);

ijtimoiy omillar (axolining ishsizlik va daromadlilik darajasi, mu’aorif va sog‘liqni saqlash darajasi);

tashqi omil (jaxon iqtisodiy krizisi, umumbashariy iqtisodiy muammolar, umumjaxon siyosatidagi kelishmovchiliklar jumladan, har-xil sanksiyalar). [12]

Demak, moliyaviy barqarorlik iqtisodiy barqarorlikning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlikni xo‘jalik yurituvchi subyekt iqtisodiy samaradorligining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri deb hisoblash mumkin. Xozirda moliyaviy barqarorlik va uni ta’minlash omillari to‘g‘risida iqtisodchi olimlaning har-xil qarashlari mavjud bo‘lib, bu borada yanada ko‘proq tadqiqotlar olib borishni taqazo qiladi.

Moliyaviy barqarorlik — bu mamlakat yoki mintaqaning moliyaviy tizimining holati bo‘lib, unga o‘zining asosiy funksiyalarini uzluksiz va samarali bajarish, zarbalar va nomutanosibliklarga bardosh berish hamda real iqtisodiyotning normal ishlashini qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Bu barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosidir.[13]

Xozirgi o‘zgaruvchan iqtisodiyot dunyosida moliyaviy barqarorlikka erishishi mumkin bo‘lgan belgilari to‘g‘risida har-xil qarash va tas’niflar mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

Salbiy ta’sirlarga chidamliligi. Moliya tizimi o‘zini o‘zi tuzatish richaklari orqali salbiy ta’sirlarni (kutilmagan qaltis o‘zgarishlarni) o‘zlashtira oladi, ularning real iqtisodiyotga yoki boshqa moliyaviy tizimlarga halokatli ta’sirini oldini oladi. [10]

O‘z funksiyalarni samarali bajarishi. Moliya tizimi moliyaviy resurslarni samarali qayta taqsimlash, tavakkalchiliklarni boshqarish, to‘lov tizimlarining uzluksiz ishlashini va jamg‘armalarni investitsiyalarga aylantirishni ta’minlashi kerak. [13]

Tizimli inqirozlarning yo‘qligi. Moliyaviy barqarorlik moliyaviy tizimda keng ko‘lamli uzilishlarning yo‘qligini anglatadi.[10]

Muvozanatsizliklarni tuzatish qobiliyati. Tizim turli salbiy nomutanosibliklarni, ular tizimning o‘ziga zarar yetkazmasdan oldin darhol cheklashi va tuzatishi kerak. [9]

Iqtisodiyotning moliyaviy bo‘lmagan tizimiga ijobiy ta’siri. Barqaror moliyaviy tizim resurslarni samarali taqsimlashga, xavflarni oldini olishga yordam beradi, iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi va mamlakat farovonligini oshiradi. [13]

Moliyaviy barqarorlikni vujudga kelish joyi yoki ta’sir doirasiga qarab quyidagicha guruxlashni maqsadga muvofiq deb topdik:

makro darajadagi moliyaviy barqarorlik;

mikro darajadagi moliyaviy barqarorlik.

Makro darajadagi moliyaviy barqarorlik aloxida olingan xududlar moliyaviy saloxiyatining baholashni ifodalovchi iqtisodiy ko‘rsatkichi bo‘lib, uning baxolanishida umumiqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalanamiz. Masalan, inflyatsiya darajasi, xorijiy valyuta kurslarining farqi.

Mikro darajadagi moliyaviy barqarorlik aloxida olingan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy xolatini ifodalovchi iqtisodiy ko‘rsatkich bo‘lib, uning baxolashda umumqabul qilingan ko‘rsatkichlardan foydalanamiz. Jumladan, xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘z kapitalining yetarlilik darajasi, to‘lovga qodirlilik

qobiliyati va likvidligi, investitsion jozibadorligi, tashqi kreditorlardan mustaqilligi, mustaqil ijobiy balansga ega ekanligi, ta’sir etuvchi omillardan qat’iy nazar faoliyatni davom ettirish qobiliyati.

Makro darajadagi moliyaviy barqarorlik bilan mikro darajadagi moliyaviy barqarorlik o‘rtasida xech qanday to‘siq mavjud emas. Aksincha, mikro darajadagi moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari asosida makro darajadagi moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari shakllanadi.

N. V. Lipchiu fikricha, “Moliyaviy barqarorlik” tushunchasi ko‘p qirrali ma’noga ega bo‘lib, hajmi va to‘liqligi jihatidan quyidagi tushunchalardan ustundir: “kreditga layoqatlilik” va “to‘lov qobiliyati”. Chunki, moliyaviy barqarorlik korxona faoliyatining turli tomonlarini baholashdan iborat. [7]

O.I. Vyatkina fikricha “Moliyaviy barqarorlik” — bu kompaniyaning to‘lov qobiliyatiga ta’sir qiluvchi moliyaviy holat darajasining ichki aksidir. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “moliyaviy barqarorlik aktiv va passivlar tarkibi, daromad va xarajatlar darajasi hamda to‘lovlar va tushumlar darajasi o‘rtasidagi muvozanat asosida aniqlanadi”. Korxonaning moliyaviy barqarorligi o‘zgaruvchan ichki va tashqi muhitda ham o‘z faoliyatini davom ettirish va rivojlantirish, hayotiy va to‘lov qobiliyatini saqlab qolish, kelajak uchun investitsiya loyihalarini ta’minlash va maqbul darajadagi xavfga ega bo‘lish qobiliyati bilan belgilanadi. [3]

xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy barqarorligini baholash hamda tahlil qilishning asosiy ma’lumot manbai bo‘lib korxonalarda tashkil etilgan buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimi hisoblanadi. Shu sababdan ham xo‘jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy barqaror deb tan olishning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri, korxonaning mustaqil ijobiy balansga ega bo‘lishi hisoblaymiz.

Shu yerda bir savol tug‘ilishi mumkin ya’ni, “korxonalarning mustaqil ijobiy balansga ega ekanligini qanday aniqlaymiz?”. Mustaqil ijobiy balansga ega bo‘lishi bu korxona buxgalteriya hisobi balanisining aktiv va passiv tomonlarining nisbati bo‘yicha aniqlanadi. Umumqabul qilingan nazariy jihatdan olganda “aktiv = xususiy kapital + majburiyat”. Bundan kelib chiqqan xolda ijobiy balansni aniqlashimiz mumkin. Agar “xususiy kapital > majburiyat” bo‘lsa, korxonani ijobiy balansga ega deb tan olamiz. Agar “xususiy kapital < majburiyat” bo‘lsa, korxonani salbiy balansga ega deb hisoblaymiz.

Professor A. Burxonov fikricha, “Korxonalarning moliyaviy barqarorligi ko‘p jihatdan ularning ixtiyoridagi mablag‘larning turi va hajmiga hamda ular qanday investitsiya qilinishiga bog‘liqdir. Korxona ixtiyoridagi mablag‘lar, ulardan foydalanish yo‘nalishiga qarab, o‘z mablag‘lari va qarzga olingan mablag‘larga bo‘linadi” [2].

A.D. Sheremetning fikriga ko‘ra, moliyaviy barqarorlik tovar-moddiy zaxiralar va xarajatlar uchun manbalarning mavjudligi shuningdek, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish bilan bog‘liq. [6]

O.N. Volkova bu tushunchani o‘z mablag‘larining qarz mablag‘lariga nisbati sifatida ko‘rib chiqadi. A.N. Jilkina moliyaviy barqarorlikni korxonaning o‘z asosiy va aylanma mablag‘lari uchun yaxshi daromad manbalaridan (o‘z mablag‘lari, uzoq muddatli majburiyatlar, qisqa muddatli qarz mablag‘lari) foydalangan holda

to‘lashga qodirlik qobiliyati sifatida tavsiflaydi.[5]

M.Ye. Grebneva ta’kidlashicha, “O‘z navbatida, buxgalteriya balansi – bu korxona aktivlari va kapitalining nisbati bo‘lib, unda korxonaning xozirgi hamda eski qarzlari ham butunlay yangi daromadlar bilan to‘liq qoplanadi” [4].

Boshqacha qilib aytganda moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari aksiyalar qiymatining kapital va qarz mablag‘lari qiymatiga nisbati bilan belgilanadi. Xo‘jalik yurituvchi subyektning kapitali qancha ko‘p bo‘lsa va qarzi qancha kam bo‘lsa, uning moliyaviy barqarorligi shuncha yuqori bo‘ladi. Kapital nisbati xo‘jalik yurituvchi subyekt aktivlari (umumiy aktivlar) va kapitali (umumiy kapital) bilan ta’minlanganlik ulushini aks ettiradi. Demak, bu ko‘rsatkich investorlarga xo‘jalik yurituvchi subyekt aktivlari ulushi va barcha majburiyatlar to‘langandan keyin qolgan aktivlar ulushini aniqlash imkonini beradi. Bu ko‘rsatkich quyidagicha aniqlashimiz mumkin:

$$\mathbf{K._{XK} = \sum_{XK} \div \sum_{A}}$$

bu yerda, $K._{XK}$ – xususiy kapital koeffitsiyenti;

$\sum_{XK}$ - xususiy kapitali summasi;

$\sum_{A}$ - aktivlari summasi.

$K._{XK} > 0,4$ bo‘lishi kerak.

Qarzdorlik koeffitsiyenti o‘z kapitali koeffitsiyentining teskarisi bo‘lib, xo‘jalik yurituvchi subyektni tashqi manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan aktivlarining (umumiy majburiyatlar) ulushini ko‘rsatadi. Bu investorlarga xo‘jalik yurituvchi subyektning umumiy qarz yuki va kapitalni investitsiya qilish havfini baholashga yordam beradi.

$$\mathbf{K._{Q} = \sum_{M} \div \sum_{A}}$$

bu yerda, $K._{Q}$ - qarzdorlik koeffitsiyenti;

$\sum_{M}$ - majburiyatlar summasi;

$\sum_{A}$ - aktivlar summasi.

$K._{Q} < 0,6$ bo‘lishi kerak.

Qarz kapitali koeffitsiyenti xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ta’sirini baholash va korxona o‘z faoliyatini o‘z kapitali hisobidan emas, balki qarz kapitali bilan qay darajada moliyalashtirishini o‘lchash uchun ishlatiladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy barqarorligiga ta’sir etuvchi tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

davlatning amaldagi siyosiy - iqtisodiy siyosati;

davlatning amaldagi soliq siyosati;

davlat va xududning innovatsiya siyosati;

davlat va xududning investitsiya siyosati;

buxgalteriya hisobining milliy standartlari.

Ichki omillargi quyidagilar kiradi:

Ichki omillargi quyidagilar kiradi:

korxonaning hisob siyosati;

korxonaning kadrlar siyosati;

xo‘jalik yurituvchi subyektning innovatsiya strategiyasi;

xo‘jalik yurituvchi subyektning investitsiya strategiyasi;

xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘ziga xos texnologik xususiyati.

Yuqoridagilar foydalanib, xozirgi iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitidan makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy omillari sifatida amaldagi buxgalteriya hisobi tizimining asosiy me’yoriy manbalarini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Jumladan, buxgalteriya hisobining amaldagi milliy standartlari, korxonaning hisob siyosati va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oliy majlisga murojatnomasi. “Xalq so‘zi” gazetasi №19 (7521), 2020-yil 25-yanvar.
2. Burxanov Aktam Umanovich. Sanoat korxonalari moliyaviy barqaror-ligini baholash usuli. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr 2018.
3. Вяткина О.И. Финансовая устойчивость предприятия (организации). // «Научно-практический журнал Аллея Науки» –2022. – №8. – С. 1-2.
4. Гребнева М.Е. Финансовая устойчивость предприятия. // Курский государственный университет, г. Курск. 2019. — №6. — 67 с.
5. Милютина Л. А. Финансовая устойчивость предприятия как ключевая характеристика финансового состояния //Вестник университета. – 2017. – №. 5. – С. 153-156.
6. Тищенкова Г. З., Элемова Д. К., Розымов У. М. Современные подходы к оценке финансового состояния // Вектор экономики.- 2020.- №. 5. – С. 74-74.
7. Липчиу Н. В. Финансовая устойчивость предприятия в период кризиса. // «Научно-практический журнал Аллея Науки» –2022. №11 – С. 1-2.
8. cyberleninka.ruru.wikipedia.org
9. cyberleninka.ru
10. worldbank.orgen.wikipedia.org
11. whatiscentralbank.hse.rucyberleninka.ru
12. gantbpm.ru /topics/ ekonomichesaya – stabilnost /
13. cbu.uzcyberleninka.ruru.wikipedia.org

НОВЫЙ ПОРЯДОК ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ - ЭТО ПОСЛЕДСТВИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Холбеков Р.О., д.э.н., профессор кафедры «Бухгалтерский учёт», Ташкентский Государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье рассмотрены особенности формирования финансового результата деятельности хозяйствующих субъектов Республики Узбекистан, влияющие факторы, виды финансовой отчетности, цель

реформирования системы бухгалтерского учета и финансовой отчетности, отчет о финансовых результатах рассмотрены как информационная база управления затратами.

Ключевые слова: финансовое состояние, учетная информация, внутренние и внешние пользователи, хозяйствующий субъект, финансовый результат, валовая прибыль, чистая прибыль.

Проверка финансового состояния предприятия является очень важной частью при проведении мониторинга. Анализируя финансовую отчетность, специалист дает точную картину финансового состояния предприятия, что позволяет пользователям как внутренним, так и внешним правильно принимать решения.

Под анализом финансовой отчетности предприятия понимается выявление взаимозависимостей между различными показателями его финансово-хозяйственной деятельности, включенными в отчетность. Результаты анализа позволяет заинтересованным лицам и организациям принимать решения на основе оценки финансового положения о деятельности компании за предшествующие годы и ее потенциальных возможностей на предстоящие годы. При составлении годового отчета предприятия должны руководствоваться Законом о бухгалтерском учете Республики Узбекистан, Национальными Стандартами Бухгалтерского Учета (НСБУ), планом счетов бухгалтерского учета финансово-хозяйственной деятельности предприятий, а также другими нормативными и законодательными актами.

Финансовые отчеты отражают различные аспекты финансово-хозяйственной деятельности и представляют собой нижеследующие формы.

Бухгалтерский баланс – форма №1;

Отчет о финансовых результатах – форма №2;

Отчет о денежных потоках – форма №4;

Отчет о собственном капитале – форма №5. [2]

Основным экономическим законом при рыночной экономике является получение прибыли. Это значит, что извлечение предпринимателями прибыли из своих предприятий, представляет собой при рыночной экономике главный стимул хозяйственной деятельности.

Прибыль – важнейшая стоимостная категория в условиях товарно-денежных отношений, форма реализации прибавочного продукта. Величина стоимости благ, созданных в отраслях материальной сферы (совокупный общественный продукт) включает стоимость израсходованных средств производства (c), представляющих результат перенесенного овеществленного труда, необходимо (v) и прибавочного (m) продукта. При этом сумма двух последних частей (v+m) выражает вновь созданную стоимость или валовой доход, который в масштабе всего народного хозяйства равен национальному доходу. Если доля совокупного продукта, соответствующая стоимости потребленных средств производства, составляет фонд возмещение (c) и обеспечивает простое воспроизводство, то остается величина, равная вновь

созданной стоимости, используемая как для личных и общественных потребностей, так и для расширенного воспроизводства.

Утвержденное Кабинетом Министров Республики Узбекистан Положение о составе затрат по производству и реализации продукции (работ, услуг) и о порядке формирования финансовых результатов утвержденное от 5 февраля 1999 года устанавливает единые методологические основы формирования финансового результата предприятия.

Основной целью бухгалтерского учета является определение финансовых результатов деятельности хозяйствующих субъектов для определения их конкурентоспособности. В данном Положении содержится группировка затрат и порядок формирования финансовых результатов, что дает возможность хозяйствующим субъектам с одной стороны разрабатывать и использовать систему точного и своевременного сбора информации о всех производственных расходах и полученных доходах за соответствующий отчетный период, а с другой стороны – составлять отчетность для налоговых органов в соответствии с налоговым законодательством. Необходимо отметить, что данное Положение разработано на основе международных стандартов с учетом национальных особенностей экономики Узбекистана. В соответствии с действующим Положением о составе затрат финансовые результаты деятельности хозяйствующего субъекта характеризуются следующими показателями прибыли:

Валовая прибыль от реализации продукции, которая определяется как разница между чистой выручкой от реализации и производственной себестоимостью реализованной продукции:

$$ПВ=ЧВР-СР$$

где:

ПВ – валовая прибыль;

ЧВР – чистая выручка от реализации;

СР – производственная себестоимость реализованной продукции.

Прибыль от основной деятельности, которая определяется как разница между валовой прибылью от реализации продукции и расходами периода, и плюс прочие доходы или минус прочие убытки от основной деятельности:

$$ПОД=ПВ-РП+ПД-ПУ$$

где:

ПОД – прибыль от основной деятельности;

РП – расходы периода;

ПД – прочие доходы от основной деятельности;

ПУ – прочие убытки от основной деятельности.

Прибыль (или убыток) от общехозяйственной деятельности, которая рассчитывается как: сумма прибыли от основной деятельности плюс доходы и минус расходы по финансовой деятельности:

$$ПО=ПОД+ДФ-РФ$$

где:

ПО – прибыль от общехозяйственной деятельности;

ДФ – доходы от финансовой деятельности;

РФ – расходы по финансовой деятельности.

П прибыль до уплаты налога, которая определяется как прибыль от общехозяйственной деятельности плюс чрезвычайная прибыль и минус чрезвычайные убытки:

$$ПДН=ПО+ПЧ-УЧ$$

где:

ПДН – прибыль до выплаты налога;

ПЧ – чрезвычайная прибыль;

УЧ – чрезвычайные убытки.

Чистая прибыль года, которая остается в распоряжении хозяйствующего субъекта после уплаты налога, представляет собой прибыль до уплаты налогов за вычетом налога на прибыль и минус другие налоги и платежи, предусмотренные законодательством:

$$ПЧ=ПДН-ННД-НД$$

где:

ПЧ – чистая прибыль;

ННД – налог на прибыль;

НД – другие налоги и платежи. [1]

Иногда хозяйствующий субъект, осуществляя свою деятельность, наряду с доходами несет и убытки. С этой целью, в Положении о составе затрат по производству и реализации продукции (работ, услуг) и о порядке формирования финансовых результатов подлежит отражению доходов, получаемые хозяйствующим субъектом и расходы, осуществляемые им в процессе хозяйствования.

Доходы, получаемые хозяйствующими субъектами в результате осуществления их хозяйственной деятельности, подлежат включению в отчет по следующим основным разделам.

- чистая выручка от реализации, по организациям (предприятиям), осуществляющим реализацию продукции (работ, услуг) по ценам ниже фактический себестоимости, при налогообложении сумма убытков не уменьшает налогооблагаемую базу, за исключением экспортной продукции (работ, услуг) собственного производства, реализуемой за свободно конвертируемую валюту;

прочие доходы от основной деятельности (операционные доходы);

доходы от финансовой деятельности;

чрезвычайные доходы.

Чистая выручка от реализации определяется как выручка от реализации продукции (работ, услуг) за минусом налога на добавленную стоимость, акцизов и экспортных таможенных пошлин. В нее не включаются возврат товаров, предоставленные скидки покупателям и другие.

Хозяйствующие субъекты, осуществляющие экспортную деятельность, исчисление доходов (прибыли) осуществляют в порядке, предусмотренном действующим законодательством. Выручка от реализации продукции (работ,

услуг) определяется в соответствии с законодательством о бухгалтерском учете. К прочим доходам от основной производственной деятельности относятся:

